


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

«MUHANDISLIK TEKNOLOGIYALARI» FAKULTETI
«BIOTEXNOLOGIYA» KAFEDRASI

**«OQSILLAR TUZILISHI FUNKSIYASI
VA MUHANDISLIGI»**
o'quv-uslubiy majmua



| | |
|--------------------------|---|
| Bilim sohasi | 700 000 — Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta'lif sohasi | 710 000 — Muhandislik ishi. |
| Ta'lif yo'nalishi | 60710200 — Bioteknologiya (tarmoqlar bo'yicha) |

**Tuzuvchilar: Abdullayeva G.T. – ToshDTU kafedra dotsenti, b.f.d.
Toshtemirova M.J. – ToshDTU kafedra katta o'qituvchisi**

MUNDARIJA

| | | |
|----|---|------------|
| 1. | Ma‘ruzalar mavzulari | 4 |
| 2 | Mavzu bo‘yicha reja, tayanch so‘z va iboralar asosiy matn, illusryativ materiallar, xorijiy adabiyotlarga havolalar | 6 |
| 3 | Amaliy mashg’ulot ishlarini mavzulari asosiy matn, zarur asbob uskunalar, xorijiy adabiyotlarga havolalar | 61 |
| 4 | Mustaqil ta‘lim mashg’ulotlari, mavzulari, shakli, ko‘rsatmalar, variantlar, tushuntirishlar, boshqa ma‘lumotlar | 77 |
| 5 | Glossariy | 78 |
| 6 | Ilovalar | 88 |
| 7 | Fan dasturi | 88 |
| 8 | Ishchi fan dasturi | 90 |
| 9 | Tarqatma materiallar | 97 |
| 10 | Testlar | 132 |
| 11 | Foydalanilgan adabiyotlar | 130 |

MA’RUZA MAVZULARI

1- mavzu: Fanga kirish. Oqsillar tuzilishi, funksiyasi va muhandisligi fani tarixi va uning vazifalari

Oqsillar luzilishi, funksiyasi va muxandisligi faninig axamiyati va vazifalari. Oqsillar kimyosining rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlari. Oqsillaming biopolimerlar sifatida (tasavvur qilinishi. Oqsillar xaqida umumiylashtirilishi. Oqsillaming klassifikatsiyasi prinsiplari, ularning xilma-xilligi. Oqsillar tarkibidagi ularga xos bo'limgan komponentlar, metalloproteidlar, xromoproteidlar, glikoproteid va boshqalar. Oqsil molekulasining tuzilish darajalari.

2-mavzu. Oqsillar tuzilishini tadqiqot qilish usullari

Oqsillaming aniinokislota tarkibi va birlamchi tuzilishini aniqlash usullari. Oqsillamining mass-spektrometriyasi va uning prinsiplari. Oqsil nanuinasini mass-spektrometriya usulida anliz qilisliga tayyorlas yollari. Aminokislotalar funksional guruhlari modillkalsiyasi reaksivalari Polipoplid zanjirini spetsifik va nospetsifik fragmentlarga ajratishning kimyoviy va fermentativ usullari.

3-mavzu. Oqsillar biotexnologiyasi

Oqsillarning tuzilishi, funksiyasi va klassifikatsiyasi. Oqsillar biosintezi. Oqsillar qo'llaniladigan sanoat turlari.

4-mavzu. Aminokislotalar oqsil molekulasi tuzilisining asosiy bloklari.

Aminokislotalar olish texnologiyasi

Aminokislotalarning klassifikatsiyasi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Aminokislotalar va oqsillarning aniqlashning biokimyoviy usullari. Oqsillarni biologik ob'ektlardan tozalash va ajratib olish prinsiplari. Oqsil molekulasini individual xolda xolatini aniqlash yollari. Aminokislotalar olish texnologiyasi

5-mavzu. Oqsillarning tuzilish darajalari

Oqsillar (polipeptidlar) peptid bog'lari orqali bog'langan aminokislotalardan tashkil topgan biopolimerlardan ekanligi. Oqsillarning birlamchi tuzilishi. Oqsillarning ikkilamchi tuzilishi. Oqsillaniing uchlaniclii tuzilishi. Oqsillaming to'rtlamchi tuzilishi. To'rtlamchi tuzilishning stexiometriyasi va geometriyasi.

6-mavzu. Fermentlar olish texnologiyasi

Fermentlar olish texnologiyasi. Fermentlar biologik katalizatorlar sifatida. Fermentlar olishda mikrabiologik usullar. Fermentlarni ajratib olish va tozalash usullari

7-mavzu. Oqsillarning sifat ko'rsatkichlari

Oqsillarning sifat korsatkishlari. Hayvon maxsulotlari oqsillari. O'simlik maxsulotlari oqsillari. Oqsillarning ozuqaviy qiymati. Oqsilli ozuqa maxsulotlari


8-mavzu. Oqsillarning dorivorlik hususiyatlari

Dori vositalari ishlab chiqarishda oqsillardan foydalanish. Oqsillarni olishda qollaniladigan hom-ashyolar. Oqsillarni tozalash usullari. Farmasevtikadagi oqsil tabiatli dorivor vositalar ishlab chiqarish biotexnologiyasi.

OQSILLAR TUZILISHI FUNKSIYASI VA MUHANDISLIGI

FANIDAN MA'RUZA MATNLARI

(Mavzu bo'yicha reja, tayanch so'z va iboralar asosiy matn, illusryativ materiallar, xorijiy adabiyotlarga havolalar)



Mavzu-1. Fanga kirish. Oqsillar tuzilishi, funksiyasi va muhandisligi fani tarixi va uning vazifalari

REJA:

1. Oqsillar tuzilishi, funksiyasi va muhandisligi faninig axamiyati va vazifalari.
2. Oqsillar kimyosining rivojlanish tarihi va asosiy yo'nalishlari.
- 3.Oqsillarning biopolimerla sifatida tasavvur qilinishi. Oqsillar xaqida umumiy tushunchalar.
- 4.Oqsillarning klassifikatsiyasi prinsiplari? Ularning xilma-xilligi.

Ma'ruza bo'yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so'z va iboralar: *Oqsil, protein, peptid bog', oqsillarning biologik ahamiyati, protein - oddiy oqsil, proteid- murakkab oqsil*

Oqsillar tarkibida azot tutuvchi yuqori molekulyar biologik polimerlar bo'lib, ular asosan 20 xil aminokislotalardan tashkil topgan. Ularning proteinlar (grekcha "protos" – birlamchi, muhim) deb atalishi ham bu gruppa moddalar birinchi arajali biologik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Hayot jarayonlarining qariyib barchasi oqsil moddalarga va ularning biologik funksiyasiga bog'liq.

Oqsillar proteinlar va proteidlarga bo'linadi.

Protein ----- oddiy oqsil


Proteid ----- murakkab oqsil

Ular barcha tirik organizmlar, bir hujayrali suv o'simliklari va bakteriyalar, ko'p hujayrali hayvonlar hamda odam organizmi, tirik organizmlar bilan jonsiz tiabiat chegarasida turuvchi viruslar tarkibining ajralmas qismini tashkil qiladi. Hujayrada yuz beradigan har qanday kimyoviy o'zgarishlar oqsillar ishtirokisiz amalga oshmaydi.: bu jarayonlarda oqsil yoki substrat, yo ferment yoki bular bir vaqtida birdaniga ishtirok etadi.

Tuxum oqiga o'xhash, tarkibida azot tutuvchi shu xildagi moddalarni golland olimi **Mulder** (1802-1880) muntazam ravishda tadqiq qilgan, o'sha zamonning mashxur kimYog'ari **Berseliusning** (1779 - 1848) taklifiga ko'ra, birinchi marta 1838 yili bu moddalarga nisbatan protein (yunoncha – protos – birinchi darajali) nomi qo'llanilgan, va bu atama ularning hayot uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ifodaladi.

Oqsillar taxminan hayvon organizmini quriq moddasiga nisbatan olganda 15% ni tashkil etadi, o'simliklarda yaproq va poyalarida 3-5%, boshoqlilarda 10-25 va dukaklilarda esa 20-40 va hattoki 50% gacha quruq modda qismini tashkil etadi. Oqsillarnin turlari nihoyatda ko'p bo'lib, masalan **odam organizmida 5 000** dan ortiq oqsil turlari borligi aniqlangan bo'lsa, hozirgi vaqtida ularning **2000** dan ziyodi kashf qilingan va yaxshi tekshirilgan.

Оқсиллар ва пептидларнинг синфланиши



Oqsil molekulalari uzun polipeptid zanjirlari bo‘lib, ular aminokislotalarning **peptid** bog‘i yordamida birikishidan hosil bo‘lgan yuqori tartibli polimerdirlar. Har bir hujayraning yadrosida minglab genlar bo‘lib, ular shu organizmga xos bo‘lgan oqsil strukturasiini belgilaydi. Oqsil molekulalari nihoyatda ko‘p funksiyalarni bajaradi.

Oqsillarning molekulyar massasi

Oqsillar yuqori molekulali biopolimerlar boiib, molekulyar massasi 6 mingdan bir necha milliongacha boiib, ular oqsil strukturasiidagi polipeptid zanjirlaming soniga bogiiq. Oqsillarning massasi turli usullar bilan aniqlanadi. Masalan, ultratsentrifugirlash, gelfiltratsiya va elektroforez usullari. Ayrim oqsillarning molekulyar massasi quyidagicha daltonlarga teng bo‘ladi:

Ba’zi oqsillarning molekulyar massalari

| | |
|-----------------------|----------|
| Ribonuklaza | 13700 |
| Mioglobin | 176600 |
| Qon zardobi albumini | 69000 |
| Qon zardobi globulini | 176000 |
| Inson fibrinogeni | 450000 |
| Aktomiozin | 5000000 |
| Nukleoproteid TMV | 40000000 |

Massa birligi dalton (Da) vodorod atom massasiga to‘g‘ri keladi (1,0000). Massa birligi kilodalton (kDa) 1000 daltoniga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik oqsillarning massasi 10 dan 100 kilodaltoniga tengdir. Bir necha ming oqsillarning aminokislota tarkibi va ketma-ketligi aniqlangan. Shuning uchun, ulaming molekulyar og‘irligini yuqori aniqlik bilan topish mumkin. Oqsillar m olekulyar og‘irligini sedimentatsion analiz usuli bilan aniqlash ultratsentrifugalarda o‘tkaziladi, bunda 200000 dan ortiq, ya’ni yer tortish kuchidan yuqori markazdan qochuvchi tezlanishni (g) hosil qilish mumkin bo‘ladi. Odatda, molekulyar og‘irlikni oqsil molekulasining sedimentatsion

tezligi yoki sedimentatsion muvozanati bo'yicha hisoblab topadilar. Molekulalaming markazdan periferiyaga siljishi davrida erituvchi-oqsil o'rtasidakeskin chegara hosil bo'ladi (avtomatik aniqlanadi). Erituvchi va oqsilning optik xususiyatlaridan sedimentatsiya tezligini aniqlashda foydalaniлади va u sedimentatsiya konstantasi S bilan belgilanadi, oqsil zarrachasining massasi va shakliga bogiiq:

$$S = \frac{V}{\omega^2 \cdot r},$$

bunda, V - erituvchi - oqsil chegarasining tezligi, sm/s; co- rotoming burchak tezligi, rad/s; r - rotor markazidan oqsil eritmasi solingan yacheyka o'rtasigacha bo'lgan masofa (5 m).

Sedimentatsiya konstantasi shartli ravishda birlik deb qabul qilingan va Svedberg (S) deb nomlangan. Ko'pchilik oqsillarning sedimentatsiya konstantasi 1-50 S oralig'ida bo'ladi, ba'zi hollarda bu qiymat 100S dan ortiq bo'lishi mumkin.

Molekulyar og'irlilikni topish uchun sedimentatsiya konstantasidan tashqari svedberg tenglamasi uchun erituvchi va oqsilning zichiigi haqida qo'shimcha ma'lumotlar zarur:

$$M = \frac{R \cdot T \cdot s}{D(l-up)},$$

Bunda R - gaz doimiyligi erg (mol.grad); T - absolyut harorat (Kelvin shkalasi bo'yicha); s - sedimentatsiya konstantasi; p - eritma zichiigi; v - oqsil molekulasining parsial solishtinna hajmi; D —difnuziya koeffitsienti.


Ultratsentrifugalash usuli bilan oqsillar molekulyar og'irligini aniqlash murakkab, ko'p vaqt va qimmatbaho apparatlar talab etadi. Shuning uchun, keyingi yillarda, 2 ta oddiy usul ishlab chiqilgan (gelxrom atografiya va elektroforez). Gel-xromatografiyadan foydalanganda birinchi navbatda kolonkani kalibrlash zarur. Buning uchun, sefadeksli kolonka orqali molekulyar og'irligi ma'lum bo'lgan bir necha oqsillar o'tkaziladi va grafik chiziladi, bunda molekulyar og'irlilik logarifm ko'rsatkichlari ulaming elyutsion hajmlari to'g'risiga

joylashtiriladi, ulami 1 -rasmda ko'rsatilganidek topiladi.



1-rasm. Elyutsia (Ve) hajmini o'chash

Ma'lumki, sferik shaklli oqsil molekulyar og'irligining logarifmi va evolyutsion hajmi o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud. Shuning uchun, tekshiriluvchi oqsil molekulyar og'irligini aniqlash oson. Bu usulning ikkinchi turi bo'lib yupqa qavatdagi gel-xromatografiya hisoblanadi. Sefadeksning yupqa qavati bo'yicha oqsilning siljish uzunligi (mmlarda) oqsil molekulyar og'irligiga logarifmik bog'liqdir. Gel-xromatografhya soddaligi va tezligidan tashqari quyidagi qo'shimcha afzalliklarga ega: oqsilni toza holda ajratishni talab etmaydi, chunki boshqa oqsillar aralashmasining aniqlashga ta'siri yo'q. Negaki, ulaming har biri kolonka orqali o'ziga xos tezlik bilan molekulyar og'irligiga bog'liq ravishda o'tadi. Bu holat enzimologiyada ko'p qoilaniladi. Boshqa o'xshash katalitik faollikga ega boim agan oqsillar bo'lganda ham juda kam miqdorda bo'lgan fermentlaming molekulyar og'irligini aniqlash mumkin. Oqsillar molekulyar og'izligini disk-elektroforezda poliakrilamid geldan foydalanib aniqlanganda, kalibrangan oqsillar molekulyar og'irligi logarifmi va poliakrilamidda oqsil zarrachalari harakatlanishiga bog'liq bo'lgan grafik chiziladi, so'ngra tekshiriluvchi oqsil haraktlanishini aniqlab, grafikdan uning molekulyar og'irligi topiladi.



2-rasm. G-150 sefadeksi yupqa qavatida gel-xromatosomalari qochish masofasi va ular molekulyar og'irligi o'rtasidagi bog'liqlik. 1-ribonuklease; 2-ximotripsinogen; 3-mum albumini; 4-globin; 5-noma tum molekulyar og'irligi oqsil

Dodesilsulfat natriy detergenti ishtirokida elektroforez o'tkaziladi, chunki bu holatda oqsil molekulyar og'irligi va harakatchanligi o'rtasida to'g'ri proporcionallik kuzatiladi. To'rtlamchi strukturaga ega oqsillar bu sharoitda subbirliklarga parchalanadi. Shuning uchun, bu usul oqsil subbirliklari molekulyar og'irligini aniqlash uchun keng qo'llanilmoqda. Yaqinda yangi mass-spektrometrik usul (lazer desorbsion-ionizatsion usul) taklif etilgan; u katta bo'limgan peptid (vazopressin, insulin) va yirik biopolimer molekula va, undan tashqari, biom olekulalar strukturasini aniqlashga imkon beradi.

Modul -15. α - β - tuzilishidagi spiral oqsillar


Oqsil m olekulasi nim g ikkilamchi strukturasi hosil bo'lishida karbonil va imid guruhlari o'rtaida vodorod boglari hosil bo'lishi ahamiyatlidir. Vodorod bo'g'lar kovalent bog'lanishga nisbatan kuchsiz bo'lib, ular sonining ko'p bo'lishti natijasida hosil bo'mgan spiral prujinadek mustahkam saqlashga imkon beradi. Oqsilning ikkilamchi strukturasi ikki tipga bo'linadi a-spiral, α -burmalik (qavat-qavat ko'rinishida) struktura. Polipeptid zanjir a-spiral va (3-struktura ko'rinishida boiishini Poling va mualliflar rentgen struktura analizi yordamida aniqladilar. ct- spiral o'ng va chap tomoniga buralgan holda boiishi mumkin. Polipeptid zanjiming a-spirallanishida har bir aylanishiga 3,6ta aminokislota qoldig'i to'g'ri keladi. Spiral qismining to'liq takrorlanishi

18 ta aminokislota qoldig‘idan keyin ro ‘y beradi. Ularning uzunligi 0,5 nm va 2,7 nmga teng va har bir aminokislota qoldig‘i to‘g*ri keladigan masofa 0,15 nm ga teng. Oqsil molekuiasining P-strukturasi polipeptid zanjiri yonm a-yon joylanishi natijasida hosil bo‘ladi. Vodorod bog Mari parallel yoki antiparallel holda joylashgan polipeptid zanjirining peptid bog‘lari o ‘rtasida hosil boMadi. Natijada polipeptid zanjirlari takrorlanib qavatm a-qavat boliib joylashadi. Oqsillarda alfa-strukturadan (3-strukturaga o ‘tishi mumkin va u holda vodorod bog‘lari qayta tuzilishi mumkin. Bu holat sochdagি keratin

oqsilida kuzatilgan. Agar sochlami ishqoriy eritmalar bilan yuvilganda oqsilning strukturasi buziladi. P-keratin alfa-keratinga aylanadi. Oqsilning ikkilamchi strukturasi (a-spiral va (3-struktura) qizdirish natijasida buziladi. Bunda polipeptidlar o‘rtasidagi vodorod bogMari uzilib, polipeptid zanjiri esa tartibsiz holatga keladi. Shunday qilib, oqsilning ikkilam chi strukturasining turg'unligi

vodorod bogMari yordamida ta’milanadi. Bundan boshqa bog Mar (disulfid bog‘idan tashqari) ishtirok etmaydi. Ko‘pchilik oqsillarda bir vaqrda a-spiral va p-strukturali qismlari boladi.

Tirik hujayrada m aium bir funksiyani ado etib boradigan oqsil bir necha shaklda boiishi mumkin, izofunksional oqsillar yoki izooqsillar deb shularga aytildi. Masalan, odam eritrotsitlarida gemoglobinning bir nechta shakli topilgan: katta yoshdagi odamda ustun turadigan shakllari HbA (butun gemoglobinning 96% uning ulushiga to‘g ‘ri keladi), HbF va HbA, dir (har qaysisiga taxminan 2% dan). Gemoglobinlaming hammasi har xil to‘plam protomerlari: a, (3, g dan tuzilgan tetramerlardir: HbA formulasi - 2 a 2(i, HbF - 2 a 2y, HbA, -2 a 25. Barcha gemoglobinlaming umumiy belgisi- 2a protomerlariga borligidir. Turli protomerlar birlamchi strukturasi jihatidan bir-biriga o‘xshash boidi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalari jihatidan ham protomerlar bir-biriga ancha o‘xshab ketadi. Gemoglobinlaming hamma shakllari bir xildagi funksiyani ado etadi - kislorodni biriktirib olib, to‘qimalaming hujayralariga yetkazib beradi, biroq gemoglobinning bu shakllari funksional shakllari funksional xossalari jihatidan bir-biridan ma’lum darajada farq qiladi. Masalan, HbF kislorodga HbAdan ko‘ra ko‘proq yaqin bo‘ladi va HbAdan kislorodni ajratib olishi mumkin:



HbF odamning embrional rivojlanishi davri uchun xarakterlidir (fetal gemoglobin); homiladorlikning so‘nggi haftalari va tug‘ruqdan keyingi dastlabki haftalarda u asta-sekin HbAga almashib boradi. Homila qoni bilan ona qoni aralashmaydi; homila onasining qon tomirlaridan platsentada homilaning qon tomirlariga kislorod diffuziyalanib o‘tishi hisobiga kislorod bilan ta’minlab boradi. Fetal gemoglobinning kislorodga ko‘proq yaqin bo‘lishi ona bilan homila tomirlari orasida kislorod konsentratsiyalarining farqi kam bo‘lganida diffuziya yuzaga

chiqaverishini mumkin qilib qo‘yadi. Mioglobin gemoglobinlar bilan kamroq darajada yaqin bo‘ladi: tuzilishi va kislorodni biriktirib olish xossasi jihatidan u gemoglobin protomerlariga juda o‘xshash, lekin qonda aylanib yuradigan va o‘pkadan (yoki platsentadan) to‘qimalarga kislorod yetkazib beradigan gemoglobindan farq qilib, mioglobin muskullarda qo‘zg‘almay turadi va gemoglobindan mitoxondriylarga kislorod yetkazib berishda, shuningdek, muskullarda kislorod rezervi hosil qilishda oraliq vositachi bo lib xizmat qiladi. Izofunksional oqsillar, umuman olganda, bir xildagi funksiyani ado etib boradigan oqsillar oilasidir, lekin bu oila ba’zi a’zolarida alohida bir kichikroq xususiyatlari bo‘lishi fiziologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bir turdagи organizmlarda topiladigan oqsilning ko‘pdan-ko‘p molekulyar shakllari izooqsillar deb

ataladi; har xil biologik turlarga mansub organizmlarning bularda bir funksiyalami bajarib boradigan oqsillari (gomologik oqsillar) izooqsillar qatoriga kiritilmaydi. Masalan, odam gemoglobini bilan quyon gemoglobini, garchi bir xilda funksiyani ado etib boradigan bolsada, izooqsillar emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo`stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Struktures and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

Mavzu -2. Oqsillar tuzilishini tadqiqot qilish usullari.

REJA:

- 1.Oqsillarning aminokislota tarkibi va birlamchi tuzilishini aniqlsh usullari.
- 2.Oqsillarning mass-spektrofotometriyasi, uning prinsiplari. Oqsil namunasini mass-spektrofotometriya usulida analiz qilishga tayyorlsash yollari.
- 3.Amonokislotalar funksional guruhlari modifikatsiyasi reaksiyalari.

Ma’ruza bo‘yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so‘z va iboralar: Oqsil, protein, peptid bog’, aminokislotalar, ultratsentrifugalash, rentgenstruktura analiz, xromotografiya, elektroforez

Oqsil nomi tuxum oqidan kelib chiqqan sodda atama. Oqsillar xaqida **XIX** asrning ikkinchi yarmida va **XX** asrning birinchi choragida olingan ma'lumotlar, asosan, gidroliz qilish yo'li bilan ular tarkibiga kiradigan aminokislotalarni aniqlash va so'ngra oqsil tarkibida peptid shaklida bog'lanishini belgilash bilan chegaralanadi. Oqsillar kimyosi sohasidagi bu boshlang'ich ma'lumotlarni olishda rus olimi **A.Ya. Danilevskiy** (1838-1923), nemis olimi **Emil Fisher** (1852-1919) tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo oqsillar kimyosi va biokimyosi **XX** asrning ikkinchi choragida boshlab, asosan, ularni ajratib olish (**elektroforez**), molekulyar og'irligini aniq belgilash (**ultratsentrifugalash**), birinchi kristall oqsillar – fermentlarni izolyasiyalash, oqsillarni turli yo'llar bilan gidrolizlab, barcha aminokislotalarning to'la sifati va miqdorini aniqlash (**xromotografiya**) va nihoyat, bir qancha sodda oqsillarning strukturasini mukammal o'rGANISH (**rentgenstruktura analizi**) hamda kimyoviy yo'l bilan sintez qilish asosida yuksak darajalarga ko'tarildi.

Oqsillarni ximiyaviy o'rGANISHDA dastlabki ish ularni qujayra massasidan yoki biologik suyuqliklaridan toza qolda ajratib olishdir, lekin oqsillarni ajratib olish qam oson emas. Oqsillarni ajratishdagi asosiy qiyinchilik ularning turqunmasligi bilan boqliq. Ular yuqori temperatura, kuchli kislota va ishqorlar, juda ko'p reaktivlar ta'sirida o'zlarining "nativ" xususiyatlarini yo'qotadilar. Oqsillarni ajratib olish va tozalashning xamma etaplarini, ularning bekarorligi xisobga olib, yumshoq sharoitda o'tkazilishi oqsillar ximiyasining asosiy shartidir. Oqsillarni ajratib olishda uchraydigan ikkinchi qiyinchilik biologik materialdan olinadigan murakkab aralashmalarda oqsil molekulalari, bilan aralash qolda

birga bo'ladigan, ular bilan komplekslar qosil qiladigan boshqa organik birikmalar: lipidlar uglevodlar, nuklein kislotalardan qutulishidir.

Umuman, oqsillarni ajratib olishning xamma davrida temperatura mumkin qadar past darajada saqlanishi, ishslash uchun eng qulay tumperatura erituvchining muzlash darajasiga yaqin chegarada tutilishi kerak.

Oqsillarni suvli eritmalaridan ajratish uchun eritmaga anorganik tuzlarning etarli miqdorini qo'shib cho'ktirish ko'pincha qo'llaniladigan usul. Bu maqsad uchun eng ko'p ishlatiladigan tuz suvda yuqori erish xususiyatiga ega bo'lgan ammoniy sulfatdir. Bu tuzni qo'shib eritmani turli darajada to'yintirish yo'li bilan oqsillar bir-biridan ajratiladi.

Organik erituvchilar, jumladan, etanol, metanol, atsetondan qam oqsillarni suvli eritmalarda cho'ktirish uchun foydalaniladi, lekin ular juda past (-100 °C ga yaqin) temperaturada yaxshi natija beradi.

Oqsillarni ajratib olish va tozalash uchun ularning satxi katta turli kalloid zarrachalar yuzasida turlichu adsortsiya qilinishi va elektr maydonida turli tezlikda xarakatlanishidan foydalanilgan xromatografiya va elektroforez metodlarining turli variantlari ayniqsa yuqori samara bilan ishlatiladi.

Adsorbsentga shimilgan oqsilni eritma rN ni o'zgartirish yoki ion kontsentratsiyasini oshirish bilan ajratib olish mumkin. Oqsillar adsorbsiya-elyutsiya yo'li bilan ko'pincha, xromatografiya ustunlarida ajratiladi (xromatografik adsorbsiya).


Oqsillarni, ularning umumiyligi elektr o'qi farqli bo'lganidan ion almashinadigan xromatografiya usulidan ajratish qulaydir. Ustunli xromatografiyaning bu usulida oqsillar eritmasini faol ionogen turkum tutadigan ionalmashtiruvchi qattiq polimer massa-smola bilan to'ldirilgan kolonka orqali o'tkaziladi. Smolalar (ionitlar yo'x xarakatchan almashinadigan kation (kationlar), yoki anion tutadilar (anionitlar).

Ajratiladigan oqsilning zaryadiga qarab, muvofiq ionalmashtiradigan smoladan foydalaniladi. Ularning funksional turkumi bilan oqsiling bir qismi almashib, oqsil ushlanib qoladi, boshqalari to'xtamay o'tib ketaveradi. Kolonkada "o'tirib qolgan" oqsilni so'ngra kuchliroq kontsentratsiyali tuz eritmalarini yordamida yoki rN o'zgartirilgan bufer aralashmalar o'tkazib olinadi.

Affin xromatografiya (yaqinligi bo'yicha xromatografiya) oqsil (yoki boshqa makromolekulalarni) tashuvchiga ulangan (immobilizatsiya qilingan) maxsus moddalar-ligandlar bilan munosabatiga asoslangan. Bunday ligandlar fermentlarga nisbatan koferment yoki substrat, antigenga-antitana, gormonga-retseptor va aksincha bo'lishi mumkin. Spetsifik ligand ulangan tashuvchi bilan to'ldirilgan xromatorafik kolonka orqali oqsil aralashmasi tutuvchi eritma o'tkazilganda ligandga yuksak yaqinligi tufayli faqat bitta oqsil boqlanadi. Boqlangan oqsilni kolonkada rN o'zgartirilgan bufer aralashmalar o'tkazib yuvib olinadi. Bu usul bilan kerakli oqsilni toza xolda ajratib olish mumkin.

Gel xromatografiyasi. Preparativ maqsadlar uchun, ayniqsa oqsillarni aralashmalardan tozalashda molekulyar elak usuli yoki gel xromatografiya keng qo'llaniladi. Bu metoda sefadeks deb ataladigan donachalar shaklidagi preparatdan foydalaniladi. Sefadekslar (Sephadex) nomi uchta so'zni bosh bo'qinlaridan tuzilgan: (Separation - ajratish, Pharmacia- Shvetsiyadagi farmatsevtik firma, dextran-dekstran) polisaxarid dekstranni epixolgidrin bilan ishslash orqali tayyorlanadi. Bunda polisaxarid molekulalari turli darajada o'zaro ko'ndalang boqlar bilan ulanib, yirik, suvda erimaydigan gidrofil donachalar qosil bo'ladi. Donachalar suvni yaxshi ko'rganlaridan suvli muxitda qattiq shishitb gel qosil qiladilar. Xromatografik kolonka shu gel bilan tutiladi. Bu metod bo'yicha moddalarini ajratish katta molekulalar gelni statsionar fazasi ichki muqitga kira olmasdan tashqarida

qolishlari va xarakatchan faza bilan kolonka bo'yicha pastga siljishlariga asoslangan; aksincha, kichik molekulalar donalar ichiga erkin ravishda shamiladi va shuning uchun kolonka bo'yicha sekinroq suriladi. Katta molekulyar massaga buyuklikka ega oqsillar sefadeps donachalarni ichiga diffundirlanmay qolonkadan molekulyar massaning kattaligiga qarab elyuirlovchi suyuqlik bilan birga bиринчи bo'lib, kolonkadan chiqadilar. Bu usuldan foydalanib turli oqsillar molekulalarining o'lchamiga qarab bir-biridan ajratish, ularning molekula oqirliklarini belgilash qam mumkin.



Elektroforez metodlari bilan oqsillarni ajratish oqsil zarrachalarining elektr maydonida xarakatchanligini belgilashga asoslangan. Oqsillar molekulasi ko'p NH₃Q va SOO- turkumlar mavjud bo'lganida ular manfiy va musbat o'qlangan zarrachalardir. Elektr maydonida siljish tezligi, asosan molekulaning zaryadiga, shuningdek shakli va o'lchamiga boqliq.

Keyingi yillarda oqsillarni turli tashuvchilar, xususan qattiq tutib turuvchi muxxitlar qoqoz, kraxmal geli, agar geli, atsetat sellyuloza membranasi, poliakrilamid geli (PAAG) va boshqalarda zonal elektroforezi ancha keng qo'llanilmoqda. Bu usulda oqsillarni tekshirish uchun bufer bilan xo'llangan lenta shaklidagi filtr qoqozi yoki gel karavatiga nuqta yoki chiziq xolida bir necha tomchi oqsil eritmasi tomizilib, qoqozning uchlari elektrodlar o'rnatilgan bufer eritmaga botirib qo'yiladi. Elektrodlar orqali turqun elektr oqimi yuborilganda paydo bo'lgan elektr maydoni kuchi ta'sirida qoqozga tomizilgan oqsillar o'qining miqdori va belgisiga qarab anod yoki katod tomonga bir necha santimetr siljiydi. Bufer bilan namlangan tutib turuvchi muqitlar shunday elektroforetik muxit tuqdiradilarki, ularda oqsil qam, elektr o'qi qamda molekulaning kattaligi bo'yicha xarakat qiladi, chunki gellar molekulyar elak sifatida qam xizmat qiladi.

Izoelektrik fiksirlash usuli oqsillarni bir qavatda qam kuchlanish gradietnida rN ga qarab ajratish imkonini beradi. Oqsillarning molekulyar massasining aniqlash shubxasiz eng muqim vazifa. Yuqorida molekulyar polimer moddalarni molekulyar massasini aniqlash maxsus metodlar ishlab chiqilishini talab qiladi. Bu maqsad uchun sedimentatsiya analizi, maxsus gellarda xromatografiya (gelfiltratsiya) va elektroforez usullari qo'llaniladi.

Oqsillarni molekulyar massasini ultratsentrifugada sedmintatsiya -o'tirish (cho'kish) tezligini belgilash asosida aniqlash ko'p yillar davomida birdan-bir eng aniq va muxim usul bo'lib keldi. Oqsillar yuqori molekulyar birikma bo'lganligidan ularga kuchli sentrifuga maydoni bilan ta'sir etish va oqsil zarrachalarining aylanish markazidan qochish tezligini o'lchash yo'li bilan molekula oqirligini belgilash mumkinligiga bиринчи marta Svedberg e'tibor bergen edi. Uning 1925 yil kashf etgan ultratsentrifuga deb atalgan asbobi yordamida oqsil molekulasing sedimentatsiya koeffitsienti belgilandi. Oqsil zarrachalarining cho'kish tezligi rotor idishidagi yoruqlikn o'tkazadigan gorizontal tikish orqali kuzatib boriladi. Agar gomogen oqsil eritmasi sentrifugalansa, unda erigan oqsil o'tirishi bilan oqsil qavati va sof

eritma orasida (yoruqlikni sindirish konstantasi) farq paydo bo'ladi. Bu farq ma'lum vaqt oraliqida avtomatik ravishda yozilib turadi.

Molekulyar elak gelfiltratsiya oqsilning molekulyar massasini aniqlash o'zaro tikilgan polimer (agarosa, dekstran yoki poliakrilamid PPA) gel donachalari bilan to'latiladigan kolonkaga eritma shaklida kiritilgan oqsilni yuvib chiqarish uchun sarf bo'ladi suyuqlik xajmi bilan belgilanadi. Kolonkadagi gel donachalari suvni shimb shishadi va kichik molekulalar uning qovaklariga kirib to'xtab qoladi yoki kolonkadan o'tishi sekinlashadi. Yirik molekulalar esa tez sur'atda o'taveradilar va ularni yuvib chiqarilishi uchun suyuqlikning kam xajmi etarlik. Binobarin molekula qancha katta bo'lsa bu elakdan shuncha kam xajm, qancha kichik bo'lsa munosib ravishda ko'p xajmda suyuqlik bilan yuviladi. Molekulyar massanining logarifimi bilan elyuirlash (yuvish) xajmi Ve orasida to'qri munosiblik bor. Buni bir nechta molekulyar oqirliklari ma'lum oqsillarni kolonkadan o'tishini tekshirib olingan kolibirlovchi chiziqdan aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo`stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Struktires and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

Mavzu- 3. Oqsillr biotexnologiyasi

REJA:

1. Oqsillar tuzilishi. Tirik organizmlarning yashash jarayonlarida oqsillarning axamiyati.
2. Oqsillarni tabiiy biologic materiallardan ajratib olish va uning samaradorligini o'rGANISH

Ma'ruza bo'yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so'z va iboralar:

Oqsillar, protein, peptid bog', oqsillarning biologik funksiyalari, katalitik oqsillar, transport oqsillar, zaxira oqsillar, harakatlantiruvchi oqsillar, struktura oqsillar, oktin, ximoyalovchi oqsillar, tartibga soluvchi oqsillar

Oqsillar hujayrada boshqa komponentlarga qaraganda nihoyatda ko'p jarayonlarda xilma-xil funksiyalarni bajaradilar. Hamma proteinlarning struktura elementlari bir xil aminokislotalardan tashkil topgan bo'lsa ham, ularning oqsil molekulalaridagi nisbiy miqdorlari va joylanish o'rnlari turlichadir. Oqsillarning bajaradigan funksiyalari faqat oqsil molekulalari uchungina xos. Oqsillar, protein, peptid bog', oqsillarning biologik funksiyalari, dializ, rentgenostruktura, denaturatsiya, nativ oqsil, ultratsentrifuga

Oqsillarning eng muhim biologik funksiyalari 7 xil bo'lib ular quyidagichadir.

1. **Katalitik funksiyasi** - shu vaqtgacha barcha kashf etilgan biologik katalizatorlar – fermentlar oqsillardir. Bir hujayrada ularning soni 2000 dan ortiqdir. Bu funksiya faqat oqsillar uchungina xosdir.
2. **Transport funksiyasi** - . qonda kislородни ташish tamomila oqsil – gemoglobin tomonidan bajariladi. Proteinlar qonda lipidlar, ba'zi gormonlar, vitaminlar, metall ionlari bilan kompleks hosil qilib, ularni tegishli to'qimalarga etkazadilar. Masalan, Gemoglobin qon tarkibidagi kislородни biriktirib uni tashiydi. Lipoprotein oqsili Yog'simon moddalarni jigardan boshqa organlarga tashiydi.

3. *Ozuqa va zaxira funksiyasi.* Ko‘pchilik o‘simliklarning urug‘larida zapas oqsillar to‘plangan bo‘lib, shu bilan birga ozuqa va zaxira oqsillarga tuxum albumini, sut kazeini, bundan tashqari ma’lum mikroelementlar ham zaxira holatda bo‘ladi. Masalan, gusht tarkibidaga maxsus oqsil temir elementining zaxirasini tutib turadi, yoki to‘qimalarda, o‘sayotgan homilada, o‘simliklar donida, tuxumda va sutda bo‘lib, zarur bo‘lgan sharoitda sarflanadilar.

4. *Harakatlantiruvchi, qisqartiruvchi funksiyasi.* Muskullarning qisqarishi oqsillar ishtirokida kechadi. Ularning eng muhimlari **aktin** va **miozin** qisqartiruvchi muskul tolalarini tashkil qiladilar. Miozin yana fermentlik faoliyatiga ham ega. Masalan, oktin, meazin oqsillari ikkilamchi strukturaga ega bo‘lib odam skeleti mushaklari tarkibida uchraydi.

5. *Struktura funksiyasi.* Oqsilar biriktiruvchi to‘qimaning asosiy qurish materialidir: keratin, kollagen, elastin ana shular jumlasidandir. Lekin oqsillar hujayra skeleti, xromosomalar, membrana, ribosomalar, retseptorlar tarkibida boshqa moddalar bilan birligida qatnashadilar. Bular qatlam-qatlam bir-biriga o‘ralgan bo‘lib, ma’lum tolalar hosil qilib ta’yanch, ximoya struktura holida organizmning elementlarini bir-biriga biriktiradi. Odam va hayvon organizmida uchraydi. Masalan, pay tarkibidagi kallagen yoki elastin oqsillari, paylarni bir-biriga ulaydi. soch, tirnok tarkibidagi **keratin** oqsili ularni sifatini belgilaydi.

6. *Himoyalovchi (qo‘riqlash) funksiyasi.* Bu oqsillar organizmni boshqa bir organizmlar (zararli) ta’sirida zararlanishidan saqlaydi. Barcha anti tanalar oqsillardir. Ular organizmga kirgan bakteriyalarni, Yog‘ va oqsillarni yuksak spetsifiklik bilan bog‘laydilar, parchalaydilar, zararsizlantiradilar. Qon tarkibidagi **immunnoglobulin** oqsili qonga kirgan virus va bakteriyalarni sezadi, ularni aniqlaydi va zararsizlantiradi. Shu oqsillar etishmasligi esa SPID kasalligiga olib keladi.

7. *Tartibga soluvchi funksiyasi (oqsil garmonlar).* Bular odam va hayvon organizmida bo‘lib ko‘prok garmonlar tarkibida uchraydi. Masalan, oshkozon osti bezlaridan ajralib chiquvchi **insulin** garmoni tarkibiga kiruvchi oqsillar organizmdagi qand almashuvini tartibga solib turadi.

Bu ko‘rsatib o‘tilgan asosiy funksiyadan tashqari oqsillar yana juda ko‘p biologik faol strukturalarning tuzilishida va funksiyasida ishtirok etadilar.


Sakkizinchи sinf oqsillari yuqorida keltirilgan oqsillardan farqli ravishda umumiy bir sinfga xos bulmagan boshqa turli xildagi funksiyalarni bajaruvchi, ayrim hayvon va o‘simliklarning xos bo‘lgan oqsillardir. Masalan, arktika baliqlari qoni tarkibida shunday oqsillar topilganki, ular antifriz funksiyasini bajaradi.

Oksillarni ajratib olish. Biologik suyukliklar, Xayvon tukimalari, usimlik uruglari, ayniksa dukkaklilarning uruglari oksillar ajratib olish uchun eng kulay manbalardir. Biologik suyukliklardan oksillarni ajratib olish uchun, ularni tuzlar organik erituvchilar yordamida chuktirish va turli usullar orkali fraktsiyalab, toza oksil ajratib olish mumkin. Tukimalardan oksillar ajratib olish uchun xujayra devori mexanik yoki kimyoviy usulda buzilib, undan sung xosil bulgan bir xil massadan oksilni yukoridagi usullar yordamida ajratib olish mumkin. Oksil termolabil birikma bulganligi uchun temperatura taosiriga chidamsiz. shu sababli oksillarni ajratib olish operatsiyalari sovuk temperaturada 0-4° S atrofida olib borilishi kerak.

Oksillarni biologik kiymatini aniklash uchun ularni aminokislota tarkibini uranish kerak. Oksillar tarkibiga 20 xil *a* aminokislota kiradi: glitsin, alanin, valin, leytsin, izoleytsin, serin, treonin, metionin, sistein, asparagin, glutamin, aspartat kislota, glutamat kislota, arginin, lizin, fenilalanin, tirozin, triptofan, gistidin, prolin. Bu aminokislotalarning 10 tasi xayvon organizmida sintez bulmaydi. Shu sababli ular almashinmaydigan aminokislotalar

deb ataladi. Oksillarning tula kiymatliligi almashinmaydigan aminokislotalarning mikdori va sifati bilan belgilanadi.

Turli oksillar bir biridan fakatgina aminokislotalarning mikdori va sifati bilan emas balki, aminokislotalarning uzaro peptid boglari yordamida maolum ketma-ketlikda boglanishida kurilishi-birlamchi kurilishi bilan farklanadi. Oksillarning birlamchi kurilishi kolgan ikkilamchi, uchlamchi kurilishlar uchun asos bulib xizmat kiladi. Ikkilamchi va uchlamchi kurilishlar juda noturgun bulganligi uchun oksillarni ajratib olish operatsiyalarida buzilib ketishi mumkin. Bu esa oksillarni biologik aktivligini yukolishiga olib keladi.



Oksillarni eng muxim vazifasi ularni ferment aktivlidir. Bu funktsiyasi tufayli oksillar organizmdagi xayotiy jarayonlarni xamma tomonlarida ishtirok etadi. Oksillar gormonal aktivlikka ega bulganligi uchun modda almashinuvি jarayonida boshkaruvchilik vazifasini bajaradi. Oksillar turli xildagi biologik faol moddalarni boglab organizmda transport vazifasini utaydi. Oksillar immunologik aktivlikka ega bulganligi uchun ximoyaviy vazifani xam bajaradi. Oksillar lipitlar bilan birgalikda biologik membranalarni xosil kiladilar. Oksillarning bu yuqorida keltirilgan biologik aktivliklari va bojaradigan funktsiyalari biotexnologik nuktai nazardan katta axamiyatga ega. Shuning uchun xam turli biologik manbalardan maksadga muvofik ravishda oksillar ajratib olish biotexnologiyaning asosiy vazifalaridandir.

Oqsillarni biomateriallardan ajratib olish uchun ularning eruvchanlik hususiyatidan foydalilanadi. Lekin oqsillarini ajratib olish ancha qiyinchiliklarga olib keladi. Bu ajratishdagi asosiy qiyinchilik ularning beqarorligidir. Ular yuqori temperatura, kuchli kislota va ishqorlar, juda ko‘p reaktivlar ta’sirida o‘zlarining tabiiy “nativ” hususiyatlarini yo‘qotadilar. Bu jarayonlar ***denaturatsiya*** deyiladi. Oqsillarni ajratib olishda uchraydigan ikkinchi qiyinchilik biologik materialdan olinadigan murakkab aralashmalarda oqsil molekulalaridan, ular bilan aralashgan holda birga bo‘ladigan va ular bilan komplekslar hosil qiladigan boshqa organik birikmalar lipidlar, uglevodlar, nuklein kislotalardan qutilishdir. Masalan, oqsillarni ajratish ko‘p hujayra proteinlarining suvda erimaydigan lipidlar bilan bog‘lanishi tufayli, ularning ekstraksiyasini qiyinlashtiradi.

Umuman, oqsillarni ajratib olishning hamma davrida temperatura mumkin qadar past darajada saqlanishi, ishlash uchun eng qulay temperatura erituvchining muzlash darajasiga yaqin chegarada tutilishi kerak. Muhitning kislotalilik va ishqoriylik darjasini diqqat bilan ko‘zatib borilishi va imkonli boricha oqsil nativ sharoitiga yaqin tutilishi lozim.

Oqsillarning suvli eritmalaridan ajratish uchun eritmaga anorganik tuzlarning etarli miqdorini qo'shib, cho'ktirish usuli ko'p qo'llaniladi. Bu maqsad uchun suvda eng yuqori erish hususiyatiga ega bo'lgan tuz ammoniy sulfatdir. Bu tuzni qo'shib eritmani turli darajada to'yintirish yo'li bilan oqsillar bir – biridan ajratiladi. Boshqa sulfatlar, masalan magniy sulfat va natriy sulfat eruvchanligi ammoniy sulfatga nisbatan kamroq bo'lsada, ularning afzalligi shundaki, bu tuzlar bilan cho'ktirilgan oqsillarda azot miqdorini bevosita analiz qilish mumkin.

Organik erituvchilar,- etanol, metanol, atseton va boshqalar bilan oqsillarning suvli eritmalaridan cho'ktirish mumkin. Bu usul juda past (-10°C) tempiraturada juda yaxshi natija beradi.

Ayrim oqsillarni cho'ktirishda og'ir metallar (Hg^{++} , Zn^{++} , Cd^{++} , Ba^{++} , Pb^{++} , Cu^{++} va boshqalar) tuzidan ham foydalaniladi.

Oqsillar ekstraksiyalanganidan keyin fraksiyalash asosida bir-biridan ajratiladi. Tuzlar yordamida cho'ktirish ularni fraksiyalashda qo'llaniladigan eng oson usullardan biridir. Oqsillarni organik erituvchilar yordamida fraksiyalash usuli ham ularning eruvchanligiga asoslangan.

Hozirgi kunda oqsillarning fraksiyalashda ultratsentri-fugalash, elektroforez, xromatografiya va immunobiologik fraksiyalash usullari keng qo'llaniladi.

Yuqoridagi usullar bilan ajratib olingan oqsillar tarkibida doim qo'shimcha moddalar bo'lib, bularni tarkibida doim uchraydigan tuzlar ionlarini tozalashda, odatda dializ, elektrodializ, kristallantirish, qayta kristallantirish, gelfiltratsiya va boshqa usullardan foydalaniladi.

Oqsillarni ajratib olishusullari

1. Oqsiilarni ajratib olishda gomogenizatsiya usuli. Oqsiilarni hayvonlar to'qimasidan, makroorganizmlardan ajratib olish uchun avvalo to'qimalar yaxshilab m aydalilaniladi, ya'ni gomogenizatsiyalanadi. Bunda hujayra strukturasi buziladi oqsillar eritmaga o'tadi. Gomogenizatsiya qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Chinni hovonchada to'qimani qum bilan ezish (maydalash).
2. Potter-Elvegay gomogenizatorida maydalash.
3. Sharsimon tegirmonchalarda maydalash.
4. Kuchli ravishda muzlatib, keyin eritish yo'li.
5. Ultratovush ta'sirida maydalash.
6. Bosim ta'sirida (muzlatilgan to'qimani mayda teshikli po'lat to'rda o'fkazish).

7. Azot gazi yordamida (azot gazini bosim ostida to'yinfiriladi keyin keskin bosim pasaytiriladi. N atijada azot hujayrani oson parchalab oqsilni eritmaga o'tkazadi).

Yuqoridagi usullar bilan hosil qilingan gomogenatdan oqsiUarni ajratib olish uchun ekstraksiya usulidan foydalaniladi. O lingan g o m o g en atn i 8-10% li tuz eritmasida eritila d i. Oqsilla m i ekstratsiyalash uchun ko'pincha m a'lum pHga ega b o ig an bufer eritm alardan, organik erituvchilardan va ionsiz detergentlardan foydalaniladi. Bu maqsadda organik moddalardan ko'pdan beri ishlatib kelinadigan eritmalar - glitserinning suvdagi eritmasi. saxaroza eritm asi, lim on kislota va b o ra t bufer aralashm alar, tris-b u fe r eritmalaridan foydalaniladi.

Qon zardobi oqsilini ajratish uchun etil spirti, atseton, butil spirti ta'sirida cho'ktiriladi. Gomogenatdan toza holda oqsillami olish uchun har xil detergentlar ishlatiladi. U lar oqsil-

yog‘ kompleksini va oqsil- oqsil b o g ‘larini yaxshi p a rc h a la y d i. O qsillam i (ferm en tlarn i) tozanashaa m iioxondriya bio m em b ran asi bilan yoki h u ja y ra organoidlari bilan mustahkam birikadigan modda triton X -100, natriy dodetsilsulfat va natriy dezoksixolat ishlatiladi. Bu detergentlar oqsil- oqsil kom plekslarini p arch alay d i v a oqsillarning to‘rla m c h i strukturasini buzadi.

Oqsillami fraksiyalash y o ii bilan ajratish

Oqsillar ekstratsiya qilingandan so‘ng ekstraktni sentrifugalash yordamida to‘qima elementlaridan tozalaniladi va eritmaga o ‘tgan oqsiUarni fraksiyalash yo‘li bilan ajratiladi. Hozirgi paytda quyidagi u su lla r bilan oqsillar fra k siy a la rg a ajratiladi: tuzlar ta’s ir id a cho‘k tirish , issiqlik ta ’sirid a d en atu ratsiy alash usuli, o rg a n ik erituvchilar yordamida cho‘ktirish, xromatografiya, gelfiltratsiya, elektroforez, ultratsentri-fugalash usullari.

OqsiUarni tuzlar taS 'ii ida cho‘klirib ajratish

Oqsillami ishqoriy va ishqoriy yerm etall tuzlari ta’sirida ch o ‘ktirib fraksiyalanganda ular o ‘zxossalarini saqlab qoladi, chunki diaiiz yoki gelfiltratsiya usuli bilan oqsil cho‘km asidan tuzlar ajratib olinsa, oqsil eritmaga o ‘tadi. Bu usul biologik faollikka ega bo ig an ferm entlarni ajratib olishda katta ahamiyatga egadir.

Klinik laboratoriyalarda qon zardobidan globulin oqsiiiarini ammoniy sulfatning yarim to‘yingan eritmasi, albumin oqsiiiarini to‘yingan eritmasi yordam ida ajratib olinadi. Tuzlar bilan oqsilni cho‘ktirishda oqsilning tabiatи tuzlarning konsentratsiyasi hamda eritmani pH va temperatura ahamiyatga ega bo‘ladi.

Dializ usub

Yuqori molekulalni past molekulalni moddalardan yarim o ‘tkazgich membranalar yordamida ajratish usuliga dializ deyiladi.Dializ usuli kolloid zarrachalami yarim o ‘tkazgich membranalardan o ‘tmasligiga asoslangan. Yarim o‘tkazgich membranalarga kollodiy, sellofan, pergament qog’ozlari misol bo‘ladi.

Inson va hayvon organizmida buyrakdagi Boumen - Shumlyanskiy kapsulasining pardalari ham yarim o‘tkazuvchandir. Dializ uchun ishlatiladigan asbobni dializator deyiladi. Oddiy dializator sifatida kollodiy va sellofan qopchasi ishialiladi. Cho‘ktirib ajratilgan oqsil cho‘kmasini kollodiy yoki sellofan xaltacfaasiga joylab, distillangan suv solingan idishga tushiriladi. Bunda vaqto’tishi bilan kichik molekulalni moddalar (tuzlar) xaltacha tashqarisidagi distillangan suvga chiqadi. Oqsil esa yarim o‘tkazuvchi parda teshikchalaridan o ‘tolmaydi va xaltacha ichida qoladi.

O qsillar aralash m asin i ion alm ashuvchi, adsorbsiyalovchi xromatografiya, gelfiltratsiyalash va afin xromatograflya yordamida ham firaksiyalarga ajratiladi.

a) Ion almashuv xromatografiyasi.

Bu usulda ikki xil ion almashtiruvchi adsorbentlar sifatida ishlatiladi.

1. Kuchli va kuchsiz asosii anion almashtiruvchilar. Bularga polistrol va selluloza hosilalari kiradi.
2. Kation alm ashtiruvchi polistirollarga sulfat birikmalari va karboksilmetilsellyuza kiradi.

Ion almashtiruvchi moddalarni kolonkaga (uzun shisha naycha) solib kuchsiz kisiota yoki asos bilan yuviladi. So‘ngra oqsil eritmasi o ‘tkaziladi. Bunda oqsil molekulasi anion yoki kation gruppalarga boMinishi natijasida oqsilSami tuzlarning turli pHli eritmasi yordamida ajratib olinadi.

b) Adsorbsion xromotografiya.

Bu usulda adsorbent sifatida faollashtirilgan ko‘mir va alyumin oksidi ishlatiladi. Adsorbent kolonkaga solinib, erituvchi quyiladi va oqsil eritmasi qo’shiladi, bunda oqsil

adsorbent bilan birikadi. So'ngra oqsil fraksiyalari turli pH li bufer eritmalari yordamida ajratib olinadi. Oqsillami fraksiyalarga ajratishda taqsimlanuvchi xromatografiya usulidan foydalilanildi. Taqsimlanish xromatografiyasi adsorbsion xroinatografiyani turi boiib, adsorbent sifatida xromatografiya qog'ozni, kraxmal, silikagel va boshqalar ishlataladi.

d) Gel xromatografiyasi. Bu usulda har xil gellar ish latilad i, m asalan: dekstrandan tayyorlangan, turli markadagi sefadekslar, dekstran -- yuqori molekulali glyukoza qoldiqlaridan tarkib topgan polimer moddadir, uni ishqoriy muhitda epixloridgidrin bilan reaksiyaga kiritilsa, gel hosil bo'ladi. Poliakrilamid gelini hosil qilish uchun suvda yaxshi eriydigan monomer akrilamid olib bu funksional reagentlar ishtirokida polimerlashtiriladi. O qskillarni m olekulalari katta yoki kichikligiga qarab gelxromatografiyakolonkasiga gel to'ldirilib undan oqsillar aralashmasi o'tkazilsa avvalo, kichik molekulali oqsillar gel g 'ovaklari orqali, gel zarrachasining ichiga kiribdiffuziyalanadi. Yirik m olekulali oqsillar bu g 'ovakchadan o'tolmaydi, ular zarrachaning tashqarisida qoladi va eritm a bilan kolonkadan oqib chiqadi.

e) Afin xromatografiya.

Bu xromatografiya usulli quyidagi prinsiplarga asoslangan bo'ladi: ajratib olinishi lozim bo'lgan oqsilga spetsifik bo'lgan modda Z- ligandda erimaydigan M moddasiga mustahkam qilib biriktiriladi. Shunday qilib, tayyorlangan MZ-adsorbenti xromatografiya kolonkasiga sooinadi va u orqali oqsil aralashmasi o'tkaziladi. Bunda P oqsili spetsifik adsorbent bilan birikadi. $MZ+P=MZP$. So'ngra kolonka yaxshilab yuviladi va birikkan P-oqsilining birikmasini dissotsiatsiya qiluvchi eritma bilan ajratib kolonkadan chiqariladi.

Elektroforez usuli Bu usu! bo'yicha oqsiliar elektr maydonida har xil harakathanish tezligiga asoslanib fraksiyalarga bo'linadi. Filtr qog'ozidao'tkaziladigan elektroforez usuli yordamida inson qon zardobidagi oqsillarni fraksiyaga ajratish mumkin. Qog'ozda o'tkaziladigan elektroforezdan tashqari hozirgi vaqtida kraxmal geli, poliakrilamid va sellyulozada cqsillarni eietroforez yordamida fraksiyalarga bo'shilish va ajratish mumkin. Filtr qog'ozni o 'rniga yuqorida ko'rsatilgan moddalar elektroforezda ishlatilganda qon zardobi oqsillarini ko'proq fraksiyalarga ajratish mumkin. Masalan: kraxmal g'ilida 10 ta, poliakrilamid g'ilida 18 ta oqsil fraksiyalarini olish mumkin. Eietroforez yordamida ajratilgan oqsilni aniqlash uchun qog'oz va gellar bromfenol yoki 10 V amid qora bo'yog'i bilan va boshqa oqsil bilan rang beruvchi reaktivlar bilan ishlanadi.

Oqsil strukturasini o'rghanish usullari

O qskillarni gom ogen holda ajratib olish ularning birlam chi, ikkilam chi, uchlama chi va to'rtlamchi strukturasini o'rghanishga imkoniyat tug'diradi. Oqsilning aminokislota tarkibini aniqlash uchun oqsil to'la am inokislotalargacha gidroliz qilinadi va analizatorlar yordamida aminokislolar tekshiriladi. Oqsilning ikkilamchi strukturasini esa izotop almashinish usuli, ultrabhnafsha va infraqizil spektrosko'p usullari yordamida aniqlanadi. Bu usullar polipeptid zanjirni spirallanish darajasini aniqlashga imkoniyat beradi. Oqsilning uchlama chi va to'rtlamchi strukturasini - elektron mikrosko'p va rengenostruktur tahlil yordamida aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo'stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Strukturas and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

Mavzu -4. Aminokislolar oqsil molekulasi tuzilishining asosiy bloklari. Aminokislolar olish texnologiyasi

REJA:


- 1.Aminokislolarining klassifikatsiyasi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Optik izomeriya.
- 2.Aminokislolar yonbosh radikallarning oqsil molekulasi tarkibidagi fizik-kimyoviy xususiyatlari.
- 3.Aminokislolar va oqsillarning aniqlashning biokimyoviy usullari.
- 4.Oqsillarni gidrolizlash va aminokislolarini ajratish.
5. Lizin va glutamin kislota ishlab chiqarish.

Ma’ruza bo‘yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so‘z va iboralar:

Monoaminomonokarbon aminokislolar: glitsin, alanin, valin, leysin, izoleysin, serin, trionin, monoaminodikarbon aminokislolar, asparagin, glutamine, diaminomonokarbon aminokislolar, lizin, arginine, oltingugurt tutuvchi aminokislolar, metionin, sistein, sistin. aromatik aminokislolar, fenilalanin, tirozin, geterotsiklik aminokislolar: triptofan, gistidin, prolin, oksiprolin

Oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislolar Oqsillarning aminokilota tarkibini o‘rganishning eng qulay usuli **gidroliz** hisoblanadi. Oqsillar kislota yoki ishqor ishtirokida 100-110°C atrofida 24 soat bosim ostida, qaynatilsa to‘liq gidrolizga uchraydi. Oqsillar **gidrolizida** ko‘proq 6N (20%) HCl eritmasi ishlatiladi. Yoki (oqsilni parchalovchi ferment *tripsin*) fermentativ usulda ham aminokislotalarga ajratish mumkin. Hosil bo‘lgan oqsil gidrolizatining aminokislota tarkibi xromatografik usulda yoki avtomatik analizatorlarda aniqlanganadi. Hozirgi vaqtida tirik organizmlar tarikibida 400 dan ziyod aminokislolar borligi aniqlangan bo‘lib, shulardan 20 tasi oqsillar tarkibida doim, ba’zilari ayrim hollarda uchraydi.

Aminokislolar tarkibida amino va karboksil gruppa tutuvchi organik birikmalardir. Ularning oqsillar tarkibida uchraydigan vakillari (prolindan tashqari) quyidagi umumiy formula bilan ifodalilanadi.



R - radikal

Oqsil tarkibiga kiruvchi 20 xil aminokislolar kimyoviy strukturasiga ko‘ra bir-biridan radikal qismi bilan farq qiladi va asosiy olti sinfga bo‘linadi.

1. Monoaminomonokarbon aminokislolar:

glitsin, alanin, valin, leysin, izoleysin, serin, trionin

2. Monoaminodikarbon aminokislolar:

asparagin, glutamin

3. Diaminomonokarbon aminokislolar:

lizin, arginin

4. Oltingugurt tutuvchi aminokislolar:

metionin, sistein, sistin

5. Aromatik aminokislolar:

fenilalanin, tirozin


6. Geterotsiklik aminokislotalar:

triptofan, gistikin, prolin, oksiprolin


Aminokislotalar assimetrik fazoviy strukturaga ega bo‘lganligi uchun qutublangan nur sathini o‘nga yoki chapga buradi. Lekin ularning hammasi tabiiy manba'larda asosan L-konfiguratsiyada uchrayda. D-konfiguratsiyada aminokislotalar oqsillar tarkibida uchramaydi.

Ular ayrim hollarda mikroorganizmlarda, ba’zi peptidlar yoki siklopeptidlar tarkibida uchrashi mumkin.

Aminokislotalarning D va L – izomerlarini umumiylar tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:




D - aminokislota



L - aminokislota

Asosan tabiiy oqsillar tarkibida umuman ko‘proq L(-) aminokislotalar uchraydi. Aminokislotalarning radikal qismidagi xilma-xilligi, oqsillarning turli xil fizik va kimyoviy hususiyatlari bilan birgalikda turli fiziologik funksiyasini ham belgilaydi. Oqsil xarakteriga ko‘ra ayrim aminokislotalar shu oqsil tarkibiga kirmasligi ham mumkin.


Tirik organizmda sintezlanuvchi oqsillar «затененные» – almashinadigan ya’ni o‘rni qoplanadigan aminokislotalar va sintezlanmaydigan - tayyor holda organizmga qabul qilinadigan aminokislotalar «незатененные», ya’ni almashinmaydigan-o‘rni qoplanmaydigan aminokislotalar deyiladi.




Quyida oqsillar tarkibiga uchraydigan 20 xil aminokislotalarning formulalari struktura holida keltirilgan.

I. Monoaminomonokarbon aminokislotalar:


Glitsin (Gli)




2. Alanin (Ala)




3. Valin (Val)




4. Leysin (Ley)




5. Izoleysin (Ile)



6. Serin (Ser)




7. Treonin (Tre)




II. Monoaminodikarbon aminokislotalar

8. Asparagin (Asp)




9. Glutamin (Glu)




III. Diaminomonokarbon aminokislotalar

10. Lizin (Liz)




11. Arginin (Arg)




IV. Oltingugurt tutuvchi aminokislotalar


12. Metionin (Met)



13. Sistein (Sis)




14. Sistin




V. Aromatik aminokislotalar

15. Fenilalanin (Fen)




16. Tirozin (Tir)




VI. Geterotsilik aminokislotalar


17. Triptofan (Tri)




18. Gistidin (Gis)



19. Oksiprolin (Opro)



20. Prolin (Pro)



Aminokislotalar biotexnologiyasi

Oqsil, monoaminomonokarbon aminokislotalar, proteolitik, gidroliz, fermentlar

Oqsil molekulasi yuksak polimer bo'lganidan uning tarkibiga kiradigan aminokislotalarni aniqlash uchun oqsilni to'la gidroliz qilish kerak. Oqsillar gidrolizlanganda, ya'ni suv qo'shib parchalanganda ularning tarkibiy qismlari - aminokislotalar ajralib chiqadi. Oqsil preparatlari yoki to'kima namunalarini kislota bilan qaynatish, yoki oqsilni parchalovchi ferment, ko'pincha, tripsin yoxud oksillarni gidrolitik parchalovchi bir nechta proteolitik fermentlar aralashmasi ta'sirida gidrolizlanadi. Ishqor bilan gidroliz qilish usulidan deyarli foydalanilmaydi, chunki bunda aminokislotalar ratsemirlanadi va arginin bilan sistin buzilib ketadi. Gidroliz qilish uchun sulfat kislota ancha qulay, chunki ma'lum muddat (15-20 soat) davomida qizdirilgandan so'ng ortiqcha kislota osonlik bilan sulfat shaklida ajraladi. Proteolitik fermentlar ta'sirida gidrolizolash uzoq vaqt talab qiladi va ko'pincha to'la bo'lmaydi. Lekin fermentativ gidrolizning afzalligi shundaki, kislotali gidrolizda buzilib ketadigan triptofan bu usulda saqlanib qoladi.

Bundan tashqari, ba'zi fermentlar oqsil molekulasiagi ayrim boqlarni tanlab o'zishi sababli, ular proteinlar analizida maxsus maqsadlar uchun foydalidir. qosil bo'lgan gidrolizatdan aminokislotalar ximiyaviy xossalariiga qarab aloqida shaklda ajratib olinadi. Monoaminokislotalarning ko'pchiligi butil spirti bilan ekstraktsiyalanadi, dikabron kislotalar kaltsiy tuzi shaklida spirtda cho'ktirib olinadi, ishqoriy aminokislotalar fosfovolframat kislota bilan cho'ktirib ajratiladi.

АМИНОКИСЛОТАРНИНГ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ҲОССАЛАРИ

Сувли эритмаларда аминокислоталар биполяр ион ҳолида учрайди (цвиттерион).

$$\begin{array}{c} \text{R}-\text{CH}-\text{C}^{\bullet\bullet} \\ | \\ \text{NH}_3^+ \end{array}$$

Кислотали музигда карбоксил группа диссоциацияга учрамайди ва аминокислота ўзини асос сифатида тупиб мусбат зарядланади.


$$\text{R}-\underset{\text{NH}_3^+}{\text{CH}}-\text{COO}^- \rightleftharpoons \text{R}-\underset{\text{NH}_3^+}{\text{CH}}-\text{COOH}$$

Ишқорий мухитда кислотали табиятга эга бўлиб диссоциация константаси манфиий зарядланади.



$$\text{R}-\underset{\text{NH}_3^+}{\text{CH}}-\text{COO}^- \rightleftharpoons \underset{\text{H}^+}{\text{O}H^-} \text{R}-\underset{\text{NH}_2}{\text{CH}}-\text{COO}^-$$

N-охирги аминокислота қолдигини аниқлаш

1. Сенгер усули





2. Грей-Хартли усули



C-охирги аминокислота қолдигини аниқлаш

1. Акабори усули





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo`stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Struktires and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

Modul -13. Oqsillarning tuzilish darajalari

REJA:

1. Oqsilning birlamchi tuzilmasi polipeptid zanjirning bir chiziqli zanjiri.
2. Birlamchi struktura zanjirning uzunligi va aminokislotalarning tarkibi.
3. Oqsillarning ikkilamchi tuzilishini vujudga kelishida vodorod bog'larning roli.
4. Oqsillar ikkilamchi tuzilishining eng muxim elementi muntazam α -spiral xoli ekanligi.
5. Oqsil molekulasining fazoviy tuzilishi turg'unligi. Oqsillar tuzilishida uchlamchi tuzilishning muayyan shaklga kelishi.
6. Oqsil molekulasining formasi, kompaktligi uning dinamikasi. Ba'zi oqsillar va peptidlarning uchlamchi tuzilishi turg'unligida disulfide bog'larning roli.
7. Oqsil molekulasining fazoviy tuzilishi turg'unligi. Oqsillar tuzilishida uchlamchi tuzilishning muayyan shaklga kelishi.
8. Oqsil molekulasining formasi, kompaktligi uning dinamikasi. Ba'zi oqsillar va peptidlarning uchlamchi tuzilishi turg'unligida disulfide bog'larning roli.
9. Oqsil molekulasining uchlamchi tuzilishini avaldan aytib berish uchun aminokislolar kettma-ketligining konsensusi.


Ma'ruza bo'yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so'z va iboralar:

Rentgen struktura, disulfid, ion, vodorod ribonukleaza, insulin, mioglobin, pepsin, gemoglobin, lizotsim, kalsiy bog'lovchi oqsil, Peptid bog'lar va peptidlar, CO-NH- mass-spektral analizda rentgen struktura, disulfid, ion, vodorod ribonukleaza, insulin, mioglobin, pepsin, gemoglobin, lizotsim, kalsiy bog'lovchi oqsil.


Oqsillaming birlamchi strukturasi deb, aminokislotalarni polipeptid zanjirida ketm a-ket joylanish tartibiga aytildi. Oqsilning birlamchi strukturasi aminokislotalaming sifat va miqdoriga bog'liq boidi.

Birlamchi struktura asosini peptid bog'lari tashkil etadi. Peptid bog'larining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ya'ni ulardagi hamma atom lar bog'larining bir tekislikdaligi bo'ldi.

Ular ikki xil shaklda, ya'ni keto- hamda yenol- shakllarida bo'ldi.




3-rasm. A. Peptid sintezi



B. Peptid bog'i mezomeriyasi


Undan tashqari aminokislolar sis- va trans- izomer shaklda ham uchraydi. Fazoda aminokislolar o'zaro vodorod bog'i hosil qilish xossasiga ega. Oqsil molekulasida polipeptid zanjirining -NH, tutgan oxiriga N- oxiri va -COOH tutgan oxiriga esa C-oxiri deb ataladi.

N - oxirgi aminokislota qoldig'ini Sanger va Edman usullari bo'yicha oqsil dinitroftorbenzol (DNFB) bilan reaksiyaga kiritiladi. Bu reaktiv erkin holdagi aminoguruh bilan reaksiyaga kirishadi va DNF-oqsil birikmasini hosil qiladi.




Hosil bo'lgan DNF-oqsil gidrolizlanganda N-oxirgi aminokislota qoldig'i ajralib chiqadi. Shunday qilib, oqsilning birlamchi strukturasini o'rganish mumkin.

Edm an usuli bo'yicha oqsil fenilizotiotsonat reaktiv bilan reak siy ag a k irtilad i. Fen iliz o tio tsia n a t oqsilning N • o x irg i aminokislotsasi bilan birikadi.




H osil b o 'lgan birik m ag a suvsiz HC1 ta 'sir ettirilsa oxirgi aminokislota feniltiogidantoinga ayianadi. Oqsil molekulasining qolgan qismi erkin hotda ajralib chiqadi.


C-oxiri aminokislota qoldig'ini aniqlashda yapon olimi Akabori tomonidan gidrazinoliz usuli taklif etilgan. Bu usul bo'yicha oqsilga gidrazin ta'sir etib, hosil bo'Mgan birikmani dinitrobenzol bilan reaksiyaga kiritiladi.



Hosil bo'lgan aminokislota gidrozidi ikki molekula DNFB bilan va C-oxiri aminokislota esa bir molekula DNFB bilan birikadi. DNF aminokislota gidrazidi DNF aminokislotsadan sırka - etil-efir yordam ida ekstraksiya qilib ajratib bo'linadi. DNF-aminokislota xromatografik usul bilan aniqlanadi.

Oqsillardagi C-oxirgi aminokislotsani karboksipeptidaza fermenti yordamida aniqlanadi. N- va C-oxirgi aminokislolar aniqlangandan keyin ulaming miqdoriga qarab oqsil molekulasi polipeptid zanjiridagi aminokislolar soni aniqlanadi. Oqsil molekulasidagi polipeptid zanjiri yoyilgan hamda o'ralgan holda boiadi. O'rallagan polipeptid zanjirini ayrim qismlari o'zaro disulfid (S-S) bog'i yordamida bog'lanadi (4-rasm). Masalan: ribonukleaza bitta polipeptid zanjirdan tashkil topgan oqsil bo'lib, 4 joyidan disulfid bog'lar orqali bog'lanadi. Disulfid bog'lar oksidlanish va qaytarish reaksiyasi yordamida isbotlanadi.






6-rasm. Polipeptid zanjir b-strukturasi

Polipeptid zanjir a*spiral va (3-struktura ko'rinishida b o iish in Poling va mualliflar rentgen struktura analizi yordamida aniqladilar. Ct-spiral o'ng va chap tomonga buralgan holda boiishi mumkin. Polipeptid zanjiming a-spirallanishida har bir aylanishiga 3,6ta aminokislota qoldig'i to'g 'ri keladi. Spiral qismining to'liq takrorlanishi 18 ta aminokislota qoldig'idan keyin ro 'y beradi. Ularning uzunligi 0,5 nm va 2,7 nmga teng va har bir aminokislota qoldig'i to'g*ri keladigan masofa 0,15 nm ga teng. Oqsil molekuiasining P-strukturasi polipeptid zanjiri yonm a-yon joylanishi natijasida hosil bo'ladi. Vodorod bog Mari parallel yoki antiparallel holda joylashgan polipeptid zanjirining peptid bog'lari o 'rtasida hosil bo'madi. Natijada polipeptid zanjirlari takrorlanib qavatm a-qavat b o iib joylashadi. Oqsillarda alfa-strukturadan (3-strukturaga o 'tishi mumkin va u holda vodorod bog'lari qayta tuzilishi mumkin. Bu holat sochdag'i keratin oqsilida kuzatilgan. Agar sochlami ishqoriy eritmalar bilan yuvilganda oqsilning strukturasi buziladi. P-keratin alfa-keratinga aylanadi. Oqsilning ikkilamchi strukturasi (a-spiral va (3-struktura) qizdirish natijasida buziladi. Bunda polipeptidlар o'rtasidagi vodorod boglari uzilib, polipeptid zanjiri esa tartibsiz holatga keladi.

Shunday qilib, oqsilning ikkilamchi strukturasining turg'unligi vodorod bog Mari yordamida ta'minlanadi. Bundan boshqa boglar (disulfid bog'idan tashqari) ishtirok etmaydi. Ko'pchilik oqsillarda bir vaqrda a-spiral va p-strukturali qismlari bo'madi. Oqsiliarning biologik xususiyatlari (ferment, gormon, antitela, antigen va boshqalar) uiarning ikkilamehi va uchlamchi strukturalariga lo g 'liq b o 'lib , u ia r n a tiv konform atsiyasi deb ataladi. O qsi molekulasining uchlam chi strukturasi funksionai konformatsiyani saqlaydi, uni akad. V.A. Engelgard intramolekulyar axborot deb nomlagan

Oqsilning uchlamchi strukturasi deb spiral ko 'rinishidagi polipeptid zanjirning ma 'lum ham da globulyar (sharsimon) yoki fibrillyar (ipsimon) struktura hosil qilishiga aytildi.



7-sesm. Mioglobini molekulasining uchlamchi strukturasi
(Kendryu bo'yeha)

]

Polipeptid zanjirim ng uzunligi spiral hosil qilgandan so'ng 4 marotaba qisqaradi. Oqsillaming uchlamchi strukturasi kuchli (kovalent) va kuchsiz (qutbli, ion, van-der-vaals) b oqlar yordamida m ustahkam ushlab turiladi. Kovalent bog'lariga disulfid (-S-S-), izo p ep tid yoki p sev d o p e p tid b o g 'lari kiradi. U larga liz, arg aminogruppasi bilan yon radikallari orasidagi boglar kiradi. Kovalent bo'Imagan bogiarga vodorod va ion b o g iari kiradi. Vodorod bog'lavi aminogruppalar bilan aminokislotalar radikali orasida va karboksil gruppa bilan boshqa aminokislota orasida vujudga keladi. Ionii yoki elektrostatik bog'lanish esa liz, arg, gis zaryadlangan guruhi bilan yon radiakaliari, val, asp, glutaminning - COO' orasida hosil bo'ladi. Polipeptid zanjirini uchlamchi struktura konformatsiyasini oqsilning xossasiga, aminokislota radikallarining xossasiga va atrof- muhit sharoitiga qarab aniqlanadi. Oqsillaming polipeptid bog'larini joylanishida energetik qulay shakliga o'tishi qabul qilingan b o iib , oz miqdorda erkin energiya hosil bo'lishiga asoslangan. Shuning uchun qutbsiz radikallar suvdan uzoqlashib oqsilning ichki uchlamchi struktura shaklini hosil qiladi. Ular asosan oqsil strukturasini ichiga joylashgan bo'ladi. Qutbli (gidrofil) aminokislota qoldiqlari oqsil strukturasining tashqi qavatida joylashadi va suv molekulalari bilan birikkan holda bo'ladi. Oqsil tarkibida prolin va gidroksiprolin aminokislotalar bor joyj zanjim ing kuchsiz nuqtasi b o ig a n i sababli bukiladi yoki sinadi. Zanjirdagi bu aminokislotalar ko'proq harakatchan bo'lib, boshqa polipeptid guruhlari bilan yakka vodorod bog'i hosil qiladi. Boshqa egilgan joyda glitsin bo'lib R-guruhsida vodorod kam bo'ladi. Shuning uchun boshqa aminokislotalaming R-gruppasi fazoviy bukilishiga, ya'm glitsin turgan joyga boshqa radikal guruhi joylanishiga harakat qiladi. Ala, ley, gis kabi bir qancha aminokislotalar oqsilning spiral strukturasini mustahkam saqlashda ishtirot etadi. Meile, asp aminokislotalari esa Я-struktura hosil qilishda qulaylik keltiradi. O qsilning m olekulasining uchlam chi strukturasida a -s p ira l (spirallahshgan), Я-struktura (qavatma-qavat) va tartibsiz joylashgan qismlari boiadi. Faqt oqsilning to'g 'ri fazoviy joylanishi oqsilning faolligini oshiradi, uni buzilishi esa oqsil xossasini o'zgarishiga olib keladi va biologik faolligini yo'qolishiga sabab boiadi. Sitoxrom CJizotsim, ribonukleazalar uchlamchi strukturasini bilan farq qiladi. Ulaming polipeptid zanjiri har xil a-sp irlar segmentlari va Я - struktura qismlari boiadi. Ba'zi oqsil molekulalari bir necha polipeptid zanjirdan iborat bo iib, ular subbirliklar yoki protomerlar deb nomlanadi. Har bir protomer o'ziga xos birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalariga ega. Protom erlar va ular qism larining bir-biriga nisbatan fa zo d a joylashuvi oqsil molekulasining to'rlamchi strukturasini deb nomlanadi. Ayrim oqsillar to'rlam chi strukturasida protom erlar globulyar ko'rinishda bo'ladi.



8-rasm. Gemoglobin modeli (Peruts bo'ycha) α -zanjinlar;
 β -zanjinlar qoni

Masalan: gem oglobin oqsili molekulasida polipeptid spirallari vjntsimon simmetrik holda birlashgan bo'ladi.

To'rtlamchi strukturaga gemoglobin, tamaki virusi oqsili, RNK-polimeraza, laktatdegidrogenaza, katalaza va boshqalar ega bo'ladi. Demak, birgina polipeptid zanjiridan iborat bo'lgan oqsil molekulasi to'rtlamchi strukturaga ega bo'la olmaydi. To'rtlamchi strukturaga ega bo'igan oqsil molekulasiga oligomer oqsil deyiladi. Masalan: gemoglobin molekulasi ($M = 64500$) 4ta subbirlikdan yo'ki p o lip e p tid zanjirlaridan tashkil topgan. Bu polipeptidlarning har biri birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturaga egadir.

To'rtta polipeptid zanjirining har ikkitasi bir xil birlamchi strukturaga ega, shuning uchun ikkita a va ikkita \textcircumflex -polipeptidlар gemoglobin moleculekulasini to'rtlamchi strukturasi hosil qiladi. α -polipeptid zanjirida 141, \textcircumflex -polipeptid zanjirida esa 146 ta aminokislotalar qoldig'i joylashgan. Gemoglobin oqsili globulyar konfiguratsiyada bo'ladi. Turli subbiriklarni o'zaro tutashib turishini am inokislotalar qoldiqlarini qutbli guruhlari ta'minlaydi.

Qutbli guruhlar orasida ionli, vodorodli, ayrim vaqtarda disulfidli bog'lar hosil bo'lib, subbiriklar o'zaro muslahkam bog' manadi. Vodorod bog'ini uzuvchi moddalar ta'sirida, d isu ifid bog'marini qaytaruvchi oddalar ta'sirida protom erlar dezagregatsiyaga uchraydi va oqsilning to'rtlamchi strukturasi buziladi. Oqsil multimerlari (oligomerlari) ko'pincha juft sonli protomerlardan tuziladi. (2 dan 4 gacha oz miqdorda, 6 dan 8 gacha, 10, 12 gacha va hk.). Natijada massasi har xil bolgan molekulalar hosil bo'lib bir necha ming, hattoki 100000 Dga teng bo'ladi.

To'rtlamchi strukturaga ega bo'lgan gemoglobin 4 subbirlikdan, piruvatdegidrogenaza kompleksi 72 subbirlikdan, RNK-polimeraza 5 subbirlikdan, LDG - 4 subbirlikdan iborat bo'ladi. Ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturalar birlashib makrostruktura yoki oqsillaming konfonantf^e^asi, oqsillaming fazoviy strukturasi tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo'stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins?», 2-nd edition: «Structures and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Wiley & Sons Ins., 1999

Mavzu -6. Fermentlar olish texnologiyasi

REJA:

1. Fermentlar. Fermentlar biologik katalizatorlar
2. Fermentlarning aktiv markazlari.
3. Fermentlar klassifikatsiyasi.
4. Fermentlarning aktivatorlari va ingibitorlari.
5. Koofermentlar
6. Fermentlar olish texnologiyasi

Ma’ruza bo‘yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so‘z va iboralar:

Ferment, katalizator, enzimologiya, kataliz, gomegen, geteregen, sulfigidril, substarat, aktiv markaz, funksiya, klassifikatsiya, spetsifik, koofermentlar

Fermentlar kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiruvchi ***biologik katalizatorlar*** bo‘lib, tabiatiga ko‘ra eng yuqori darajada takomillashgan oqsil moddalardir. Ular xujayra, to’qima va turli organizmlarning hayotiy jarayonlarining asosi bo’lgan minglab kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradi. Bu guruh moddalarga, ya’ni biologik katalizatorlarga ***ferment*** nomi berilishi yoki ularni ikkinchi nomi ***enzim*** deb atalishi ***bijgish*** jarayonlarining ochilishi bilan bogliq.

Peterburg FA haqiqiy a’zosi **K.S. Kirxgoff** 1814 yili unayotgan arpa doni (solod)dan olingen ekstrakt ta’sirida kraxmalni qandlashib, maltozaga aylanishini ko’rsatgan. 1883 yili **Payon va Perso** arpa doni ekstraktidan spirit bilan cho’ktirish orqali kraxmalni qandga aylantiruvchi ***diastaza (amilaza)*** fermentini ajratib olishga sazavor bo’lgan. 1926 yilda **J. Samner** tomonidan toza kristall modda ***ureaza*** ajratib olingen va bunga oqsil tabiatga ega degan xulosaga kelishgan. 1930-36 yillarda **Nortrop** kristall holda pepsin, tripsin va ximotripsin moddalarini ajratib olgan. Hozirgi vaqtida fermentlarni 3000 dan ziyod turlari borligini aniqlangan. Fermentlar haqidagi ta’limot alohida fan – **enzimologiya** faniga aylangan.

Tirik hujayrani asosini tashkil qiluvchi birikmalar, oqsillar, uglevodlar, Yogsimon moddalar va boshqa ba’zi bir organik moddalar turli xil o’zgarishlarga duch keladi. Ular hosil bo’ladi, o’zaro bir-biriga aylanadi, qisman parchalanib yo’qoladi. Mana shu o’zgarishlar nihoyatda tez fermentlar ta’sirida boradi va shuni alohida ta’kidlash kerakki, ular oddiy temperaturada, neytral muhitga yaqin bo’lgan muhitda. va normal bosim sharoitida boradi. Umumlashtirib aytganda bu modda almashinish jarayonining reaksiyalari.

Bizga ma’lumki, laboratoriya sharoitida esa, shunga o’xshash reaksiyalarni ancha qiyinchilik bilan amalga oshirish mumkin. Masalan, oqsillarning gidrolizlanish reaksiyalari tirik organizmlarda ***protein gidrolaza*** fermentlari ishtirokida nihoyatda tez va oson borsa, laboratoriya sharoitida oqsilning gidrolizi bir necha soat ***kislotali*** muhitda bosim ostida qizdirish yordamida amalga oshiriladi. Sizga ma’lumki, reaksiyalarning tezligini boshqa bir moddalar ta’sirida o’zgartirishi ***kataliz*** deyiladi. Tirik organizmda xuddi shunday jarayon ***biokataliz*** deb ataladi.

Kataliz tezlashtiruvchi yoki ***musbat*** (tezlashtiruvchi) va ***salbiy*** (sekinlashtiruvchi) bo’ladi. Undan tashqari ***gomogen*** yoki ***geterogen*** katalizlar bo’ladi, ya’ni reaksiyalarda, reaksiyaga kirishuvchi moddalar biokatalizator bir fazada bo’lsa ***gomogen kataliz***, turli fazada bo’lsa, ***geterogen kataliz*** deyiladi.

Har qanday katalizlarni tushuntiruvchi, ularni mexanizmini asoslovchi nazariyalar mavjud. geterogen katalizda reaksiyaga kirishuvchi moddalar, Masalan, **Balandinning multiplet** nazariyasi. Bu nazariya geterogen katalizning mexanizmini tushuntiradi. Unga ko‘ra kataliz shartlari:

1. Katalizator bilan reagentning o'zaro energetik mosligi.
2. Aktiv markazlar bilan regentning fazoviy, geometrik mosligi.
3. Regentning katalizator yuzasida adsorbsiyalanashi va desorb siyalanashi.

Tirik hujayralarda kataliz jarayoni o'ziga xos katalizatorlar-**fermentlar** yoki **enzimlar**, ya'ni oqsil tabiyatiga ega bo'lgan yuqori molekulyar biologik **geterogen** katalizatorlar yordamida amalga oshadi. **Kimyoviy katalizatorlardan** farqli ravishda **biokatalizatorlar**, ya'ni fermentlar reaksiyalarni o'ziga xos uch xil asosiy shart asosida amalga oshadi:

1 - shart: Fermentlar reaksiyalarini nihoyatda yumshok sharoitda amalga oshiradi.


2 - shart: Fermentlar reaksiya sharoitida yoki muhit o'zgarishi natijasida nihoyatda tez o'z hususiyatlarini o'zgartiradi yoki yo'qotadi.

3 - shart: Fermentlar tanlovchandir, ya'ni ko'pincha bitta ferment faqat bitta reaksiyani va aynan bitta moddadagi ma'lum reaksiyani amalga oshishini ta'minlaydi.

Masalan, ureaza fermenti mochevina tarkibidagi $\text{O} \text{ H}$
 -C-N- bogni uzilishini, ya'ni gidrolizlanishini ta'minlaydi. Lekin bu ferment oqsil tarkibidagi peptid bogini gidrolizlashda katnasha olmaydi. Demak fermentlar tanlab ta'sir etish hususiyatiga ega.

Har bir ferment ma'lum bir organik yoki kimyoviy gruppalar to'plamiga ega bo'lib, ular qoldiqlari reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan birikadi va o'z katalistik funksiyasini bajaradi. Bu gruppaga asosan $-\text{SH}$ - (**sulfigidril**) qoldigi, vitaminlar qoldigi va boshqa organik birikmalar kirishi mumkin. Bu gruppalar to'plami ferment molekulasingning turli qismlarida joylashib, **fermentning funksional gruppalari** deyiladi.


Fermentlarning aktiv markazlari:- fermentativ reaksiyalarda fermentlar ishtirokini tekshirish aktiv markazlar haqidagi tushunchalarni keltirib chiqaradi. Ferment malekulasi substrat molekulasidan juda katta bo'ladi. Ular o'z-aro birikkanda ferment molekulasingning hamma qismi boglanishda ishtirok etmaydi. Ferment substrat kompleksida (FS), fermentning faqat maxsus qismigina ishtirok etadi. Bu fermentning, ayni shu reaksiyani amalga oshirayotgan qismi fermentlarning **aktiv markazlari** deb ataladi.



Bu erda, F- ferment, S- substrat, FS-ferment substrat kompleksi,
M – Fermentativ reaksiya natijasida hosil bo'lgan maxsulot.

Masalan:


1. $\alpha\text{-amilaza} + \text{Kraxmal} = \text{amilaza kraxmal aralashmasi}$ $\alpha\text{-amilaza} + \text{dekistrinlar va oz mividorda glyukoza hosil bo'ladi.}$
2. $\text{Protein gidrolaza} + \text{oqsil} = \text{oqsil ferment aralashmasi}$
 $\longrightarrow \text{Protein gidrolaza} + \text{aminokislotalar.}$
3. $\text{Lipaza} + \text{Yog va moy} = \text{ferment Yog va moy aralashmasi}$
 $\longrightarrow \text{Lipaza} + \text{Yog kislotalar va gliserin hosil bo'ladi.}$



Fermentning monomer ko'rinishi-oqsil molekulasining substrat ta'sirida shakliy o'zgarishi:

A. Dastlabki ko'rinish. B. Substrat ta'sirida hosil bo'lgan ko'rinish. V. Aktivator J ta'siridagi ko'rinish. G. Ingibitor. D. Substrat, aktivator va fermentning aktiv ko'rinishi.

Aktiv markaz tabiatiga jixatidan ikki xil bo'ladi. Bir komponentli fermentlarda aktiv markaz rolini bajarishda ayrim aminokislotalar qoldigi ishtirok etsa, ikki komponentli fermentlarda esa, ularning prostetik gruppalarini (kofermentlar) bajaradi. Ferment malekulasidagi kuchli o'zgarishlar aktiv markazlarni yo'qolishiga olib keladi. Bunga misol qilib fermentlar molekulasining **denaturasiya** va **renaturasiya** jarayonlarini misol qilish mumkin.




23 -rasm. Fermentning tasir mexanizmi

Turli xil gruppalarining ferment molekulasidagi kombinasiyasi fermentning **aktiv markazi** deyiladi. Masalan, oqsil o'zgarishida ishtirok etuvchi xemotropsin fermentining aktiv markazi serin, gistidin va asporogen kislotosi 3 strukturasida boglanishidan hosil bo'ladi.

Fermentlar asosan 2 sinfga bo'linadi:

Bir komponentli fermentlar, ya'ni katalitik hususiyatga ega bo'lган oqsil molekulasi dangina hosil topgan fermentlar. Bir komponentli fermentlarda aktiv markaz rolini bajarishda ayrim aminokislotalar qoldigi ishtirok etadi.

Ikki komponentli fermentlar, ya'ni oqsil kismidan (apofermentdan) va oqsil bulmagan (prostetik gruppadan) qismidan tashkil topgan fermentlar ishtirok etadi.



Ferment aktiv markazida substratninig joylashishini ko'rinishi.

Bu ikki komponentli fermentlarda qo'shimcha prostetik gruppalar rolini mikroelementlar ioni, vitaminlar, nukleotidlar, va boshqalar bojarishi mumkin ularni umumlashtirib **kofermentlar** deyiladi. Masalan, uglevodlarning parchalanishida oraliq mahsulot bo'lган, **pirouzum kislotaning** keyingi parchalanishi piruvatdekarboksilaza fermenti ishtirokida boradi. Bunda sırka aldegidi va CO_2 hosil bo'ladi. Mana shu piruvatdekarboksilaza fermenti 2 komponentli fermentlar turkumiga kirib, uning prostetik gruppasiga vitamin B₁ va 2 molekula H_2PO_4^- qoldigi birikmasi kiradi.

Ko'pchilik fermentlarning aktiv gruppalarini tarkibiga vitaminlar kiradi. Masalan, vitamin B aminokislotalarning **oqsillanishida** ishtirok etuvchi fermentlar tarkibiga kiradi. Ikki komponentli fermentlarga yana bir misol bu kataliz fermentidir. Bu ferment vodorod peroksidni parchalash reaksiyasida ishtirok etadi. Bertran taklifiga muvofik 2 komponentli fermentlarning aktiv gruppalarini ferment tarkibidan oson ajralishi mumkin. Bunda o'z aktivligini yo'qotmaydi va bu qism **koferment** deyiladi. Bir komponentli fermentlarga eng ko'p tarqalgan 1930 yil olim **Nortron** tomonidan oshqozon shirasi tarkibidan olingan **pepsin** fermenti kiradi.

Fermentlarni ajratib olishda ham xuddi oqsillarni ajratib olishdagiga o'xshash usullar, qo'llaniladi. (bu usullar oqsillar temasida bayon etilgan). Fermentlarni ajratib olishda va ularni boshqa fermentlardan tozalashda juda ehtiyyot bo'lish kerak. Ko'pincha toza holda ferment olish mumkin, lekin qisman yoki butunlay aktivligini yo'qotgan bo'ladi. Shuning uchun barcha qilinadigan ishlar past temperaturda va optimal pH da olib borilishi kerak. Ularning aktivligini **spektrofotometrik**, **kolorimetrik** va boshqa usullar bilan oson aniqlash mumkin.


Fermentlarni foydalanishda ularni maxsus adsorbentlarga boglash katta ahamiyatga ega, bu esa ferment uzoq vaqt aktivligini yo'qotmasligiga, reaksiya maxsulotini oson ajratib olishga imkon beradi. Bunday boglangan ferment **immobilizasiya** qilingan ferment deb ataladi. Bunda fermentlar sanoatning ayrim tarmoqlarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ulardan qayta-qayta foydalanish imkonini beradi. Ko'pincha fermentlarni

immobilizasiya qilishda sellyuloza va dekistrin hosilalari, agaroza, poliakrilamid gellar, oddiy kvars va boshqalar ishlataladi.

Fermentlar molekulasi bitta, ikkita yoki undan ortiq polipeptid zanjiridan tashkil topgan bo'ladi. Ulardagi har bir polipeptid zanjir o'ziga xos birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturaga ega bo'ladi.

Fermentlarning faol markazi. Fermentativ reaksiyalarda ishtirok etadigan substrat molekulalari ularni katalizlovchi ferment molekulalariga nisbatan birmuncha kichik bo'lganligi sababli ferment bilan substratning o'zaro ta'sirida ferment molekulalarining hamma qismi emas, balki faol markaz deb ataladigan ma'lum qismigina ishtirok etadi. Demak, faol markaz bu ferment molekulalarining substratni biriktiruvchi qismidir. Fermentlarning katalitik faolligi va spetsifikligi ham Shu faol markazga bog'liq bo'ladi. Bir komponentli fermentlarning faol markazi sifatida ularning molekulasini tashkil qiluvchi polipeptid zanjirlarining yon radikallaridagi aminokislotalarning funksional guruhlari va polipeptid zanjirlardagi ba'zi bir aminokislolar tarkibidagi funksional guruhlar ya`ni tsisteining -SH guruhi, serinning -OH guruhi, dikarbon aminokislotalarning karboksil guruhlari, lizinning amino guruhi, triptofanning indol guruhlari faoliyat ko'rsatadi. Fermentning faol markazi polipeptid zanjirning uchlamchi struktura hosil bo'lishi tufayli vujudga keladi. Bunda polipeptid zanjirning turli tomonlarida joylashgan aminokislolar qoldig'i bir-biriga yaqin kelib, faol markazni tashkil qilishda ishtirok etadi.

Fermentlarning faol markazi ular molekulasining juda kam qismini tashkil qiladi.




Ferment faol markazining sxema shaklidagi ko'rinishi

Fermentlarning ta'sir etish mexanizmi. Fermentlarning ta'sir etish mexanizmini tushuntirishda bir qancha nazariyalar bo'lib, ularning hammasi fermentlar faol markazining substrat bilan o'zaro birikishi natijasida ferment - substrat majmuasi hosil bo'lishiga asoslangan.

Ferment-substrat majmuasining hosil bo'lishi reaksiyada ishtirok etayotgan kimyoviy bog'larning polyarizatsiyasi va deformatsiyaga uchrashi yoki elektronlarning o'rin almashinishi tufayli ichki molekulyar kuchlarni bo'shashtirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida substrat molekulalari faolining ortishiga sabab bo'ladi.

Ferment - substrat kompleksining hosil bo'lishi va o'zgarishi uch bosqichdan iborat. Fermentativ reaksiyaning birinchi bosqichida substrat molekulalari ferment bilan kovalent yoki boshqa kimyoviy bog`lar orqali o'zaro birikadi va birlamchi oraliq modda vujudga keladi; ikkinchi bosqichga birlamchi oraliq birikma o'zgarib, bitta yoki ketma-ket keluvchi faollashgan bir necha kompleks hosil qiladi; uchinchi bosqichda esa reaksiya natijasida hosil bo'ladigan yangi mahsulot ferment molekulasidan ajraladi. Bu bosqichlarni quyidagicha ifodalanadi:



bu erda E-ferment; S-substrat; ES- ferment-substrat kompleksi; R-hosil bo'lgan mahsulot; K-reaksiya tezligining konstantasi.

Reaksiyaning birinchi bosqichi tez boradi. Ferment-substrat (ES) kuchsiz kimyoviy bog`lar hisobiga va aktivatsion energiya birmuncha past bo'lgan sharoitda hosil bo'ladi.

Substrat molekulalari o'zgarishining ikkinchi bosqichi kovalent bog'larning uzilishi va bog`lanishi bilan boradi. Ferment katalizlayotgan reaksiyaning tezligi bir necha barobar ortib ketadi.


Ferment-substrat kompleksi (ES) hosil bo'lishi juda tez borishi tufayli u har doim E va S bilan muvozanatda bo'ladi. Uchinchi bosqichda ferment mahsulot kompleksi hosil bo'lsa, yakuniybosqichda esa ferment mahsulot kompleksidan ferment va mahsulot alohida bo'lib ajraladi.

Shunday qilib, fermentativ reaksiyaning tezligi tashqi sharoitlarga (harorat, pH muhit, va hakozolarga) bog`liq.

Fermentlarning asosiy xossalari

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, fermentlar oqsil tabiatiga ega va Shu sababli oqsillarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga ega, Shu bilan birga fermentlar o'ziga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarga ega. Bularga fermentlarning termolabilligi, spetsifikligi, muhit pH ning o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi, aktivator va ingibitorlarning ta'siriga sezuvchanligi, aktivator va ingibitorlarning ta'siriga moyilligi kiradi.

1. Fermentlarning termolabilligi. Fermentlarning eng muhim xususiyatlaridan biri haroratga sezgirligidir. Fermentativ jarayonlar 70°C dan yuqori haroratda davom eta olmaydi, $80-100^{\circ}\text{C}$ da fermentlar o'zining katalitik xossalarni butunlay yo'qotib qo'yadi, oqsil qismi denaturatsiyaga uchraydi, hamma fermentlar uchun muayyan bir harorat bo'lib, bunda ferment yuqori faollikkha ega bo'ladi, bu uning harorat optimumumi deyiladi. Issiq qonli hayvonlarning tarkibidagi ko'pchilik fermentlar uchun eng qulay harorat $25-37^{\circ}\text{C}$ dir.



Fermentativ reaksiya tezligining temperaturaga bog`liqligini grafigi

O'simlik tarkibidagi fermentlarning harorat optimumumi $40-60^{\circ}\text{C}$ ga teng bo'ladi. Past (0° dan past) haroratlarda fermentlarning faolligi pasayadi, -60°C dan keyin butunlay to'xtaydi.

Fermentlar faolligiga muhit pHning ta'siri.

Fermentlar muhit pHning o'zgarishiga juda ham sezgirdir, ya'ni har bir ferment muhit pHning ma'lum qiymatida maksimal faollikkha ega bo'ladi. Bu qiymat pH optimumumi deb

ataladi. Ko'p fermentlar neytral sharoitda yuqori darajada faol bo'ladi. Fermentlarning faolligi pH qiymatiga qarab keskin o'zgarib turadi. pHning optimal qiymati turli fermentlar uchun bir xil emas.

Fermentlar faolligiga muhit pHning ta'siri


| Ferment | pH | Ferment | pH |
|----------------------------------|-----------|------------------|------------|
| Pepsin | 1,5 – 2,5 | Katalaza | 6,8 – 7,0 |
| Katepsin B | 4,5 – 5,0 | Ureaza | 7,0 – 7,2 |
| So'lak amilazasi | 6,8 – 7,0 | Pankretik lipaza | 7,0 – 8,5 |
| Ichak saxarozasi | 5,8 – 6,2 | Tripsin | 7,5 – 8,5 |
| Amilaza (undirilgan don shirasi) | 4,9 – 5,2 | Arginaza | 9,5 – 10,0 |

Masalan: pHning optimal qiymati pepsin uchun 1,5-2,0; so'lak amilazasi 6,8-7,0; tripsin 7,8 ga teng. pH muhitning o'zgarishi ferment faoliyatini pasayishiga yoki butunlay to'xtashiga olib keladi. Natijada fermentning faol markaz strukturasi buziladi.

Fermentlarning aktivatorlari va ingibitorlari.

Fermentlarning faolligiga harorat va pHdan tashqari, reaktsion muhitda ishtirok etayotgan bir qator kimyoviy moddalar ham ta'sir ko'rsatadi. Reaktsion muhitda ba'zi bir ionlarning ishtirok etishi ferment - substrat kompleksi hosil bo'lishini tezlashtiradi. Buning natijasida fermentativ reaksiyaning faolligi ortadi. Bunday moddalar aktivatorlar deb ataladi. Fermentativ reaksiyalarni katalizlovchi modda reaksiyada bevosita ishtirok etmaydi. Odatda, aktivator bilan ferment o'rtaida qandaydir bo'sh kimyoviy bog'lar hosil bo'lishi mumkin. Aktivatorlik vazifasini ko'pincha kationlar bajaradi. Spetsifik aktivatorlarga, Na^+ , K^+ , Mg^{2+} , Ca^{++} , Zn^{++} kabi metall kationlari kiradi. Masalan, lipaza fermentining faolligi Ca^{++} yordamida oshirilsa, adenozintrifosfataza fermentining faolligi to'liq namoyon bo'lishi uchun bir vaqtning o'zida K^+ , Na^+ , Mg^{++} , Ca^{++} kationlari bo'lishi mumkin.

Fermentativ reaksiyalarning faolligini pasaytiruvchi moddalar **ingibitorlar** deyiladi. Fermentativ reaksiyalarning faolligini pasaytirish ikki xil: konkurent (raqobatli) va nokkonkurent (raqobatsiz) yo'l bilan amalga oshiriladi. Ferment faolligini raqobatli pasaytirishda reaksiya sur'atini pasaytiruvchi modda (ingibitor) substrat raqibi hisoblanadi va u ferment substratni biriktirib oladigan joyga, ya'ni fermentning faol markaziga birikib oladi. Ingibitor tuzilishi jihatdagina raqobatli pasaytirish amalga oshiriladi.




Raqobatli ingibitorlarning ta'siri.

E-ferment; S-substrat; R_1 va R_2 reaksiya mahsulotlari; I-ingibitor.

Demak, ingibitor faqt fermentning faol markazi uchun substrat bilan raqobatlashadi. Ferment faolligini raqobatli pasaytirish qaytar xarakaterda bo'lib, substratning miqdori ko'p

bo'lganda ferment - ingibitor kompleksidan ingibitorni siqib chiqarishi mumkin. Fermentativ reaksiyalar faolligini raqobatli pasaytirishga malonat kislotani misol qilib ko'rsatish mumkin. Bunda reaksiya quyidagicha boradi:




Malonat kislota suksinat kislotaning gomologi bo'lib, undan faqat bitta metil guruhi bilan farq qiladi, bu guruh oksidlanish xususiyatiga ega emas. Agar reaktsion muhitga ko'p miqdorda malonat kislota qo'shilsa, reaksiya butunlay to'xtaydi. Agar Shu reaksiyaga ko'p miqdor miqdorda substrat (suksinat kislota) qo'shilsa, reaksiya yana davom etadi.


Raqobatsiz ingibitorlar fermentlarning faol markaziga (ya`ni substrat birikadigan joyga) birikmayli. Shuning uchun fermentning faolliigini pasaytirish darajasi substrat konsentratsiyasiga bog'liq bo'lmaydi. Raqobatsiz ingibitorlar fermentativ reaksiyalar uchun zarur bo'lgan faol guruhlarning substratga nisbatan tutgan o'rnni buzadi va oqsil molekulasini deformatsiyaga uchratish yo'li bilan fermentativ faollikni pasaytiradi.

Fermentlarning spetsifikligi. Fermentlar tirik organizmlarda boradigan biokimyoiy reaksiyalarni katalizlaydi, ya`ni ularning biokimyoiy faoliyatini boshqarib turadi. Fermentlar anorganik katalizatorlardan farq qilib, spetsifik ta`sir qilish xususiyatiga ega. Bu spetsifiklik xususiyati tirik organizmlarga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi, ya`ni ferment substratga kalit qulfga tushganday mos kelishi zarur. Hozirgi vaqtda fermentlar spetsifikligining quyidagi asosiy turlari bor.

Absolyut spetsifiklik. Agar ferment faqat bitta substratning parchalanish yoki hosil bo'lish reaksiyasini katalizlasa, bunda u absolyut spetsifiklikka ega bo'ladi. Masalan: ureaza fermenti bitta moddaning -karbamidning karbonat angidrid va ammiakkacha parchalanish reaksiyasini katalizlaydi. Ureaza hatto mochevina hosilalariga ham ta`sir ko'rsatmaydi.



Absolyut guruhiy spetsifiklik. Bu xildagi fermentlarning mohiyati Shundan iboratki, ular bir-biriga o'xshash tuzilgan birikmalarga ta`sir etadi. Masalan: alkogoldegidrogenaza, asosan etil spirtiga ta`sir etadi, lekin tarmoqlanmagan zanjirli yuqori molekulyar boshqa spirtlarga ham ta`sir ko'rsatishi mumkin.



Nisbiy guruhiy spetsifiklik. Bunday spetsifiklikka ega bo'lgan fermentlar substrat strukturasiga befarq bo'lib, faqat ular tarkibidagi kimyoviy bog'lar xiliga qarab o'z

ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, pepsin, tripsin oqsil molekulasi dagi peptid bog`larni gidrolizlaydi:

Stereokimyoviy spetsifiklik. Bu xildagi spetsifiklikni faqat optik jihatdan faol bo'lgan moddalarda kuzatiladi. Moddalar almashinuvni jarayonlarida ishtirok etadigan ko'p tabiiy organik birikmalar optik jihatdan faol bo'ladi va organizmda biror-bir stereoizomer sifatida uchraydi. Agar reaksiyon muhit ikki xil izomerdan tashkil topgan aralashmadan iborat bo'lsa, stereokimyoviy spetsifiklikka ega bo'lgan ferment ta'sirida faqat substratning yarmi parchalanadi. Masalan: proteolitik fermentlar, odatda faqat L-shakldagi aminokislotalardan tashkil topgan peptidlarni parchalaydi. D-shakldagi aminokislotalarga esa ta'sir etmaydi. Shunga o'xshash, laktatdehidrogenaza fermenti ham L-laktat kislotaning oksidlanish reaksiyasini katalizlaydi, D-shakldagi kislotaga ta'sir etmaydi.

Shunday qilib, fermentlarning spetsifikligi ularning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Koferment, fermentlarning sinflanishi. Fermentlar aktivligining o'lcham birliklari. Ayrim tur kofermentlar vakillari.

Kofermentlar:- ko'pchillik fermentlarni aktivlashishi uchun zarur bo'lgan quyi molekulyar spetsifik birikmalar kiradi. Hozirgi vaqtida kimyoviy tarkibi va tuzilishi har xil 20 tadan ortiq modda topilgan bo'lib, ular fermentlarning prostetik gruppalarini yoki **kofermentlar** deb ataladi. Kofermentlar nisbatan kichik molekulyar massali organik moddalardan. Keyingi tekshirishlar natijasidan kelib chiqib, bir qancha kofermentlar tarkibiga **vitaminlar** kirishi aniqlandi. B₁, B₂, B₆, PP, C, biotin, pantotenat kislotasi, folat kislotasi, B₁₂, lipoat kislotasi va boshqalar kiradi. Lekin Yog'da eruvchi vitaminlarni kofermentlik hususiyati aniqlanmagan. Yuqorida keltirilgan biologik aktiv moddalar fermentlarni aktivligini oshiruvchi kofermentlardir.

Fermentlarning aktivligiga nihoyatda kuchli ta'sir qiluvchi ma'lum fizik va kimyoviy omillar bo'lib, ular fermentlarning aktivligini oshirsa – **aktivatorlar**. Organizmda boradigan ko'pchillik fermentativ reaksiyalarda metallarning ionlari (**K⁺, Na⁺, Mg⁺², Zn⁺², Cu⁺²**) va boshqalar aktivator vazifasini bajaradi. Ular, ferment-substrat yoki koferment-apoferment komplekslari hosil bo'lishini osonlashtiradi, natijada reaksiya tez sodir bo'ladi.

Fermentlarning aktivligini pasaytiruvchi kimyoviy va fizikaviy sharoitlar – **ingibratorlar** deyiladi. Ingibirlash 2 xil bo'lib: qaytar va qaytmas ko'rinishga ega (tashqi ta'sir). Ingibratorlar - bu elementlar yoki ma'lum moddalar bo'lib, fermentning katalitik funksiyasini susaytiruvchi oqsil qismini cho'kmaga tushirish natijasida aktivligini susaytiruvchi og'ir metall tuzlari yoki fermentning aktiv qismi bilan kimyoviy bog' hosil kilish hisobiga susaytiruvchi moddalar kirishi mumkin. Bularga og'ir metallarning ionlari (**Hg⁺², Pb⁺², Ag⁺, Cu⁺²**) va boshqalar ko'pchillik fermentlar uchun ingibratorlik vazifasini o'taydi. Lekin bu moddalarni past konsentratsiyasi aktivatorlik vazifasini o'taydi. Ingibratorlarni eng kuchlisi sianid ioni (**CN⁻**) hisoblanadi.

Fermentlar kimyoviy reaksiyalar tezligini oshiradi, shuning uchun anorganik katalizatorlarni eslatadi. Bu biokatalizatorlar anorganik katalizatorlardan farqi, fermentlar "yumshoq" sharoitda (past temperatura, normal bosim, ma'lum rN qiymatga ega bo'lgan muhit sharoitida) eng yuqori aktivlikka ega. Masalan temir ionlari vodorod peroksidni suv va kislorodgacha parchalaydi. Tarkibida temir tutuvchi katalaza fermenti esa bu substratni 10 milliard marta katta tezlikda parchalay oladi.

Biologik manbalardan ajratib olingan fermentlar alohida sharotida saqlanganda, uzoq vaqtgacha o'z aktivligini yo'qotmaydi. Ularning bu hususiyati meditsina, sanoat va xalq xo'jaligining turli sohalarida keng foydalanishga imkon beradi.

Fermentlarning aktivligining o'lchanm birligi. Fermentlarning kattaligi katallarda (kat) o'lchanadi. 1- katal bu shunday katalitik aktivlikki, u 1 sekundda 1 mol reaksiyani amalga oshiradi. Undan tashqari solishtirma katalitik aktivlik ko'rsatkichi bo'lib, bu kattalik eng asosiy ko'rsatkichlardan bo'lib, fermentning miqdorini ham hisobga oladi. Har bir katalitik fermentning kataldan o'lchangan aktivligini ko'rsatadi. (kat/kg) Fermentlar nomenklatura buyicha 4 ta raqam bilan kodlanadi. Raqamlarning birinchisi uning qaysi sinfga mansubligini ko'rsatadi. Keyingilari sinf tarkibidagi sinfchalarga ta'luqlidir.


Fermantlar aktivligiga tempiraturani ta'siri. - tempiratura ko'tarilishi bilan fermentlarning aktivligi ma'lum darajada ortadi. Lekin tempiratura 40°C dan oshganda ferment aktivligi pasayadi. Ba'zi fermentlar 60-80°C da aktivligini butunlay yo'qotadi. Lekin ayrim fermentlar yuqori tempiraturalarda ham aktivligini yo'qotmaydi. Ayrim fermentlar past tempiraturada ham, aktivligini ham yo'qotmaydi. Masalan katalaza fermenti uchun 0-10°C optimal tempiratura hisoblanadi.

Vodorod ionlari konsentratsiyasining ta'siri. - organizmdagi ko'pchillik fermentlar pH-7 atrofida yuqori aktivlikka ega bo'ladi. Muhitning kislotali yoki ishqorli tomonga o'zgarishi ular aktivligining pasayishiga olib keladi. Masalan, **alfa amilaza** fermenti kislotali muhitda o'z aktivligini yo'qotadi, **betta amilaza** fermenti 70°C tempiraturada o'z aktivligini yo'qotadi.


Kofermentlarning tuzilishi va klassifikatsiyasi

Kofermentlar ikki komponentli fermentlarning faol markazlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida aniqlangan 3000 ga yaqin fermentlardan 800 tasi o'zlarining katalitik funksiyalarini oqsil tabiatga ega bo'lмаган kofermentlar orqali amalga oshiradilar. Bunday fermentlar qatoriga ko'pchilik oksireduktazalar va transferazalar, barcha ligazalar, Shuningdek bir qator izomerazalar kiradi.



Kofermentlarning kimyoviy tabiati turlichadir. Kofermentlar kichik molekulyar massaga ega bo'lgan organik moddalardir. Kofermentlar turli xil funksiyalarini bajaradi. Masalan oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarida koferment sifatida lipoat kislota, glutation va temirporfirinlar, fosfolipidlarning biosintezida tsitidindifosfat-xolin va hakazo. Bundan tashqari ko'pgina vitaminlar kofermentlar funksiyasini bajaradi.



Kofermentlarning fermentativ reaksiyasidagi funksiyalari asosida quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Vodorod va elektron tashuvchi kofermentlar – bu guruhga oksidoreuktaza sinfiga ta`luqli fermentlar bilan bog`liq nikotinamidli kofermentlar, flavinli kofermentlar, lipoat kislotosi va glutaion kiradi;
2. Guruhlarni ko'chiruvchi kofermentlar – transferazalar sinfi bilan bog`liq bo'lgan adenozintrifosfat, uglevodlarning fosfatli efirlari, atsetillash (atsillash) kofermenti, tetrogidrofolat kislota hamda peridoksal kiradi;
3. Sintezlash, izomerlanish va δ – uglerod bog`larini uzuvchi kofermentlar – bu guruhga liazalar sinfiga oid fermentlar bilan bog`liq bo'lgan biotin va kobamidli kofermentlar va metalloporfinlar kiradi. Quyidagi jadvalda ayrim kofermentlar va ularning asosiy funksiyalari keltirilgan.

Ayrim kofermentlar va ularning funksiyalari.

| Nomi | Kataliz qilinadigan reaksiya turi | Ko'chirilidigan guruh |
|---|---|-----------------------|
| Nikotinamidadenin dinukleotid (NAD) | Oksidlanish -qaytarilish | H(elektronlar) |
| Nikotinamidadenin dinukleotid Fosfat (NADF) | Oksidlanish- qaytarilish | H(elektronlar) |
| Flavin-adenin dinukleotid (FAD) | Oksidlanish- qaytarilish | H(elektronlar) |
| Flavinmononukleotid (FMN) | Oksidlanish- qaytarilish | H(elektronlar) |
| Gem | Oksidlanish- qaytarilish | Elektronlar |
| Koferment A | Guruhlarni faollash va ko'chirish | Elektronlar |
| Lipoat kislota | Atsil guruhlarni ko'chirish | Elektronlar |
| Tiaminpirofosfat | Atsil guruhlarni ko'chirish | Elektronlar |
| Biotin | CO_2 ni bog'lash | CO_2 |
| Piridoksalfosfat | Aminokislotalarni pereaminlash va boshqa reaksiya | |
| Tetrogidrofolat kislota | Bir uglerodli fragmentlar metabolizmi | |

Ayrim tur kofermentlar vakillari,-

1. Nikatinamidli kofermentlar, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida keng ishtirok etuvchi kofermentlar. Bularning asosiy vakili NAD va NADF.

2. Flavinli kofermentlar, flavinmononukleotid-FMN va flavinadenindinukleotid-FAD hisoblanadi. Bular nafas olish zanjirida vodorod va elektron bilan ta'minlash.

3. Lipoat kislota,- bular o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarda keng tarqalgan bo'lib, asosiy vazifasi ketokislotalarning oksidlanishli dekarboksillanish reaksiyasini katalizlashdan iborat.

4. Glutation,- keng tarqalgan tabiiy peptidlardan hisoblanadi. Bunda sisteining sulfigidril (SH) gruppasi katalitik gruppera rolini o'taydi. U oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini katalizlaydi.

5. Koferment A, (KoA) moddalar almashinuvida keng miqyosda ishtirok etadigan kofermentlardan hisoblanadi.

6. Vitaminli kofermentlar, - ya'ni fermentlarga ba'zi bir vitaminlarning birikib, shu fermentning katalitik aktivligini oshishiga xizmat qiladi.

Fermentlarning klassifikasiyasi. Fermentlar tirik organizmlarning hamma hujayralari va to'qimalarning tarkibiga kirib, ularda boradigan har qanday kimyoviy reaksiyalar fermentlar yordamida katalizlanadi. Tirik organizmlarning faoliyati fermentlarga bog`liqdir.

Hozirgi vaqtdan 3000 dan ortiq xilma-xil individual fermentlar bo'lib, ularning soni tobora ortib bormoqda.

1961 yili Halqaro biokimyo ittifoqi tomonidan tuzilgan komissiya fermentlar klassifikatsiyasi va nomenklaturasini ishlab chiqqan. Fermentlarning bir-biridan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlaridan biri ular kataliz qiladigan kimyoviy reaksiyalardir. Shu sababli, komissiya taklif qilgan klassifikatsiyaga fermentning xuddi ana Shu xususiyati asos qilib olingan.

Klassifikatsiyada fermentlar kataliz qiluvchi reaksiyalar turiga qarab sinflarga bo'linadi. Har bir ferment o'z nomiga ega bo'lib, bu nom substratning nomini hamda reaksiyaning turini aniqlovchi va «aza» qo'shimchasiga ega bo'lган so'zdan iborat. Yangi klassifikatsiyada sistematik nomlar bilan bir qatorda ishchi (trivial) nomlar ham saqlanib qolgan. Masalan, karboamid amidogidrolaza fermentining ishchi nomi ureazadir.

Komissiya fermentlar klassifikatsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lган nomeratsiya sistemasini ishlab chiqdi. Bu nomeratsiyaga ko'ra, har bir ferment to'rtta sondan iborat bo'lган shifrga ega.

Shifrdagi birinchi son fermentlar asosiy sinflardan qaysi biriga taalluqli ekanligini bildiradi. Klassifikatsiyaga muvofiq, fermentlarning quyidagi 6 ta asosiy sinfga bo'linadi:

Oksidoreduktazalar - oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar.

Transferazalar – tashuvchi (molekulalar ichida va molekulalararo ko'chishni katalizlovchi) fermentlar

Gidrolazalar – suv ishtirokida organik birikmalarning parchalanish reaksiyasini tezlashtiruvchi fermentlar.

Ligazalar (sintetaza) – ikki molekula ATF ishtirokida uch pirofosfat bogining uzilishi hisobiga birikishini ta'minlovchi fermentlar.

Liazalar – nogidrolitik ravishda moddaning parchalanishini ta'minlovchi fermentlar.

Izomerazalar – izomerlanish reaksiyalarini ta'minlovchi fermentlar. Ular molekulalar orasidagi ko'chish, oksidlanish - qaytarilish, komyoviy boglanishni qayta taqsimlanishi hisobiga, komyoviy birikmalarining fazoviy izomerlanish reaksiyalarini katalizlovchi ferment.

Har bir sinf tarkibiga «sinfchalar» kiradi. Bu narsa fermentlarning tanlovchanligi bilan belgilangan. Masalan, gidrolazalar sinfiga kiruvchi peptidazalar kelib chiqadi. Oqsil peptidlarga gidrolizlaydi. Peptidazalar oqsilni aminokislotalargacha parchalaydi.


Har bir asosiy sinf o'z navbatida bir necha kichik sinfga bo'linadi. SHifrdagi ikkinchi son ana Shu kichik sinflarni ifodalaydi. Bu kichik sinf oksidoreduktazalarning donorlardagi oksidlanuvchi guruhni (2-aldegid yoki keton guruh va hokazo); transferazalarda esa ko'chiriluvchi guruhni; gidrolazalarda gidrolizga uchragan bog'lar turini ifodalaydi. Har bir kichik sinf o'z navbatida yanada kichikroq sinflarga bo'linadi.

Shifrdagi uchinchi son ana shu kichik sinflarning sinfchalarini bildiradi. Bu sinfchalar oksidoreduktazalarda reaksiyada ishtirok etuvchi aktseptorning turini ifodalaydi. Shifrdagi 3 ta son fermentning qaysi turga mansubligini ko'rsatadi. Masalan, 1,2-3-donori aldegid yoki keton bo'lgan va aktseptori molekulyar kislorod bo'lgan oksidoreduktaza ekanligini bildiradi.

Shifrdagi to'rtinchi son sinfchalardagi fermentlarning tartib raqamini ifodalaydi. Masalan, ureaza fermentining shifri 3.5.1.5. Shunday qilib, shifr fermentning ro'yxatdagi o'rnnini ifodalaydi.


Oksidoreduktazalar. Bu sinfga hujayralardagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini katalizlaydigan fermentlar kiradi.

Oksidlanish reaksiyalari substratdan (donordan) vodorod atomlari yoki elektronlarni ajratish bilan, qaytarilish reaksiyalari vodorod atomlarini (elektronlarni) aktseptorga biriktirish bilan boradi. Donorni A harfi bilan, aktseptorni B harfi bilan ifodalansa, oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:




Oksidoreduktazalarga degidrogenazalar, oksidazalar, sitoxrom - reduktazalar va peroksidazalar kiradi. Ular tarkibidagi spetsifik kofermentlar va prostetik guruhlar bilan bir-biridan farq qiladi. Oksidoreduktazalar ikki guruhga bo'linadi.

a) aerobli degidrogenazalar: ular vodorod atomlari yoki elektronlarni bevosita kislorod atomiga uzatadi.



Bularga oksidazalar kiradi.


b) anaerobli degidrogenazalar: ular vodorod atomlarini yoki elektronlarni molekulyar kislorodga uzatmay, balki boshqa oraliq aktseptorlarga beradi. Tarkibidagi kofermentlar saqlashiga ko'ra, nikotinamidli va flavinli degidrogenazalar bo'lish mumkin.



Transferazalar. Transferazalar ma'lum atomlar guruhining bir birikmadan ikkinchi birikmaga ko'chishini katalizlaydi.


Ular bir necha guruhga bo'linadi. Masalan, aminotransferezalar - amin guruhlarni bir birikmadan ikkinchi birikmaga ko'chirishni katalizlaydi.

Ularning kofermenti vitamin B₆ ning hosilasidir.



Shuningdek, metiltransferazalar metil guruhlarini (-CH₃) ko'chiradi; kreatinkinaza kreatinfosfat hosil bo'lishini katalizlaydi, geksokinaza geksoza molekulasiga fosfat guruhini ko'chirishni katalizlaydi.

Gidrolazalar. Bu sind fermentlari murakkab organik birikmalarning molekulalari ichidagi bog'larni suv ishtirokida uzib gidrolizlaydi. Ular quyidagi umumiyo ko'rinishga ega bo'lган reaksiyalarni katalizlaydi:



Gidrolaza bir necha guruhlarga bo'linadi: esterazalar, glikozidazalar, peptidazalar, polifosfatazalar.

Esterazalar - efir bog`larini gidrolizlaydi:




Glikozidazalar - glikozid bog`larni gidrolizlaydi.

Peptidazalar - peptid bog`larni gidrolizlaydi.



Polifosfatazalar - fosfoangidrid bog`larni gidrolizlaydi.

Liazalar-Substratdan suv ishtirokisiz ma'lum guruhlarning ajralishini katalizlaydi. Bu fermentlarning faoliyati tufayli qo'sh bog`lar hosil bo'ladi yoki ma'lum guruhlardagi qo'sh bog`lar uzeladi. Bu fermentlarga aldolazalar, dekarboksilazalar kiradi.

Dekarboksilazalar dekarboksillanish reaksiyalarini katalizlaydi. Aminokislotalarning dekarboksillanishi natijasida karbonat angidrid va tegishli aminlar hosil bo'ladi, buni quyidagicha ifodalash mumkin:




Ketokislotalarning dekarboksillanish reaksiyasi natijasida tegishli aldegid yoki ketonlar hosil bo'ladi.



Izomerazalar. Bu sinfga kiradigan fermentlar har xil organik birikmalarning izomerlanish reaksiyalarini katalizlaydi. Reaksiya natijasida vodorod, fosfat, atsil va boshqa atom guruhlari molekulalararo o'rinni almashadi. Reaksiyaning tipiga qarab quyidagi sinfchalarga bo'linadi. Masalan: mutazalar, tatomerazalar, ratsemazalar, epimerazalar, izomerazalar va hokazolar.

Ligazalar (sintetazalar). Adenozintrifosfat va nukleozidtrifosatlarning parchalanish energiyasi hisobiga sintez reaksiyalarini ligaza fermentlari katalizlaydi. Bu sinfga misol qilib atsil - K₀A - sintetaza, piruvatkarboksilaza va boshqalarni olish mumkin.

Atsil - K₀A - sintetaza atsetat kislotaning faol holdagi atsetil - K₀A ga aylanishini katalizlaydi:



Fermentlarning hujayrada joylashishi. Fermentlar barcha ho'jayralarda, biologik suyuqliklar (o'simliklar shiralari, oshqozon-ichak shiralari, qon, limfa, orqa miya suyuqligi, siydirik va boshqalar)da doimo mavjud. Fermentlar tirik organizmda va hujayrada baravar miqdorda tarqalmagan. Masalan, pepsin oshqozonda, tripsin va lipaza o'n ikki barmoq ichak shirasida ko'p miqdorda uchraydi. Amilaza oshqozon osti bezi shirasidan tashqari so'lakda, kam miqdorda qonda, jigarda, muskullarda, unib chiqayotgan donlarda ko'p miqdorda bo'ladi. Hujayradagi fermentlar ma'lum struktura asosida, ya'ni membranalarda bog`langan holda uchraydi.

Barcha hujayralar uchun umumiyligi bo'lgan jarayonlarda ishtirok etadigan fermentlarni har xil hujayralarda uchratish mumkin. Ammo ixtisoslashgan hujayralarda faqat Shu hujayralarning funksiyasi bilan bog`liq bo'lgan fermentlar uchraydi. Hujayralarning har bir struktura komponentida uning funksiyasi bilan bog`liq bo'lgan ayrim fermentlar yoki fermentlar sistemasi mujassamlashgan bo'ladi. Masalan, mitoxondriylarda, asosan, energiyaga boy bo'lgan birikmalarni hosil qilish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar, ya'ni Krebs sikli, elektronlarning ko'chishi va ATP hosil bo'lishi bilan bog`liq bo'lgan fermentlar joylashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo`stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Struktires and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

Mavzu-7. Oqsillarning sifat korsatkichlari

REJA:

1. Oqsillar va ularning sifati
2. Oziq-ovqat maxsulotlari tarkibidagi oqsillar
3. O'simliklar maxsulotlari tarkibidagi oqsillar.
4. Hayvon maxsulotlari tarkibidagi oqsillar

Ma'ruza bo'yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so'z va iboralar:

Oqsil, ferment, biologic qiymat, kunlik meyor, enzimologiya, kataliz, gomegen, geteregen, funksiya, klassifikatsiya, spetsifik, koofermentlar

Oqsillar inson oziqlanishida muxim o'rinni egallaydi. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti va federal agrosanoat uyushmasi tavsiyasiga ko'ra insonni 1 kunda oqsilga bo'lgan talabi 60-100 g ni tashkil etadi. Yoki oziq-ovqat mahsulotini umumiyl kalloriyasini 12-15% tashkil etishi kerak.Umumiy energiyani 6-8% xayvon va o'simlik oqsiliga to'g'ri kelishi kerak. Insonni 1 kg vazniga 1 gramm, bolalarni yoshiga qarab 1grammdan 4 grammgacha talab qilinadi. Katta yoshli erkaklar uchun 73-120 gramm, ayollar uchun 60-90 gramm, jumladan xayvon oqsili 43-65 g erkaklar uchun va 43-49 gramm ayollar uchun. Og'ir infektsion va jarroxlik kasalini, nafas olish, hazm qilish organlari kasallangan insonlar uchun oqsilga bo'lgan talab 1 kunda 110-120 g, qand diabeti bilan kasallanganlar uchun 135-140 g, buyrak xastaliklar uchun esa 20-40 g tashkil etadi.

Xozirgi kunda xar bir inson kuniga meyordagi 70 g xayvon oqsilini o'rniiga 60 g iste'mol qilyapti. Yer yuzida oqsilga bo'lgan tanqislik 10-25 mln.tonnani tashkil etadi. Yer yuzidagi 6 mlrd. aholini yarmisi oqsil tanqisligini boshidankechiryapti. Oqsil tanqisligi oziqlanishni katta muammosi xisoblanadi. Oqsil tanqisligi xar xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunday kasalliklardan biri kvashiorkor kasalligidir. Insonlarda kvashiorkor qisman yoki to'lik och qolganda yoki to'laqonsiz oqsil mahsulotlari iste'mol qilganda rivojlanadi. Kasallik oshqazon ichak funktsiyasini bo'zilishi bilan ko'zatiladi. Chunki oshqazon bezi kerakli miqdorda fermentlarni sintez qilishi sekinlashadi va xo'jayra shilimshiq qatlami yangilanmaydi. Organizmda azot balansi, suv-tuz balansi buziladi va organizmni rivojlanishi to'xtaydi. Agar, o'rni qoplanmaydigan aminokislotalar 8 ta (fenilalanin, triptofan, leytsin, valin, izoleytsin, lizin, metionin, treonin), qisman o'rni qoplanadiganlarga 2 ta (argini, gistidin) va to'liq o'rni qoplanadigan aminokislotalar 10 ta. Arginin va gistidin yosh o'sayotgan organizmlar uchun zarur. Organizmda bironta o'rni qoplanmaydigan aminokislota yetishmasa azotli balans buziladi, markaziy nerv sistemani faoliyati shikaslanadi, rivojlanish to'xtaydi avitaminoz kasalligiga olib keladi. Bitta ta o'rni

qoplanmaydigan aminokislotalarni yetishmasligi boshqa aminokislotalarni to'lik o'zlashtirilishini kamaytiradi. Organizmni faoliyatida o'rni qoplanmaydigan aminokislotalarga bog'liqliginin aniqlash uchun oqsillarni biologik qiymati kimyoviy usul bilan belgilanadi. Oqsillarning bir nechta tasnifi mavjud. Ular turli prinsiplarga asoslangan: murakkablik darajasiga qarab (oddiy va murakkab); molekulalar shakliga qarab (globulyar va fibrillyar oqsillar); alohida erituvchilarda erishiga- qarab (suvda eruvchi, kuchsiz tuzli eritmalarida eruvchi - albuminlar, spirtda eruvchi - prolaminlar, ishqorda eruvchi - glyutelinlar), ular tomonidan bajariladigan vazifaga qarab, masalan, zahira oqsillar, skeletni hosil qiluvchi oqsillar va boshqalar. Oqsillarni biologik qiymati aminokislota tarkibidan tashqari ularni hazm bo'lish darajasi bilan ham belgilanadi. Hazm bo'lish darajasi fermentlarni faolligiga, osh qazon ichagida gidrolizlanish darajasiga, mahsulotni tayyorlash jarayoniga bog'liq. Teri oqsili va soch keratinifibrillyar strukturali bo'lgani uchun inson o'zlashtirmaydi. Oqsillarga issiqlik bilan ishlov berish, qaynatish, maydalash hazm bo'lishni tezlashtiradi, yuqori xaroratda qizdirish (100 S yuqori) esa kamaytiradi. Molekulalarning shakliga qarab tasniflash oldingi mavzuda ko'rib chiqilgan, murakkablik darajasiga qarab tasniflash haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Bu prinsip bo'yicha oqsillar proteinlarga (oddiy oqsillar) va proteidlarga (murakkab oqsillar) bo'linadi. Proteinlar faqat aminokislotalarning qoldig'idan tashkil topadi, proteidlar esa ham oqsil qismdan (apooqsil) va oqsil bo'lмаган qismdan (prostetik

guruh) tashkil topadi. Proteinlar - zahira, skelet, alohida ferment oqsillaridir. Alohida erituvchilarda erishiga qarab asosiylarini ajratib o'tamiz: - a l b u m i n l a r - molekulyar massasi nisbatan katta bo'lмаган, suvda va kuchsiz tuzli eritmalarida yaxshi eriydigan oqsillar; albuminlarning tipik vakili - tuxum oqsili - ovalbumin; - g l o b u l i n l a r - tuzlarning tuzli eritmalarida eriydi. Ular juda keng tarqalgan oqsillardir, mushak to'qimalari, qon, sut tarkibiga kiradi, ular dukkanakli va yog'li o'simliklar urug'larining katta qismini tashkil qiladi. Hayvon globulinining vakili bo'lib sut laktog'lobulini hisoblanadi; - p r o l a m i n l a r - etil spirtining 60-80% li eritmalarida eriydi. Ular boshoqli donlarning oqsillaridir, masalan: gliadin - bug'doy va javdar oqsili, zeinmakkajo'xori oqsili, avenin - suli oqsili, gordein - arpa oqsili hisoblanadi; -g l y u t e n i n n i va bug'doy kleykovinasi oqsili - glyuteninni ajratib ko'rsatsa bo'ladi. Proteidlar- murakkab oqsillarning bu guruhidan faqat quyidagilarni ko'rib chiqamiz: - nukleoproteidlar - tarkibiga oqsildan tashqari nuklein kislotalar ham kiradi. Nuklein kislotalar muhim biopolimerlar hisoblanadi, ular irsiyatda katta rol o'ynaydi; - lipoproteidlar - oqsildan tashqari lipidlarni saqlaydi. Membrana va protoplazmalarda saqlanadilar. Kleykovina oqsilarini shakllanishida qatnashadi; - fosfoproteidlar - oqsildan tashqari fosfor kislota ham bor. Ular yosh organizmni oziqlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, kazein - sut oqsili. Takrorlash uchun savollar 1. Insoniyatni oziqlanishida oqsillarni ahamiyati? 2. Elastik-egiluvchanlik xossasi? 3. Proteinlar? 4. Proteidlar? 5. Oqsillarni funktsional xossalarni boshqarish?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'raqulov Yo, T. "Биохимия".
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo`stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Struktires and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

MAVZU-8. Oqsillarning biologic xususiyatlari

REJA:

- 1.Oqsillar tirik organizmlarning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ular barcha o'simlik va hayvon hujayralarining protoplazmalari va yadrolari tarkibiga kiradi.
- 2.Oqsillar tirik materianing muhim funksiyalari va harakterli tomonlarini boshqaradi.

Ma'ruza bo'yicha nazorat ishlari uchun «tayanch» so'z va iboralar:

Oqsil, aminokislota, azot, organism, bokimyo, oqsillar muhandislik Rekombinlar fizik metod

Oqsiliarning biologik xususiyatlari (ferment, gormon, antitela, antigen va boshqalar) uiarning ikkilamehi va uchlamachi strukturalariga lo'g'liq bo'lib, uia r n a tiv konform atsiyasi deb ataladi. Oqsii molekulasing uchlamachi strukturasi funksionai konformatsiyani saqlaydi, uni akad. V.A. Engelgard intramolekulyar axborot deb nomlagan.Oqsillaming tirik tabiatdagi muhim ahamiyatini hisobga olib, shuningdek, oqsillaming tirik organizm massasining yannini tashkil etishi va qator ajoyib xususiyatlarga ega bo'lishi, oqsil strukturasi va funktsiyasini tushunish, biologiya va tibbiyot uchun muammolami yechishda asos bo'lishi, tibbiyot institutlarida biokimyo kursini o'rganishni- shu sinf, organik moddalardan boshlashni taqozo etadi.


Tirik organizmiar uchun xos bo'lgan turli-tuman va juda ko'p funksiyalam i oqsillar bajaradi, biz ularning ba'zilari bilan kursni o'rganish davomida tanishamiz.

Shved kimyog'ari I.Ya.Berselius 1938-yilda azot saqllovchi organik birikm alarni o'simlik va hayvon to'qim alaridan ajratib olib, uni proteinlar deb nomlagao (grekcha protos - birlam chi, muhim demakdir).

Hozirgi tibbiyot adabiyotlarida azot saqllovchi yuqori molekulali birikm alarni oqsillar deyiladi. Oqsil termini - tuxum oq silin i qizdirilganda oq rang hosil bo'lishiga asoslangan. Oqsillar har qanday tirik organizm to'qimasining asosiy qismi hisoblanib, to'qim ada bo'ladijan turli jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Oqsillar tirik organizmiar ham strukturasi, ham funksiyasining assosini tashkil etadi. Molekulyar biologiya asoschilaridan bo'lgan F.Krikning ta'biri bo'yicha, oqsillar juda muhim moddalar bo'lib, turli funksiyalami juda yengil va nozik bajarishlari mumkin. Tabiatda taxminan 1010-1012 turli oqsillar bo'lib, 106 turli tirik organizm iar, viruslardan b o sh lab

odamgacha, faoliyatini ta'minlab beradi. Bugungi kunda, ko'p sondagi tabiiy oqsiliardan juda kam qismining tuzilishi va strukturasi animdir. Har bir organizm o'ziga xos oqsillar to'plam i bilan xarakterlanadi. Fenotipik belgilari va funksiyalamining turli-tumanligi bu oqsillaming spetsifikligi, ko'pchilik holda multimolekulyar strukturaga ega bolishi bilan belgilanadi.

Nopdyar R-qrushlar



Oqsiilarni hayvonlar to‘qimasidan, makroorganizmlardan maxsus usullar yordamida ajratib olinadi. 1. Oqsiilarni ajratib olishda gomogenizatsiya usuli.

Oqsiilarni hayvonlar to‘qimasidan, makroorganizmlardan ajratib olish uchun av v alo to‘qim a!ar yaxshilab m aydalaniadi, y a ’ni gomogenizatsiyalanadi. Bunda hujayra strukturasi buziladi oqsillar eritmaga o‘tadi. Gomogenizatsiya qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniadi:

1. Chinni hovonchada to‘qimani qum bilan ezish (maydalash).
2. Potter-Elvegay gomogenizatorida maydalash.
3. Sharsimon tegirmonchalarda maydalash.
4. Kuchli ravishda muzlatib, keyin eritish yo‘li.
5. Ultratovush ta’sirida maydalash.
6. Bosim ta’sirida (muzlatilgan to‘qimani mayda teshikli po‘lat to‘rdan o‘fkazish).
7. Azot gazi yordamida (azot gazini bosim ostida to‘yinfiriladi keyin keskin bosim pasaytiriladi. N atijada azot hujayrani oson parchalab oqsilni eritmaga o‘tkazadi). Yuqoridagi usullar bilan hosil qilingan gomogenatdan oqsiUarni ajratib olish uchun ekstraksiya usulidan foydalaniadi. O lingan g o m o g en atn i 8-10% li tuz e ritm a sid a eritila d i. O q s illa m i ekstratsiyalash uchun ko‘pincha m a’lum pHga ega b o ig an bufer eritm alardan, organik erituvchilardan va ionsiz detergentlardan foydalaniadi. Bu maqsadda organik moddalardan ko‘pdan beri ishlatib kelinadigan eritmalar - glitserining suvdagi eritmasi. saxaroza eritm asi, lim on kislota va b o ra t bufer aralashm alar, tris-b u fe r eritmalardan foydalaniadi.


Qon zardobi oqsilini ajratish uchun etil spiriti, atseton, butil spiriti ta’sirida cho‘ktiriladi. Gomogenatdan toza holda oqsillami olish uchun har xil detergentlar ishlatiladi. U lar oqsil-yog‘ kompleksini va oqsil- oqsil b o g ‘larini yaxshi p a rc h a la y d i. O qsillam i (ferm en tlarn i) tozanashaa m iioxondriya bio m em b ran asi bilan yoki h u ja y ra organoidlari bilan mustahkam birikadigan modda triton X -100, natriy dodetsilsulfat va natriy dezoksixolat ishlatiladi. Bu detergentlar oqsil- oqsil komplekslarini p arch alay d i v a oqsillarning to‘rla m c h i strukturasini buzadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To’raqulov Yo, T. “Биохимия”.
- 2 Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo`stoni. 2014. -224 b.
3. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Struktires and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
4. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey & Sons Ins., 1999

OQSILLAR MUHANDISLIGI

fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun
USLUBIY KO'RSATMALAR



Amaliymashg‘ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

«Oqsillar muxandisligi» fani bo'yicha amaliy mashg‘ulotlari reaktivlar va zarur jihozlar bilan ta'minlangan laboratoriya xonasida o'qituvchi nazorati ostida o'tkaziladi. Amaliy ishining nazariy va amaliy ma'lumotlarini to'la o'zlashtirgan talabalargagina tajriba o'tkazish ruxsat etiladi. Mashg‘ulotning nazariy va amaliy qismlari hamda o'tkazilgan tajriba natijalari laboratoriya daftariga qayd etiladi va olingan hulosalar keltirilib, o'qituvchi tomonidan reyting tizimi asosida baholanadi.

Amaliymashg‘ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi

- 1.Oqsil molekulasining aminokislota tarkibini aniqlash usullari.
2. Biologik materiallardan oqsil va peptidlarni toza holda ajratib olish usullari.
3. Oqsil va peptidlarning aminokislota ketme ketligini aniqlash usullari.
4. Oqsillarga hos sifat reaksiyalar.
5. Oqsil va peptidlarni tozalik darajasini tahlil qilish yollari.
6. Zamonaviy spektrofotometrik usullar yordamida oqsil va peptidlarni tuzilishini organish usullari.
- 7.Fermentlar, gormonlar va boshqa biologik faol oqsillarni funksiyalarini shrganish usullari.


1-AMALIY MASHG'ULOT
OQSIL MOLEKULASINING AMINOKISLOTA TARKIBINI ANIQLASH
USULLARI

**α -AMINOKISLOTLARGA O'TKAZILADIGAN NINGIDRIN
REAKSIYASI**

Ushbu reaksiya aminokislarning α -holatida turgan aminoguruhlariga xosdir.

Reaksiyaning asoslanishi. Ningidrin ta'sirida oksidlangan α -aminokislota dezaminlanadi, dekarboksillanadi. Natijada CO_2 , ammiak, aldegid hosil bo'ladi. Oksidlangan ningidrin qaytarilgan ningidrinning ikkinchi molekulasi bilan ammiak ishtirokida birikib binafsha-ko'k rangli kondensatsiyalangan mahsulotni hosil qiladi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: 0,1% li ningidrinning spirtli eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, pipetkalar, spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. Probirkadagi 4-5 tomchi oqsil eritmasiga 3-4 tomchi ningidrin eritmasidan solib, 1-2 daqqa qizdiriladi. Ko'kintir-binafsha yoki binafsha rang hosil bo'ladi.


2-AMALIY MASHG'ULOT

SIKLIK AMINOKISLOTALARGA O'TKAZILADIGAN KSANTOPROTEIN REAKSIYASI

Ushbu reaksiya oqsil eritmasida siklik aminokislolar, fenilalanin, tirozin, gistidin va tpirtofan borligini isbotlaydi.

Reaksiyaning asoslanishi. Oqsil eritmasiga konsentrangan nitrat kislota qo'shilganda benzol xalqanining nitrallanishi natijasida sariq rang hosil bo'ladi. Eritmaga ishqor qo'shilganda esa, u sarg'ish-pushti rangga o'tadi (sariq rangli nitrobirkma hosil bo'ladi).

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material. Oqsil eritmasi.

Reaktivlar: konsentrangan nitrat kislota, natriy gidroksidning 20% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar, spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. 4-5 tomchi oqsil eritmasiga 1-2 tomchi konsentrangan nitrat kilota solib, ehtiyyotkorlik bilan qizdiriladi. Suyuqlik dinitrotirozin hosil bo'lganligi sababli sariq tusga kiradi. Eritma ustiga 2-3 tomchi natriy gidroksid eritmasidan solinganda sarg'ish-pushti rang hosil bo'lgani kuzatiladi, chunki dinitrotirozinning natriyli tuzi hosil bo'ladi.

3-АМАЛИЙ МАШГУЛОТ

OQSIL GIDROLIZATI – AMINOKISLOTALAR ARALASHMASINI XROMATOGRAFIYA USULI BILAN AJRATISH

Gidrolizat tarkibidagi aminokislolar aralashmasini ajratish va ayrim aminokislolarlarning sifat va miqdorini aniqlashda qog'ozda o'tkaziladigan taqsimlovchi xromatografiya usuli keng qo'llaniladi. Bu usul M.C.Цвет ning 1903 yilda taklif qilgan xromatografiya analizining o'zgartirilgan ko'rinishidir.

Aminokislolarlarni ajratish ularni ikkita aralashmaydigan eritmada (biri suv, ikkinchisi suv bilan to'yintirilgan organik eritma) erish xususiyatini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtida xromatografiya usulining quyidagi xillari mavjud: adsorbsion usul aminokislolarlarning turli adsorbentlarda adsorbsiyalanishiga bog'liq; ion almashtiruvchi xromatografiya usuli aminokislolarlarning zaryadiga qarab kationit yoki anionitlardan foydalaniлади. Afin

xromatografiya – xususiy bog‘lanish holatiga ega bo‘lgan fermentlar, immunoglobulinlar, retseptor va gormonlardan foydalanim tegishli birikmalar ajratiladi.

Aminokislotalar aralashmasini qog‘oz xromatografiya usuli bilan ajratish. Ushbu usul mahsus tayyorlangan xromatografiya – filtr qog‘ozida o‘tkaziladi. Namlangan kameraga joylashtirilgan xromatografiya qog‘ozi 20-22% suvni ushlab qolish xususiyatiga ega. Demak, suv harakatlanmaydigan faza, chunki u qog‘ozga shamilgan, harakatlanuvchi faza sifatida organik erituvchilardan foydalaniлади. Ularga suv bilan to‘yintirilgan izopropil, izobutil, butil spirlari, fenol va boshqalar kiradi. Xromatografiya qog‘oziga bir tochi aminokislota aralashmasidan tomiziladi, qog‘ozning ikkinchi uchi tegishli organik erituvchiga tushiriladi. Erituvchi qog‘oz bo‘lakchasi bo‘ylab shimila boshlaydi va erigan aminokislotani o‘zi bilan birga yo‘naltiradi. Aminokislottarning qog‘oz bo‘lakchasiдagi harakatlanish tezligi uning eruvchanligiga bog‘liq. Aminokislota suvda qancha yaxshi erisa, organik erituvchida shuncha yomon eriydi va organik erituvchiga nisbatan harakatlanish tezligi sust bo‘ladi. Shu yo‘l bilan aminokislotalar turli masofada taqsimlanadi.

Aminokislotalarni xromatografiya qog‘ozida harakatlanishiga qarab; yuqoriga, pastga va doira bo‘ylab harakatlanuvchi xromatografiya turlari tafovut qilinadi.

Aminokislotalarning xromatografiya qog‘ozida taqsimlanish masofalari α -aminokislotalar uchun o‘tkaziladigan ningidrin reaksiyasi yordaida aniqlanadi. Aralashmadagi muayyan aminokislotani aniqlash uchun xromatografiya qog‘oziga guvoh aminokislotalar tomiziladi va shu aminokislotalarning masofasiga ko‘ra tegishli aminokislota taqsimlanish koeffitsienti Rf ga ko‘ra aniqlanishi mumkin.

$Rf = a/b$. Bunda α -aminokislotalarning tomizilgan joydan o‘tgan masofasi, b – eritmaning o‘tgan masofasi. Masofalar mm da o‘lchanadi.

Koeffitsient Rf har qanday aminokislota uchun tajriba o‘tkazilayotgan sharoitda xususiy kattalikdir.

Tekshiriluvchi material: gidrolizlangan aminokislota aralashmasi.

Reaktivlar: tirozinning 0,4% li eritmasi, glutamin kislotaning 0,6% li eritmasi, leysinning 0,5% li eritmasi, ningidrinning atsetondagi 0,2% li eritmasi va yuqoridagi aminokislotalar aralashmasi, erituvchi sistemalari 15:15:10 nisbatda olingan butil spirti, sirka kislota va suv aralashmasi.

Kerakli anjomlar: xromatografiya filtr qog‘ozi, Petri kosachasi, xromatogrammalarni ilish uchun moslama, purkagich, 105°C li quritgich shkaf, qaychi, skalpellar, shisha tomizgichlar, qalin nina.

Bajariladigan ish tartibi. Xromatografiya usuli bilan aminokislotalarni ajratish uchun ishlataladigan kameralar 6-rasmida keltirilgan (yuqoriga, pastga va aylana harakatlanadigan aminokislotalar xromatografiyasi).

1. Xromatografiya filtr qog‘ozidan 11x11 sm li to‘rtburchaklar yasaladi. To‘rtburchak oddiy qora qalam bilan to‘rt qismga bo‘linadi. Chiziqlar kesishgan nuqtadan radiusi 10 mm bo‘lgan aylana chiziladi. To‘rtburchakning tomonlari tartib raqamlari bilan belgilanadi. Shundan so‘ng xromatografiya

qog‘ozi Petri kosachasiga (7-rasmdagi kabi) o‘rnatiladi. Uning chetlari Petri kosachasining ustida bo‘lishi kerak.

2. Har qaysi bo‘linmaga ingichka tomizgich yordamida sinama aminokislota va ularning aralashmasi ehtiyyotlik bilan tomiziladi (8-rasm). Erituvchilarning shimalishi uchun xromatografiya qog‘ozining o‘rtasidagi teshikchaga filtr ustunchasi o‘rnatiladi. Xromatografiya kameraga shu teshikcha orqali qalin nina bilan 10-15ml erituvchi solinadi. Idishning tubi erituvchi bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak. Kamera qopqoq bilan berkitiladi. Filtr orqali erituvchi sekin-asta xromatografiya qog‘ozining yuqorisiga qarab yo‘naladi. Erituvchi xromatogramma chegarasiga yaqinlashganda jarayon tugatiladi, erituvchi yetgan chegara qalam bilan belgilanadi. Shundan keyin xromatogramma maxsus moslamaga joylashtirilib, 100-120°C li quritilgich shkafda quritiladi, shunda ajratilagan aminokislotalar qog‘ozga o‘rnatiladi. Quritish jarayoni 5-10 daqiqa, ya’ni erituvchining hidi atrofga tarqalguncha davom ettiriladi. Quritilgan xromatogramma aminokislotalarni aniqlash uchun ningidrin eritmasi purkaladi va yana quritiladi. Natijada aminokislotalar o‘rnashgan joyda bog‘ hosil bo‘ladi (8-rasm).

3. Har qaysi aminokislotaning «Rf» si topiladi va sinama aminokislota bilan aralashmadagi aminokislota solishtiriladi.

Olingan natijalarini rasmiylashtirish. Xromatografiya usulining asoslanishini, turini hamda olingan natijalarini daftarga yozib, tegishli xulosa chiqaring. Aminokislotalarni aniqlashning ahamiyatini eslab qoling.

4-АМАЛИЙ МАШФУЛОТ OQSILLARGA HOS SIFAT REAKSIYALAR OQSIL MIQDORINI BIURET USULI BILAN ANIQLASH

Usulning asosi. Barcha oqsillar ishqoriy muhitda mis (II) sulfat eritmasi bilan binafsha rangli birikma hosil qiladi. Eritmaning rangi oqsil miqdoriga to‘g‘ri proporsional. Bo‘yalgan eritma kolorimetrlanadi, topilgan eritma zichligiga ko‘ra avvaldan tayyorlangan o‘lchov egri chizig‘idan oqsil miqdori topiladi.

Tekshiriluvchi material: 05.; 1,0; 1,5% li va konsentratsiyasi noma’lum bo‘lgan oqsil eritmasi.

Reaktivlar: Biuret reaktivi (tayyorlanishi 284-betda).

Kerakli anjomlar: Probirkalar, shtativlar, byuretkalar. Fotoelektrokolorimetrik (FEK), qalinligi 1 sm bo‘lgan kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. To‘rtta quruq probirkaga olib uning birinchisiga 0,5% li, ikkinchisiga 1,0% li, uchinchisiga 1,5% li oqsil eritmasi solinadi. Ushbu eritmalar o‘lchov egri chizig‘ini tayyorlash uchun kerak bo‘ladi. To‘rtinchagi probirkaga miqdori noma’lum bo‘lgan oqsil eritmasidan solinadi. Maqsad ana shu probirkadagi oqsil miqdorini aniqlash hisoblanadi.

2. Har qaysi probirkaga 4 ml dan biuret reaktivi quyiladi, yaxshilab aralashtirilgach, xona haroratida 20 daqiqaga qoldiriladi. Shunda eritma asta-sekin rangga kiradi. Rangli eritmaning zichligi yashil nur filtri qarshisida (FEK ning 540

nm to'lqin uzunligida) 1 sm qalinlikdagi kyuvetada o'lchanadi. Nazorat sifatida biuret reaktividan foydalaniladi.

3. Birinchi uchta probirkadan olingan natija bo'yicha o'lchov egri chizig'i chiziladi. Ordinata o'qiga optik zichlik natijalari, abssissa o'qiga esa konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan doimiy eritma natijalari keltiriladi.

Miqdori noma'lum bo'lgan oqsil eritmasi zichligini bilgan holda o'lchov egri chizig'idan foydalanib, izlangan oqsil miqdori topiladi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Usulning asosini, o'lchov egri chizig'ini va topilgan oqsil miqdorini daftaringizga yozib, tegishli xulosa chiqaring.

OQSIL MIQDORINI LOURI USULI BILAN ANIQLASH

Ushbu usul bilan juda kam miqdordagi oqsilni aniqlash mumkin.

Usulning asosi. Usul ko'k rangga bo'yalgan mahsulotlarning hosil bo'lishiga asoslangan. Oqsil ishqoriy sharoitda mis ionlari bilan biuret reaksiyasi va molibdenfosfat tuzlarini, volframfosfat tuzlari bilan qaytarilib ko'k rangni hosil qiladi. Rangning och-to'qligi oqsil miqdoriga bog'liq.

Tekshiriluvchi material: oqsilning 1% li va 50,100 marta suyultirilgan eritmalar.

Reaktivlar: «S» va «E» reaktivlari.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, 1 ml li o'lchov pipetkasi, byuretkalar, FEK, 1 sm qalinlikdagi kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. Bir qator probirkalarga jadvalga muvofiq oqsil eritmalarini va tegishli reaktivlar solinadi.

1-jadval

| Probirkalarni ng tartibi | Oqsil eritmasi | Suv | E reaktivi | S reaktivi | Optik zichlik |
|--------------------------|----------------|---------|------------|------------|---------------|
| 1 | - | 1 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 2 | - | 1 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 3 | 0,15 | 0,85 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 4 | 0,2 | 0,8 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 5 | 0,3 | 0,7 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 6 | 0,5 | 0,5 ml | 5 ml | 0,5 ml | |

Eritma solingan probirkalar yaxshilab aralashtiriladi va xona haroratida 30 daqiqa qoldiriladi. Probirkadagi eritmalar oqsil miqdoriga bog'liq holda bo'yaladi. Probirkadagi eritmalar vaqt o'tgandan so'ng (670 nm to'lqin uzunligida) qizil nur filtrida, 1 sm qalinlikdagi kyuvetada fotoelektrokolorimetrlanadi yoki 660 nm to'lqin uzunligida spektrofotometrlanadi. 3-6- probirkalarga oqsil miqdori bo'yicha o'lchov egri chizig'i chiziladi va undan foydalanib tekshirilayotgan oqsil miqdori topiladi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Usulning asosi, o'lchov egri chizig'i va noma'lum oqsil miqdori daftarga yoziladi, tegishli xulosa chiqariladi.

5-АМАЛИЙ МАШИФУЛОТ **OQSIL VA PEPTIDLARNI TOZALIK DARAJASINI TAHLIL QILISH** **YOLLARI**

Hujayra tarkibidagi oqsilni ajratib olish va tozalash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. hujayra devorini buzish, hujayra struktura elementlarini ajratib olish va ulardan oqsilni sollyubilizatsiyalash, ya'ni oqsilni eritmaga o'tkazish;
2. tegishli oqsilni boshqa oqsillardan ajratish yoki qisman tozalash (cho'ktirish, tuzlash).
3. oqsilni gel's — filtratsiya, ion almashinuv yoki adsorbsion xromotografiya hamda gel's — elektroforez va boshqa usullar yordamida to'liq tozalash.

HUJAYRA OQSILINI AJRATISH

Hujayra oqsilini ajratib olish uchun dastlab hujayra bir butunligini ta'minlab turuvchi hujayra devorini buzish lozim. Bu jarayonni amalga oshirish uchun kerakli uslub va sharoit ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib tanlanadi. Masalan: xayvon organlari, o'simlik barglari qaychi va pichoq yordamida kesib maydalanadi (yoki go'sht qiymalagichdan chiqariladi) va maxsus gomogenizator yordamida bir xil massa — gomogenat holiga keltiriladi. Bakteriya va boshqa mikroorganizmlar biomassasidan gomogenat hosil qilishda kvarts yoki shisha qum, maxsus inert moddalardan tayyorlangan mayda sharchalar bilan xovonchada ezish, ul'zratovush ta'sir ettirish, press yoki tegirmondan o'tkazish kabi usullardan foydalaniladi.

Mikroorganizm hujayrasining mustahkam devorini buzishda gidrolitik fermentlar keng qo'llaniladi. Masalan: lizotsim hujayra devorini hosil qiluvchi peptidoglikanni parchalaydi, bunda hujayra protoplastiga ziyon etmaydi, hujayraning bir butunligi saqlanib qoladi. «Devorsiz» hujayrani distillangan suvga solib hujayra oqsilini eritmaga o'tkazish mumkin. Distillangan suv hujayraning yarim o'tkazgich membranasi orqali ichkariga kirib, u erdag'i osmotik bosimni oshiradi, natijada hujayra yoriladi. Hujayraning komponentlari bilan bir qatorda tsitoplazmatik oqsillar ham eritmaga o'tadi. To'qimani (hujayrani) gomogenlash, oqsilni ekstraktsiya qilish, ajratish va tozalash vaqtida temperatura, eritma muhitining rN ko'rsatkichi katga ahamiyatta ega. CHunki oqsillar labill moddalar bo'lib xona temperaturasida qisman denaturatsiyaga uchrashi, fermentlar esa o'z aktivligini yo'qotishi mumkin. SHu sababli barcha jarayonlar past temperaturada (2°S dan $+4^{\circ}\text{S}$ gacha) olib boriladi.

Eritma muhiti oqsilning xususiyatiga ko'ra tanlanadi. Asosan rN — 7 bo'lgan bufer eritmalar qo'llaniladi, chunki ko'pchilik fermentlar o'ta ishqoriy, hamda nordon muhitlarda o'z aktivligini yo'qotadi. Ajratib olish va tozalash vaqtida ferment stabilligini oshirish uchun bufer eritmaga EDTA, merkaptoetanol, saharoza kabi stabillovchi moddalar qo'shish mumkin.

Hujayra devori buzilib, oqsil eritmaga o'tkazilgach, gomogenat tsentrifugalanadi. Bunda hujayra qobiqlari cho'kadi va eritmada erigan moddalar, shu jumladan oqsillar ham supernatantga o'tadi. CHo'kma 1—2 marta bufer eritma bilan yuvib tsentrifugalanadi va

supernatant avvalgilariga qo'shiladi. Keyingi tozalash ishlarida tiniq holdagi supernatant qo'llaniladi, cho'kma esa tashlab yuboriladi.

OQSILLARNI QISMAN TOZALASH

Ajratib olingen supernatant tarkibida xususiyatlari o'rganilayotgan oqsildan tashqari yana ko'plab boshqa oqsillar ham mavjud. Ulardan tegishli oqsilni ajratib olishda oqsillarning eruvchanlik xususiyatidan foydalaniladi. Ko'pchilik oqsillarning eruvchanligi muhitning rN ko'rsatkichi, ion kuchi, og'ir metall ionlari va organik erituvchilarning ta'siriga bog'liq bo'lib, har bir oqsil uchun o'ziga xosdir. Qisman tozalash davomida tegishli oqsil eritmada qoldirilib, «keraksizlari» cho'kmaga tushiriladi yoki aksincha tegishli oqsil cho'kmaga tushirilib, tsentrafuga yordamida ajratib olinib, supernatant tashlab yuborilishi mumkin.

Oqsilni cho'ktirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: termik ishlov, eritma rNni o'zgartirish, og'ir metal ionlari, organik erituvchi va tuzlar yordamida cho'ktirish.

Termik ishlov berish usulidan faqat termostabil oqsillarni ajratib olishda foydalaniladi. Eritmaning rN muhitini o'zgartirish usuli bilan cho'ktirish oqsilning izoelektirk nuqtasini hisobga olgan xolda olib boriladi. Kislota yoki ishqorni tomchilatib qo'shish natijasida muhitning rNi o'zgartiriladi va oqsilning izoelektrik nuqtasiga mos kelganda cho'kma hosil bo'ladi. CHo'kma tsentrifugada ajratib olinadi, eritmada qolgan nokerak oqsillar tashlab yuboriladi.

Oqsillarni cho'ktirishda og'ir metall ionlaridan simob, qo'rg'oshin, mis, kumush ishlatiladi. Bu xolda oqsil denaturatsiyaga uchraydi va murakkab kompleks hosil qilib cho'kmaga tushadi. Bunday cho'ktirishda tez qayta ishlov berish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki yuqoridagi ionlarning uzoq vaqt ta'sir etishi qaytmas denaturatsiyaga olib kelib, fermentlarning inaktivatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

Organik erituvchilardan — metanol, etanol, atseton oqsil molekulasing suvli qavatini tortib oladi (degidratlash). Natijada oqsillar birikib cho'kmaga tushadi. Xona haroratidagi organik erituvchilar oqsilning qaytmas denaturatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. SHu sababli organik erituvchilarni 15° — 20°S gacha sovutib eritmani aralashtirib turgan holda asta —sekin qo'shiladi.

Ko'pchilik hollarda oqsilni tozalash uchun bir necha usul ketma —ket qo'llaniladi. Oqsillarni cho'ktirishda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri neytral tuzlar yordamida tuzlash hisoblanadi. Bu usul bilan cho'ktirishda ko'pincha ishqoriy — er metallarining tuzlaridan foydalaniladi.

6-АМАЛИЙ МАШИФУЛОТ **ZAMONAVIY SPEKTROFOTOMETRIK USULLAR YORDAMIDA** **OQSIL VA PEPTIDLARNI TUZILISHINI ORGANISH USULLARI**

OQSIL MIQDORINI SPEKTROFOTOMETRIK USUL BILAN **ANIQLASH**

Oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalardan triptofan, tirozin, fenilalanin ultrabinafsha nurlarni (kamroq darajada) yutish qobiliyatiga ega. 280 nm to‘lqin uzunligidagi oqsil eritmalarining zichligi yuqoridagi aminokislotalar miqdoriga to‘g‘ri proporsional. Ushbu usul oqsil aralashmasining turli miqdorini o‘lchashda yaxshi natija beradi.

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: triptofan, tirozin va oqsil eritmalar.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, o‘lchovli pipetkalar spektrofotometr.

Bajariladigan ish tartibi. Rangsiz va tiniq triptofan, tirozin va oqsil eritmalar navbat bilan 280 nm to‘lqin uzunligidagi va 1 sm qalinlikdagi kyuyetada spektrofotometrdan o‘tkaziladi, so‘ngra eritmalarning optik zichligi topiladi. Topilgan zichlik bo‘yicha oldindan tayyorlangan o‘lchov egri chizig‘idan foydalanib tegishli miqdorlar aniqlanadi. Oqsil miqdori Adams nomogrammasidan topilishi mumkin.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Spektrofotometrik usulning asosini, olingan natijalarni daftaringizga yozib, xulosa chiqaring.

Quyidagi savollarga javob bering.

1. Oqsil miqdorini qanday usullar bilan aniqlash mumkin?
2. Biuret, Louri, spektrofotometrik usullar qanday reaksiyalarga asoslangan. Ushbu usullarning qaysi biri orqali oqsilning eng kam miqdorini o‘lchashi mumkin?
3. Biologik suyuqlikdagi oqsil miqdori 15 mg/l ni tashkil qilsa, qanday usuldan foydalanish ma’qulroq bo‘ladi?

7-АМАЛИЙ МАШИФУЛОТ

FERMENTLAR, GORMONLAR VA BOSHQA BIOLOGIK FAOL **OQSILLARNI FUNKSIYALARINI SHRGANISH USULLARI**

BUQOQ BEZI YOKI QORA TALOQ TO‘QIMASIDAN **DEZOKSIRIBONUKLEOPROTEINNI AJRATISH**

Dezoksiribonukleoproteinni buqoq bezi to‘qimasidan ajratib olish uning ishqoriy va tuzli eritmarda yaxshi erib, suvda erimasligi va shuning uchun ishqoriy eritmalarini neytrallaganda yoki tuzli eritmalarini suyultirilganda DNP cho‘kmaga tushishiga bog‘liq. Dezoksiribonukleoprotein (DNP) tarkibidagi DNK ni dezoksiribozani ochadigan sifat reaksiya orqali topish mumkin. Buning uchun DNP kislota difenilamin reaktivi bilan qizdiriladi. Natijada DNP gidrolizlanib, dezoksiriboga ajraladi va difenil reaktivi bilan ko‘k rang hosil qiladi. DNP tarkibidagi oqsil esa biuret reaksiyasini yordamida ochiladi.

Tekshiriluvchi material: buqoq bezi yoki qora taloq to‘qimasi.

Reaktivlar: natriy xloridning 5% li eritmasi, natriy gidroksidning 0,4 va 10% li eritmalar, mis (II) sulfatning 1% li eritmasi, difenilamin reaktivi distillangan suv, shisha kukuni.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, chinni hovonchalar, voronkalar, shisha tayoqchalar, 100-150 ml li kimyoviy stakan, doka filtrlar, suv hammomi, tarozi, qadoq toshlari. 25 va 100 ml li o‘lchov silindrlar.

Bajariladigan ish tartibi. DNP ni ajratish. Buqoq bezi yoki qora taloqdan 0,5 g olib 100 mg shisha kukun qo‘shiladi va 15 ml 5% li natriy xlorid eritmasidan ohistalik bilan chinni hovonchaga solib ishqalanadi. Bir xil holatga keltirilgan aralashma doka filtdan o‘tkaziladi. So‘ngra stakanga shisha tayoqchasi bilan astasekin aralashtirilgan holda 80-90 ml filtdan o‘tkazilgan suyuqlik solinadi. Suvda eritmaydigan DNP cho‘kmaga tushadi, uning cho‘kma-ipchalari shisha tayoqchaga o‘raladi va toza probirkaga shisha tayoqcha orqali asta o‘tkaziladi.

DNP ipchalari 1-2 ml 0,4% li natriy gidroksid eritmasi bilan eritiladi (DNP ipchalarini to‘liq erishini kuzating).

2. DNK ni aniqlash. 5-10 tomchi DNP eritmasiga ikki marta ko‘p hajmda difenilamin reaktivi solinadi va probirka 5-10 daqiqaga qaynab turgan suv hammomiga quyiladi. Eritma sekin-asta ko‘k rangga kiradi, chunki difenilamin dezoksiriboza bilan reaksiyaga kirishadi.

3. DNP tarkibidagi oqsilni aniqlash. 5-10 tomchi DNP eritmasiga 10 tomchi 10% li natriy gidroksid eritmasi va 1 tomchi 1% li mis sulfat eritmasi solib biuret reaksiyasi o‘tkaziladi. Ko‘kintir-binafsha rang hosil bo‘lishi oqsil borligini isbotlaydi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. DNP ajratish usulini, DNP ning tarkibiy qismi va aniqlash reaksiyalari natijasini daftaringizga yozing.

DNK MIQDORINI KALORIMETRIK USULI BILAN ANIQLASH

Usulning asosi. DNK tarkibidagi dezoksiriboza difenilamin bilan ko‘k rang hosil qiladi. Rangning zichligi DNK miqdoriga to‘g‘ri proporsionalligidan, fotoelektrokolorimetrdan foydalilaniladi.

Tekshiriluvchi material: DNK ning suvli eritmasi.

Reaktivlar: difenilamin reaktivi distillangan suv.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, 1-2 ml li o‘lchov pipetkalari, FEK, 0,5 sm qalinlikdagi kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. Bitta tekshiruv va bitta nazorat probirkasi tayyorlanadi. Birinchisiga DNK ning suvli eritmasidan 1 ml, ikkinchisiga 1 ml distillangan suv solinadi. Har ikkala probirkaga 2 ml dan difenilalanin reaktivi solib, 10 daqqa suv hammomida ushlab turiladi. Bir ozdan so‘ng probirkalardagi suyuqliklar sovitiladi va FEK ning qizil nur filtrida nazorat suyuqligi qarshisida ko‘riladi. Tekshiriluvchi DNK ning optik zichligini topgach, o‘lchov ergi chizig‘idan uning miqdori aniqlanadi.

O‘lchov ergi chizig‘ini tayyorlash. 3 ta probirkaga konsentratsiyasi turlicha bo‘lgan (50, 100, 200 mkg/ml) DNK eritmasidan 1 ml va difenilamin reaktividan 2

ml solib, 10 daqiqa qaynab turgan suv hammomida qizdiriladi. Eritma sovitilgach yuqoridagidek fotoelektrocolorimetrlanadi. Topilgan optik zichlik va DNK miqdoridan o‘lchov egri chizig‘i tuziladi. Abssissa o‘qiga DNK miqdori, ordinata o‘qiga optik zichliklar keltiriladi.

Olingan natijalarini rasmiylashtirish. Daftaringizga o‘lchov egri chizig‘ini chizing. Usulning asosini va topilgan DNK miqdorini daftaringizga yozing.

KOLORIMETRIK USUL BILAN RNK MIQDORINI ANIQLASH

Usulning asosi. RNK tarkibidagi pentoza ortsin reaktivi bilan rangli birikma hosil qiladi. Rangning optik zichligi kolorimetrda o‘lchanadi va o‘lchov egri chizig‘idan RNK miqdori topiladi.

Tekshiriluvchi material: RNK ning suvli eritmasi.

Reaktivlar: ortsin reaktivi (tayyorlanishi 509-betda) distillangan suv.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, pipetkalar, FEK, 0,5 sm qalinlikdagi kyuveta.

Bajariladigan ish tartibi. 1. Tekshiruv tajriba probirkasiga 1 ml RNK eritmasi va 2 ml ortsin reaktivi solinadi. Nazorat probirkasiga esa 1 ml distillangan suv va 2 ml ortsin reaktivi solinadi. Ikkala probirka suv hammomida 20 daqiqa tutib turiladi. Bir ozdan so‘ng eritmalar sovitilib, FEK ning qizil nur filtrida nazorat probirkasi qarshisida optik zichlik topiladi. RNK ning miqdori o‘lchov egri chizig‘idan aniqlanadi.

2. O‘lchov egri chizig‘ini tayyorlash. 3 ta probirkaga 1 ml dan 50, 100, 200 mkg/ml RNK eritmasi suv hammomida qizdiriladi. 20 daqiqa o‘tgach, eritmalar sovitilib, FEK da ularning optik zichligi aniqlanadi. Abssissa o‘qiga RNK ning miqdori, ordinata o‘qiga optik zichlik keltirilib, o‘lchov egri chizig‘i tuziladi.

Olingan natijalarini rasmiylashtirish. Daftaringizga usulning asosini, o‘lchov egri chizig‘ini va aniqlangan RNK miqdorini yozing.

FOSFOPROTEIDLAR


Murakkab oqsillar – fosfoproteidlар тарқибидаги фосфор кислота колдиг‘и (0,5-0,9%) mavjud. Улар оқсил молекуласига серин ва треонин аминокислоталарининг гидроксил гурӯхи орқали бирикади.

Fosfoproteidlар вакилига сутказиени. Тукум оқсили – вителин, балиқ тукуми оқсили – иктилини ва айрим ферментлар – фосфорилаза, фосфоглюкомутаза, пепсин ва бoshqalar kiradi. Fosfoproteidlар embrion тараqqiyoti va organizm uchun zarur oziqa mahsulotи hisoblanadi. Sutказиени тарқибидаги барча о‘rnini almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar ва suyak то‘qimalarining o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan fosfor va kalsiy bor, ular to‘la sifatli oqsillar qatoriga kiradi.


Kazein оқсилини сутдан ajratish va тарқиби qismlarini aniqlash (2-ishda keltirilgan) bilan siz оқsillarni biologik suyuqliklardan ajratish bo‘limida tanishgansiz.

GLIKOPROTEIDLAR


Glikoproteidlар – oqsil va oqsil bo‘lmagan neytral va nordon glikozaminglikanlardan tashkil topgan murakkab oqsil hisoblanadi. Karbonsuv tarkibiga geksozalar, geksozaminlar (glyukozamin, galaktozamin, mannozamin), glyukuron, sial kislotalar, sirka, sulfat, neytramin kislota va L-fruktozalar kiradi.




D-glyukozamin




atsetil-N-glyukozamin




glyukuron kislota




neyramin kislota




L-fruktoza



D-glyukozamin



atsetil-N-glyukozamin



glyukuron kislota

Glikoproteidlар таркибидаги 85-95% гача углеводлар бо‘lganda ular углевод хосасини намоён qилиши ва аksincha, 85-95% oqsil bo‘lganda oqsil tabiatiga ega bo‘ladilar.

Uglevod tabiatli glikoproteidlар glyukozaminglikanlar deyiladi. Shunday nordon glyukozaminglikanlarga gialuron, xondriatinsulfatlar va heparin kiradi. Neytral glikozaminlar таркибига neytral shakarlar (galaktoza, mannoza, L-fruktozalar) va sial kislota kiradi.

Gialuron kislota biriktiruvchi to‘qima. Ko‘z qorachig‘i, sariq tana, kindik tizimchasi, yurak klapanlari таркибига kiradi. Gialuron kislota glyukuron, atsetil glyukozamin va disaxaridlarning polimeridir. Ularning nisbiy molekulyar massasi

milliondan ortiq. Xondriotin sulfat kislota tog‘ay va biriktiruvchi to‘qimalar, geparin esa jigar va o‘pka to‘qimalari tarkibiga kiradi.

Neytral glyukozaminglikanlar so‘lak, me’da shirasi, bachadon o‘simgalari, qon plazmasi, qon guruhini aniqlovchi moddalar, gormonlar, fermentlar (seruloplazmin, transferin, xolinesteraza) tarkibida bo‘ladi. Glyukozaminglikanlarni organizm to‘qimalaridagi suyuqliklar tarkibida erkin holda uchratish mumkin.

Glikoproteidlar organizmda tayanch - himoya vazifasini bajaradi. Ular hujayralararo va to‘qiamalararo moddalar tarkibiga kirib qovushtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, bo‘g‘imlarni bog‘lovchi vosita hisoblanadi.

SO‘LAK TARKIBIDAGI MUTSINNI AJRATISH

Tuxum oqsili va mutsin tarkibidagi uglevodlarni Molish reaksiyasi yordamida aniqlash mumkin.

Tekshiriluvchi material: tuxum oqsilining 10% li eritmasi, so‘lak.

Reaktivlar: sirka kislotaning konsentralangan eritmasi, sulfat kislotaning konsentrangan eritmasi, timolning 1% li spirtli eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, pipetkalar, shisha tayoqchalar, filtr qog‘ozlari.

Bajariladigan ish tartibi. 1-2 ml so‘lak probirkaga yig‘iladi va unga 10-20 tomchi sirka kislota tomchilab solinadi. Mutsin cho‘kmaga tushgach, cho‘kma ustidagi suyuqlik asta-sekinlik bilan to‘kib tashlanadi, quyqa esa filtr qog‘ozda quritiladi. Mutsin quyqasi bilan molish reaksiyasi o‘tkaziladi.


Molish reaksiyasi. 10 tomchi mutsin eritmasiga 3 tomchi timolning 1% li spirtli eritmasi solinadi va aralashtiriladi. So‘ngra probirkada devori bo‘ylab ehtiyyotkorlik bilan 20-30 tomchi sulfat kislotaning konsentrangan eritmasi quyiladi. Eritma silkitilganda probirkada furfurolning timol bilan hosil qilgan qizil rangli kondensatsiya mahsuloti ko‘rinadi.

Olingan natijani rasmiylashtirish. Daftaringizga mutsinni ajratish va Molish reaksiyasi asosini hamda uning natijasini yozing.

FENILALANIN VA TIROZIN AMINOKISLOTALARIGA O‘TKAZILADIGAN XUSUSIY SIFAT REAKSIYA (MILLON REAKSIYASI)

Millon reaksiyasi faqat tirozin va fenilalanining xos reaksiya hisoblanadi.

Reaksiyaning asosi. Oqsil eritmasiga Millon reaktivi (simobning nitrat kislotadagi eritmasi) qo‘shilganda tirozin va fenilalaninning benzol xalqasi – dinitrotirozinning simobli tuzi hosil bo‘lgani sababli u qizil rangga kiradi.



Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: Millon reaktivi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. 5 tomchi oqsil eritmasiga 1-2 tomchi Millon reaktivi solinib, ehtiyyotlik bilan qizdiriladi. Qizil rang hosil bo‘ladi.


KUCHSIZ BOG‘LANGAN OLTINGUGURT TUTUVCHI AMINOKISLOTALARGA O‘TKAZILADIGAN REAKSIYA FOLI REAKSIYASI

Sistein va sistin aminokislotalarida oltingugurt juda kuchsiz bog‘langan bo‘lib, ularni ishqor yordamida ajratib olish mumkin.

Reaksiyaning asoslanishi. Ishqoriy gidroliz natijasida ajralgan oltingugurt qo‘rg‘oshin bilan birikib, qora rangli qo‘rg‘oshin sulfid tuzini hosil qiladi. Bu tuz eritmada cho‘kma holatda bo‘ladi.

Ushbu reaksiya sistin almashinushi buzilganda aniqlanadi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: Foli reaktivi.


Kerakli anjoslar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.


Bajariladigan ish tartibi. 5 tomchi oqsil eritmasiga shuncha miqdorda Foli reaktivi solib qizdiriladi va 1-2 daqiqaga qoldiriladi. Shunda qoramtil qo‘rg‘oshin sulfid cho‘kmasi hosil bo‘ladi.

METIONINGA O‘TKAZILADIGAN NITROPRUSSID REAKSIYASI

Reaksiyaning asoslanishi. Metionin ishqoriy sharoitda natriy nitroprussid bilan qizil rangli kompleks birikma hosil qiladi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:





kondensatsiyalangan birikma

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: natriy gidroksidning 20% li eritmasi, natriy nitroprussidning 5% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.


Bajariladgan ish tartibi. 5 tomchi oqsil eritmasiga 4-5 tomchi natriy gidroksidning 20% li eritmasidan solib bir necha daqiqa qizdiriladi. Eritma sovitiladi va unga 2-3 tomchi natriy nitroprussid eritmasi tomiziladi. Suyuqlik qizil tusga kiradi.

Olingan natija 8-jadvalga yoziladi.

ARGININGA O'TKAZILADIGAN SAKAGUTI REAKSIYASI

Reaksiyaning asoslanishi. Argininning guanidin guruhi α -naftol ishtirokida ishqoriy muhitda gipobromid bilan oksidlanib, pushti-qizg'ish rangli kondensatsiyalangan mahsulot hosil qiladi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi yoki 0,01% li arginin eritmasi.

Reaktivlar: natriy gidroksidning 10% li eritmasi, α -naftolning 0,2% li spirtli eritmasi, natriy gipobromidning 2% li eritmasi, mochevina eritmasi.

Kerakli anjomlar: Probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. Probirkalarning biriga oqsil eritmasidan 10 tomchi, ikkinchisiga 0,01% li arginin eritmasidan 10 tomchi solib ularning har qaysisiga 10% li natriy gidroksid eritmasidan 10 tomchi va α -naftolning 2% li spirtli eritmasidan solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. So‘ng ularga natriy gipobromid eritmasidan solinadi. Eritmaga 40% li siydikchil eritmasidan 5 tomchi solinganda pushti-qizg‘ish rang hosil bo‘lishi tezlashadi. Eritma pushti-qizg‘ish tusga kiradi.

Mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlari, mavzulari, shakli, ko‘rsatmalar, variantlar, tushuntirishlar, boshqa ma‘lumotlar

Mustaqil ishning tavsiya etiladigan mavzulari:

- Biologik av fizik kimyoviy tizimlarda ketadigan jaroyonlar.
- Oqsillarning tuzilishi va funksiyasi
- Oqsillar muhaddisligining fizikaviy kimyoviy metodlari
- Antitelolarni oqsil muhandisligi
- Sun’iy oqsillar olish yollari
- Amaliy oqsillar muhandisligida maqsadiy oqsillarni genlar eksperessiyasi yordamida miqdoriy yaratish
- Biologik av fizik kimyoviy tizimlarda ketadigan jaroyonlar.
- Antigen va antitanalarning o’zaro ta’sirlarining spetsifikligi
- Regulyator molekulalar (peptidlar)
- Biologik hujayralarning molekulyar jihozlanishi
- Eksperessiyaning hujayrasiz tizimi
- Turli moddalarni renaturatsiya jaroyoniga ta’siri
- Antitelolarni oqsil muhandisligi
- Sun’iy oqsillar olish yollari
- Effekti eksperessiya tizimini yaratish
- Amaliy oqsillar muhandisligida maqsadiy oqsillarni genlar eksperessiyasi yordamida miqdoriy yaratish

KALIT SO'ZLARNING IZOHLI LO'G'ATI
(GLOSSARIY)

| | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | ADF | Adinizindifosfat |
| 2. | Ala | Alanin |
| 3. | Arg | Arginin |
| 4. | Asp | Asparat kislota |
| 5. | Asp NH | Asparagin |
| 6. | ATF | Adinozintrifosfat |
| 7. | C | Sitozin |
| 8. | Cys | Sistein |
| 9. | Elongatsiya | polipeptid zanjiming uzayishi |
| 10. | Fmet | Formilmetionin |
| 11. | Gli | Glisin |
| 12. | Glu | Glutamat kislota |
| 13. | GMF | Guaanozinmonofosfat |
| 14. | His | Gistidin |
| 15. | Ile | Izolysin |
| 16. | Ley | Leysin |
| 17. | Initsiatsiya | oqsil sintezning boshlanishi |
| 18. | Lys | Lizin |
| 19. | Met | Metianin |
| 20. | NAD | Nikotinamed adenine nukleotid |
| 21. | Ox | Oksiprolin |
| 22. | Phe | Fenilalanin |
| 23. | Pro | Prolin |
| 24. | RNK | Ribonukleaza |
| 25. | Ser | Serin |
| 26. | T | Timin |
| 27. | Terminatsiya | polipeptid zanjir sintezining tugallanishi |
| 28. | Tre | Treonin |
| 29. | Trp | Triptofan |
| 30. | Tyr | Tiriozin |
| 31. | UDF | Uridindifosfat |
| 32. | UTF | Uridintrifosfat |
| 33. | Val | Valialin |
| 34. | Amplifikatsiya | xromosoma DNK ketma-ketligining qo'shimcha nusxasining hosil bo'lishi. |
| 35. | Antigenlar | immun tizimda antitelalar hosil bo'lishini indutsirlovchi, antitela paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi spetsifik hamkorlik qiluvchi oqsillar. |

| | | |
|-----|--------------------------|---|
| 36. | Antitela | immun tizim tomonida yoki patogen agentlar; oqsillarni (antigenlar) yo‘qotuvchi ta’sirga ega oqsillar. |
| 37. | Biosintez- | fermentlar ta’sirida tirik organizmlarda oddiy birikmalardan murakkab organik moddalarning hosil bo‘lishi. |
| 38. | Biotexnologiya | tirik organizmlar yoki biologik qonuniyat va xususiyatlarning sanoat miqyosida ishlatilishi haqidagi fan yo‘nalishi. |
| 39. | Differensiyalash | asosiy va yangi hosil bo‘lgan hujayralar orasida, shuningdek yangi hosil bo‘lgan hujayralar orasida farq yuzaga keltiruvchi jarayonlar kompleksi. |
| 40. | DNK | dezoksiribonuklein kislotalar molekulasi, nukleotidlari (adenin, guanin, sitozin, timin), dezoksiriboza va fosfor kislota qoldiqlaridan tashkil topgan. |
| 41. | DNK bo‘shlig‘i- | DNK zanjirida bitta yoki bir nechta nukleotidlarning etishmasligi. |
| 42. | DNK dupleksidagi uzilish | ikki zanjirli DNKnинг zanjirlarining bittasida yonma-yon ikkita nukleotidlari orasidagi fosfodiefir bog‘ining yo‘qligi. |
| 43. | DNK replikatsiyasi | fermentlar to‘plami (DNK polimeraza, ligaza va boshqalar) yordamida DНK nusxasini hosil qilish orqali uning molekulalarini ikkilanishi (ikki marta ko‘payishi). |
| 44. | Elektroforez | elektr maydoni yordamida aralashmalarining bir joydan |
| 45. | Elektroporatsiya | hujayra membranasida qo‘srimcha teshiklarni hosil qilishga yordam beruvchi elektr toki yordamida hujayraga genlarni kiritish usuli. |
| 46. | Endonukleazalar- | fosfodiefir bog‘larining o‘ziga xos bo‘lmagan parchalanishi orqali nuklein kislotalarini parchalovchi fermentlar. DНKni purin yoki pirimidin qismlaridan kesuvchi fermentlar. |
| 47. | Fermentlar | biologik tezlatkichlar, enzimlar-oqsilning o‘ziga xos turi; tirik hujayralarda ham tezlatkich rolini bajaradi. |
| 48. | Flavinli kofermentlar, | flavinmononukleotid-FMN va flavinadenindinukleotid-FAD hisoblanadi. |

| | | |
|-----|------------------|---|
| | | Bular nafas olish zanjirida vodorod va elektron bilan ta'minlash. |
| 49. | Gen | genetik axborotlarningyagona strukturasi muayyan regulyator funksiya, bir yoki bir nechta polipeptid zanjirlar, yoki RNK molekulasi strukturasini kodirlovchi xromosoma qismi (DNK molekulasi). |
| 50. | Gen muhandisligi | usullar va texnologiyalar; rekombinant ribonuklein va dezoksiribonukleinkislotalar olish texnologiyasi, organizmlardan genlarni ajratish, ular bilan turli manipulyasiyalar o'tkazish va ularni boshqa organizmlarga kiritish texnologiyalari. |
| 51. | Genetik kod (GK) | nuklein kislotalar izchilligi ko'rinishidagi nuklein kislotalari molekulalarida nasliy axborotning yozma tizimi. GK birligi bo'lib kodon yoki triplet xizmat qiladi. GK sintezlanayotgan polipeptid zanjiriga aminokislotalarning birikish tartibini aniqlaydi. Nuklein kislotalari molekulalarida ketma-ketlik ko'rinishida "yozilgan" irsiy axborotning tirik organizmlarga xos yagona tizimi. Genetik kodning birligi kodondir. |
| 52. | Gidrolazalar – | suv ishtirokida organik birikmalarning parchalanish reaksiyasini tezlashtiruvchi fermentlar. |
| 53. | Glutation | keng tarqalgan tabiiy peptidlardan hisoblanadi. Bunda sisteinning sulfigidril (SH) gruppasi katalitik gruppa rolini o'taydi. U oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini katalizlaydi. |
| 54. | In vitro | tirik materialni probirkada sun'iy oziqa muhitlarda steril sharoitda o'stirish. |
| 55. | In vivo | tirik materialni tabiiy sharoitda o'stirish. |
| 56. | Izomerazalar | izomerlanish reaksiyalarini ta'minlovchi fermentlar. Ular molekulalar orasidagi ko'chish, oksidlanish - qaytarilish , kimyoviy boglanishni qayta taqsimlanishi hisobiga, kimyoviy birikmalarning fazoviy izomerlanish reaksiyalarini katalizlovchi ferment. |

| | | |
|-----|----------------------------|---|
| 57. | Koferment A | (KoA) moddalar almashinuvida keng miqyosda ishtirok etadigan kofermentlardan hisoblanadi. |
| 58. | Liazalar | nogidrolitik ravishda moddaning parchalanishini ta'minlovchi fermentlar. |
| 59. | Ligaza-DNK | zanjiridagi uzilgan qismni fosfodiefirbog‘ hosil qilish yordamida birlashtiruvchi ferment. |
| 60. | Ligazalar (sintetaza) – | ikki molekula ATF ishtirokida uch pirofosfat bogining uzilishi hisobiga birikishini ta'minlovchi fermentlar. |
| 61. | Lipoat kislota | bular o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarda keng tarqalgan bo'lib, asosiy vazifasi ketokislotalarning oksidlanishli dekarboksillanish reaksiyasini katalizlashdan iborat. |
| 62. | Metabolizm- | oraliq almashinish, ya'ni moddalarning hujayra ichiga tushgan vaqtidan oxirgi mahsulotlar hosil bo'lgunga qadar aylanishi; katabolizm va anabolizm jarayoni yig'indisi; qorong'ulikda kechadigan metabolizm-mikroorganizmlarning (qirmizi bakteriyalar Rhodospirillum) qorong'ida aerob holda o'sish xususiyati. Buxususiyat bakteriyalarda nafas olish zanjirining kerakli qismlari borligidan dalolat beradi. |
| 63. | Nikatinamidli kofermentlar | oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida keng ishtirok etuvchi kofermentlar. Bularning asosiy vakili NAD va NADF. |
| 64. | Nuklein kislotalar | turli nukleotidlardan qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar tabiiy birikmalar (polimerlar). Hujayra mag'zining asosini tashkil qiladi. Nuklein kislotalarning ikki turi: RNK, DNK hujayralarning doimiy komponentlaridir. |
| 65. | Oksidoreduktazalar | oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar. |
| 66. | Regeneratsiya- | hujayralar tiklanishi. |
| 67. | Rekombinant DNK | -turli manbalardan olingan DNK qismlaridan iborat DNK. |
| 68. | Rekombinant gen | turli genlar komponentlaridan tarkib topgan gen. |

| | | |
|-----|------------------------|---|
| 69. | RNK | tarkibiga nukleotidlar (adenin, guanin, sitozin, uratsil), riboza va fosfor kislotasi qoldiqlari kiruvchi ribonuklein kislota molekulasi. |
| 70. | Transferazalar | tashuvchi (molekulalar ichida va molekulalararo ko'chishni katalizlovchi) fermentlar |
| 71. | Vitaminli kofermentlar | ya'ni fermentlarga ba'zi bir vitaminlarning birikib, shu fermentning katalitik aktivligini oshishiga xizmat qiladi. |

AYRIM REAKTIVLAR VA PREPARATLARNI TAYYORLASH

(Barcha reaktivlar distillangan suvda tayyorlanadi)

1. Rangli reaktivlar uchun oqsil eritmasini tayyorlash.

1) 10 g tuxum oqsili 100 ml suvda eritilib 1% li oqsil eritmasi tayyorlanadi (10g tuxum oqsili 1g oqsil tutadi). Bir dona tuxum oqsili 250 ml suvda eritilib, doka filtrdan o'tkaziladi.

2. Gidroliz uchun oqsil eritmasini tayyorlash. 2 dona tuxum oqsili 11 suvda eritilib, doka filtrdan o'tkaziladi, eritma muzlatgichda saqlanadi. Tuxum oqsili gidrolizatini tayyorlash uchun 8 dona tuxum oqsili 4l suvda eritilib, dokadan o'tkaziladi va eritma havoli sovutgich bilan birlashtirilgan dumaloq tubli kolbaga solinadi. Unga bir 1 konsentrangan xlorid kislota qo'shiladi. Aralashma asbest to'r ustida qaynagandan so'ng 45 daqiqa qaynatiladi, so'ng filrlanadi. Faollangan ko'mir ishlatilmaydi.

3. Cho'ktirish reaksiyasi uchun oqsil eritmasini tayyorlash. Sarig'idan ajratilgan tuxum oqsili 19-20 barobar hajmdagi suv bilan aralashtiriladi va bir necha qavatli doka yoki qavatlangan filtr qog'ozdan o'tkaziladi. Tuzlash uchun oqsil eritma: 3 ta tuxum oqsili 700 ml suv bilan va 300 ml to'yingan natriy xlorid eritmasi bilan aralashtiriladi.

4. Sut-asetat aralashmasini ivitish uchun pepsin. 100 ml pepsin 0,1 n xlorid kislota eritmasida eritiladi va 10-20 tomchi 2 n xlorid kislota(pH i 2,5) qo'shiladi. Eritma 3-4 soat turgandan so'ng uning hajmi 0,1 n xlorid kislota bilan 100 ml ga etkaziladi. Shunda 0,1% li pepsin eritmasi olinadi.

5. Quruq tuxum sarig'ini tayyorlash. Tuxum sarig'i oyna plastinkasiga surtilib, xona haroratida, havoda quritiladi. Quritilgan sariqliq oyna plastinkasidan qirib olinadi va hovonchada kukun holatigacha maydalanadi.

6. Sut-atsetat aralashmasini tayyorlash. Yangi sog'ilgan sut (nisbiy zichligi 1,030) pH i 4,9 atsetet bufer eritmasi bilan 1:1 nisbatda aralashtiriladi. Bu aralashma yopiq holatda muzlatgichda 2 hafta saqlanishi mumkin. Bu aralashma kengayuvchi voronkada qoldirilib, tingen yog' oson olib tashlangan taqdirda aralashmaning ishlatilishi yanada qulay bo'ladi. Quritillgan sut kukunidan

foydalansha, uning 2,5 osh qoshig'i bir stakan iliq suvdan eritilib, qaynatiladi va yuqoridagidek 1:1 nisbatda pH i 4,9 bo'lgan atsetat buferi bilan arashadiriladi.

7.Kumushning ammiakli eritmasi. 1-3% li kumush nitrat eritmasiga kontsentrlangan ammiak eritmasidan cho'kma eriguncha qo'shiladi. Shunda kumush gidroksidning ammiakli eritmasi hosil bo'ladi.

8.Kumush nitratning 2% li eritmasi. 2g kumush nitratga 100ml suv solib kumushning ammiakli eritmasi tayyorlanadi.

9.Kumush nitratning 0,1 n eritmasi. 16,988g kumush nitrat 1 l li o'lchov kolbasiga solinib, suv bilan aralashtiriladi-da, hajmi 1l ga etkiziladi. 0,01n eritma esa shu 0,1n eritmada eshlatish oldidan tayyorlanadi. Uning titri 0,01 n natriy xlorid (0,585g-1l suv) eritmasi yordamida aniqlanadi.

10. pH i 5 bo'lgan atsetat bufer eritmasi. 45g (kim.toza) natriy gidroksid avval 400-500 ml suvda eritiladi. Ushbu eritma sovitilgach, 1 l li kolbaga o'tkazilib, 115 ml muzli sirkaga qo'shiladi va eritmaning umumiyligi hajmi 1 l ga etkiziladi.

11. pH i 4,8 bo'lgan atsetat eritmasini tayyorlash. 1) 9,1n natriy atsetat eritmasini tayyorlash uchun ushbu tuzdan 27,22g olib 1 l hajmgacha o'lchov kolbada eritiladi.

2) 0,2 n sirkaga kislota eritmasi (fiksanoldan) tayyorlanadi. Birinchi eritmada 480ml va ikkinchisidan 520ml olib aralashtiriladi va uning pH i tekshiriladi.

12. Absolyut spirt. Buning uchun suvsiz mis (II) sulfatdan foydalansha, 220°C da qurilituvchi shkafda suvsizlanguncha aralashtirilib turiladi. Suvsiz mis (II) sulfatga 95% li etil spirt solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. Mis (II) sulfat ko'karadi, demak, spirtagi suvni tortib oladi, ushbu jarayon mis (II) sulfat rangsiz holga kelguncha bir necha bor yangi tuz qo'shish bilan qaytariladi.

13. Bilirubinning asosiy eritmasi. 8 mg bilirubin 7 ml 0,1M suvsiz natriy karbonat (1,06 g suvsiz natriy karbonat 100 ml hajmgacha eritiladi) da eritilip hajmi shu eritma bilan 10 ml ga yetkaziladi. Bilirubinning ishchi eritmasi 8 marta suytirilgan asosiy eritmada tayyorlanadi. Buning uchun 7 ml yangi gemolizlangan zardobga 1 ml yangi tayyorlangan bilirubinning 80% li eritmasi va 0,05 ml (1 tomchi) 4 n sirkaga kislota eritmasi (22,6) ml muzli sirkaga kislota 100 ml hajmgaga suv bilan yetkiziladi qo'shiladi. Eritma yaxshilab aralashtiriladi. Ishchi eritma sovitgichda saqlanganda bir sutkagacha turg'un bo'ladi.

14. Molibden reaktiv. 7,5 g ammoniy molibdat tuzi 50 ml konsentrangan azot kislotada suytiriladi.

15. Biuret reaktiv. 1,5 g mis sulfat va 60 g kaliy tartarat 300 ml 10% li natriy gidroksid eritmasida suytiriladi va reaktivning umumiyligi hajmi 1l ga distillangan suv bilan yetkaziladi.

16. Foli reaktiv. 1,5-2 l li dumaloq tubli kolbaga 100 g natriy molibdan tuzi solib 700 ml distillangan suvda eritiladi. Eritmaga 50 ml 80% li fosfat kislota eritmasi va 100 ml konsentrangan xlorid kislota solinadi. Kolba qaytar sovitgich bilan biriktiriladi va 10 soat davomida qaynatiladi, so'ngra 150 g litiy sulfat, 50 ml suv va 3-4 tomchi brom qo'shiladi. Eritma hona haroratigacha sovitiladi va uning

hajmi 1 l gacha suv bilan yetkaziladi-da filtrlanadi. Eritma tiniq-sariq rangli bo‘ladi. Ushbu eritma qora idishda saqlanadi va ishlatishdan oldin 1:1 nisbatda suyultiriladi.

17. Poliakrilamid gel elektroforez usuli uchun reaktivlar:

1-reakтив. 1 mol/l xlorid kislota eritmasi – 48 ml; TRIS (trioksimetileniminometanxlorigidrat) - 3,6 g. TMED - 0,23 ml 100 ml hajma distillangan suv bilan yetkaziladi.

2-reakтив. Akrilamid-30; metilen-bis-akrilamid - 0,8g; distillangan suv bilan 100 ml ga yetkaziladi.

3-reakтив. 14g ammoniy peroksidisulfat 100 ml suvda eritiladi. Tajriba oldidan tayyorlanadi.

18. Fosfat buferni tayyorlash. 11,9 g dinatriy gidrofosfat (mol. mas 178,01) va 9,1 g kaliy digidrofosfat (mol. mas 136,09) tuzlari yaxshilab qaynatilgan distillangan suvda alohida eritiladi. Har bir eritilgan tuzning hajmi (1 l suv bilan yetkaziladi. Kerakli pH da bufer eritma tayyorlash uchun I va II eritmalar jadvalga binoan aralashtiriladi).

| Bufer pH i | Natriy gidrofosfat, ml | Kaliy digidrofosfa t, ml | Bufer pH i | Natriy gidrofosfat, ml | Kaliy digidrofosfa t, ml |
|------------|------------------------------|--------------------------------|------------|------------------------------|--------------------------------|
| 5,59 | 0,5 | 9,5 | 6,95 | 6,0 | 4,0 |
| 5,91 | 1,0 | 9,0 | 7,17 | 7,0 | 3,0 |
| 6,24 | 2,0 | 8,0 | 7,38 | 8,0 | 2,0 |
| 6,47 | 3,0 | 7,0 | 7,42 | 9,0 | 1,0 |
| 6,64 | 4,0 | 6,6 | 8,04 | 9,5 | 0,5 |
| 6,81 | 5,0 | 5,0 | | | |

19. Yodning asosiy eritmasi. Qon zardobi amilazasini mikroekspress usuli bilan aniqlash uchun bilan 0,25 g yod kristallari va 0,86 kaliy yodid 20 ml suvda eritiladi.

20. Yodning ishchi eritmasi. Yodning asosiy eritmasi 50 marta 0,2 n xlorid kislotada suyultiriladi. Eritma bir soat davomida turg‘un; ishlatishdan oldin tayyorlanadi.

21. Kraxmalning 0,1% li eritmasi (ishchi eritma). Qon zardobi amilazasini aniqlash uchun 100 mg eritigan kraxmal 1 ml sovuq suvda eritiladi, so‘ngra to‘liq erishi uchun issiq suvgaga o’tkaziladi. Xona haroratida sovitilgach, hajmi 100 ml ga suv bilan yetkaziladi. Muzlatgichta 5 kungacha saqlanadi.

22. Xagedorn-Yensen usuli bilan qandni aniqlash uchun kraxmalning 1% li eritmasi. 1 g eriydigan kraxmalga 100 ml xloridning to‘yingan eritmasi solinadi va kimyoviy stakanda doim aralashtirib turgan holda qizdiriladi.

23. Kofein reaktivi. 5 g toza kofein 7,5 g natriy benzoat va 12,5 natriy atsetat 70 ml suvda past haroratda qizdirish yo‘li bilan (80°C gacha) eritiladi. So‘ngra hajmi 10 ml ga suv bilan yetkaziladi. 2 hafta saqlash mumkin.

24. Fosforni aniqlash uchun Molibden reaktivi. Natriy benzoat va 12,5 g natriy atsetat 70 ml suvda eritilib, 500 ml konsentrangan azot kislota qo‘shiladi.

25. Ammoniy molibdatning 2,5% li eritmasi. Blyur usuli bo‘yicha “P” ni aniqlash uchun 2,5 g ammoniy molibdat 50 ml 10 n sulfat kislotada eritilib, hajmi suv bilan 100 ml ga yetkaziladi.

26. Mis reaktivi. 6,45% li mis nitrat uchgiderat eritmasidan 10 hajm, 1M trietanoamin (nisbiy massasi 149) eritmasidan 9 hajm va 1 n sirka kislotada 1 hajm tayyorlanadi.

27. Glyukozani aniqlash uchun ishchi reaktiv. 80 ml pH i 4,8 bo‘lgan 0,25 n atsetat buferga 2 mg glyukoksidaza va 1 mg quruq kristallik peroksidaza qo‘shiladi. So‘ngra 1 ml 1% li O-toluidining absolyut spirtdagi eritmasidan solib hajmi 100 ml ga atsetat bufert bilan yetkaziladi. Eritma muzlatgichda qora idishda saqlanadi. Barcha fermentlar qo‘shiladi. Ishlatishdan oldin eritma xona haroratiga keltiriladi.

28. Saxarozaning 0,25 M eritmasi. Tajribada 0,02 M (pH 7,4) tris-bufer tutuvchi eritma. 0,2M tris-bufer eritmasi (nisbiy massasi 121,14 bo‘lgan oqsimetil-aminometanxlorgidrat tayyorlanadi.) 24,33 g tris 1 1 suvda eritiladi. 0,2M eritmadan 0,02M eritma tayyorlanadi. Buning uchun 10 ml 0,2M trisga 0,1 n natriy gidroksid eritmasi “Rifan” indikatori ishtikorida pH i 7,4 bo‘lguncha tomiziladi. So‘ngra umumiy hajmi suv bilan 100 ml ga yetkaziladi. Saxarozaning (nisb. molek. massasi 339) 0,25 M eritmasi: 84,75 g saxaraza 0,02M tris-buferga eritiladi.

29. Xramotografiya usuli uchun aminokislota eritmalar. Aminokislotalar (0,04) 1/25M miqdor eritiladi

10 ml suvda eritiladi:

| | |
|------------------|------|
| glutamin kislota | 60mg |
| alanin | 40mg |
| leysin | 50mg |

yoki qo‘yidagi aminokislotalarning aralashmasidan foydalanish mumkin(10 ml suvda eritiladi).

1.Glutamin kislota 60mg

glitsin 40mg

alanin 40mg

2.Glutamin kislota 60mg

leysin 50mg

3.Asparagin kislota 60mg

| | |
|----------------------|------|
| serin | 40mg |
| leysin | 60mg |
| 4. Asparagin kislota | 60mg |
| glitsin | 40mg |
| leysin | 60mg |

Aminokislotalarning eruvchanligini oshirish uchun uni suv hammomida qizdirish mumkin.

30. Milon reaktiv. 40 g simob xona haroratida 60 ml konsentrangan azot kislotada (nisbiy zichligi 1,40) eritiladi so‘ngra eritma azotning oksidlanishidan ajralgan qo‘ng‘ir bug‘lar tugaguncha iliq suv hammomiga joylashtiriladi va eritma aralashtiriladi.

31. Feling reaktiv. Kimyoviy toza mis kuporosi issiq eritmada kristallanib, filtr qog‘ozda quritiladi. Alovida 2 xil eritma tayyorlanadi: a) 200 g segnet tuzi va 150 g o‘yuvchi natriy ishqoriy o‘lchov kolbasida eritiladi va uning hajmi belgilangan chegaragacha yetkaziladi. b) 40 g mis kuporosi 1 l li kolbada eritiladi. Ishlatishdan oldin ikkala eritma teng hajmda aralashtiriladi.

32. 0,1 n natriy gidroksid eritmasi. 50 g kimyoviy toza o‘yuvchi natriy 40 mg karbonat angadridsiz suvda eritiladi va shu zahoti kauchuk probka bilan zich berkitiladi va shisha idishga solinadi. Kuchli ishqorda erimagan natriy bikarbonatning (soda) kristallari hosil bo‘lguncha bir necha kun saqlanadi. 6 ml ishqor 1 l hajmga yetguncha suv bilan suyultiriladi. Eritmaning normaligi fiksoladan tayyorlangan 0,1 n xlorid kislota bilan tekshiriladi. 0,05 n natriy gidroksid eritmasi 20 ml gacha suyultiriladi.

33. 0,1 n sulfat kislota eritmasi. 2,8 ml sulfat kislota (nisb. zichligi 1,84) suv bilan 1 l hajmga yetkaziladi. Uning titri natriy gidroksidning titrlangan eritmasi bilan aniqlanadi. 0,01 n sulfat kislota eritmasi 0,1 n eritmada tayyorlanadi. 100 ml 0,01 n sulfat kislota bilan 1 l hajmgicha suyultiriladi.

34. “NADI” reaktiv (ishlatilishidan 1 soat oldin tayyorlanadi). Dimetilparafenilendiaminning suvdagi 1% li eritmasi alfa-naftolning spirtdagagi 1% li eritmasi va natriy karbonatning 1,5% li eritmasi bilan teng hajmda aralashtiriladi. “NADI” reaktivni to‘q jigar rangga bo‘yaladi, u pushti tuz olmasligi kerak. NADI ning yangi tayyorlangan eritmasidan foydalaniladi, saqlanganda u tez o‘zgaradi.

35. Kaliy permaganatning 1 n eritmasi. 32 g kaliy permanganat eritmasi 50 ml issiq suvda ($70-80^{\circ}\text{C}$) erilib, hajmi 1 l ga yetkaziladi. Uning titri fiksonaldan tayyorlangan 1 n shovul kislota bilan aniqlanadi. 0,05 n eritmada 200 marta suyultirib tayyorlanadi.

36. Suv bilan to‘yingan toluol. 250 ml toluol 250 ml suv bilan voronkada 10-15 daqiqa chayqatilib, tindiriladi, toluol qavati ehtiyyotlik bilan ajratib olinadi.

37. Uchlamchi xlor-yod-rux eritmasi. 50 g rux sulfat va 250 g natriy xlorid 1 li kolbaga solib eritiladi hajmi suv bilan belgigach yetkaziladi va filtrlanadi. Faqat ishlatish oldidan eritmaning bir qismiga 2,5 g kaliy yodid qo‘shiladi va hajmi yuqoridagi aralashma bilan 100 ml ga yetkaziladi.


38. Suv bilan to‘yingan fenol. 100 ml fenol ayiruv voronkasiga solinib (oldindan suv hammomida 45⁰C gacha qizdirilgan) va unga 25 ml suv qo‘shib chayqatiladi va etti qismga ajralguncha qoldiriladi (fenolning pastki qavati rangsiz bo‘lishi kerak). Pastki qavatdagi fenol aminokislotalar qog‘oz xromatografiya usuli bilan ajratish uchun ishlatiladi. Fenol bilan ehtiyyot bo‘lib ishlash kerak.

39. Follikulinni aniqlash uchun Folin reaktiv. Qaytar muzlatgich o‘rnatilgan kolbagaga 100 g natriy volframmat, 20 g fosfat molibdat kislota, 50 ml fosfat kislotaning 85% li eritmasi va 750 ml suv solinadi. Qayrat xolodilnik o‘rnatilgan kolba probka bilan berkitilib 10 soat davomida qaynatiladi, eritma sotilgach uning hajmi suv bilan 1 l ga yetkaziladi.

Ilovalar:

0

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



OQSILLAR MUHANDISLIGI FANINING O'QUV DASTURI

| | |
|-------------------|--|
| Bilim sohasi | 300000-Ishlab chiqarish texnik soha |
| Ta'lif soxasi | 320000-Ishlab chiqarish texnologiyalar |
| Ta'lif yo'nalishi | 5320500 - Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo'jaligi) |

Toshkent-2022

| Fan/modul kodi OM3504 | O'quv yili 2022-2023 | Semestr(lar) 5 | ECTS – K7 2 |
|------------------------------|----------------------------------|--|---------------------------|
| Fan/modul turi Qo'shimcha | Ta'lim tili O'zbek/rus | Haftadagi dars soatlari 2 | |
| 1. | Fanning nomi Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) |
| | Oqsillar muhandisligi | 30 | 30 |
| 2. | | Jami yuklama (soat) | 60 |

2.1. Fanni mazmini

Fanni o'qitish maqsadi va vazifalari

Fanni oqitishidan maqsad oqsillarning kimyoviy tuzilishini o'rganish uchun ularni individual xolda qanday qilib biologic ob'ektlardan ajratib olish, ularni biologik faoliagini aniqlash usulublari va oqsillar muhandisligi metodlari yordamida qanday qilib sanot mizqiyosida qollsh imkoniyatlari xaqida talabalarga aniq bilim berish, xamda biotexnologik yondoshishlar asosida turli maxsulotlarni olishni zamonaviy texnologiyasini yaratish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga zamonaviy biotrxnologiyaning asosi bol'lgan «oqsillar kimyosiv» soxasida keyingi paytlarda shiddatli rivojlanayotgan zamonaviy fizik-kimyoviy usullarni tushuntirish, ulardan foydalanish usullarini o'rgatish, xamda ko'pgina usullarni takomillashtirish ko'nikmalarini shakllantirish, fanni xozirgi zamonda tutgan o'rni va fan yutuqlari bilan talabalarni tanishтирishdan iborat.

2.2. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibi mavzulari:

1- mavzu: Fanga kirish. Oqsillar tuzilishi, funksiyasi va muhandisligi fani tarixi va uning vazifalari

Oqsillar luzilishi, funksiyasi va muxandisligi fanining axamiyati va vazifalari. Oqsillar kimyosining rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlari. Oqsillarning biopolimerlar sifatida (tasavvur qilinishi). Oqsillar xaqida umumiyl tushunchalar. Oqsillarning klassifikatsiyasi prinsiplari, ularning xilma-xilligi. Oqsillar tarkibidagi ularga xos bol'magan komponentlar.

metallopeptidlar, xromoproteidlar, glikoproteid va boshqalar. Oqsil molekulasining tuzilish darajalari.

2-mavzu. Oqsillar tuzilishini tadqiqot qilish usullari

Oqsillarning aniiokislota tarkibi va birlamchi tuzilishini aniqlash usullari. Oqsillarning mass-spektrometriysi va uning prinsiplari. Oqsil nanuinasi mass-spektrometriya usulida anliz qilisligi tayvorlas yo'llari. Aminokislotalar funksional guruhlari modillkalsiyasi reaksivalari Polipoplid sanjirini spetsifil va nospetsifik fragmentlarga ajratishning kimyoviy va fermentativ usullari.

3-mavzu. Oqsillar biotexnologiyasi

Oqsillarning tuzilishi, funksiyasi va klassifikatsiyasi. Oqsillar biosintesi. Oqsillar qo'llaniladigan sanoot turlari.

4-mavzu. Aminokislotalar oqsil molekulasi tuzilisining asosiy bloklari. Aminokislotalar olish texnologiyasi

Aminokislotalarning klassifikatsiyasi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlari. Aminokislotalar va oqsillarning aniqlashning biokimyoviy usullari. Oqsillarni biologik ob'ektlardan tozalash va ajratib olish prinsiplari. Oqsil molekulasini individual xolda xolatini aniqlash yo'llari. Aminokislotalar olish texnologiyasi

5-mavzu. Oqsillarning tuzilish darajalari.

Oqsillar (polipeptidlar) peptid bog'lari orqali bog'langan aminokislotalardan tashkil topgan biopolimerlardan ekanligi. Oqsillarning birlamchi tuzilishi. Oqsillarning ikkilamchi tuzilishi. Oqsillaniing uchlaniqli tuzilishi. Oqsillarning to'rlamchi tuzilishi. To'rlamchi tuzilishning stexiometriysi va geometriysi.

6-mavzu. Fermentlar olish texnologiyasi

Fermentlar olish texnologiyasi. Fermentlar biologik katalizatorlar sifatida. Fermentlar olishda mikrabiologik usullar. Fermentlarni ajratib

3

| |
|---|
| olish va tozalash usullari |
| 7-mavzu. Oqsillarning sifat ko'sratkichlari |
| Oqsillarning sifat korsatkichlari. Hayvon maxsulotlari oqsillari. O'simlik maxsulotlari oqsillari. Oqsillarning ozuqaviy qiymati. Oqsillar ozuqa maxsulotlari |
| 8-mavzu. Oqsillarning dorivorlik hususiyatlari |
| Dori vostitalari ishlab chiqarishda oqsillardan foydalanan. Oqsillarning sifat korsatkichlari. Oqsillarning tozalash usullari. Farmasevtikadagi oqsil tabiatli dorivor vostitalar ishlab chiqarish biotexnologiyasi. |
| 2.3. Amaliymashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. |
| «Oqsillar muxandisligi» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlari reaktivlar va zarur jiholar bilan ta'minlangan laboratoriya xonasida o'qituvchi nazorati ostida o'tkaziladi. Amaliy ishining nazariy va amaliy ma'lumotlarini to'la o'zlashtirgan talabalargagina tajriba o'tkazish ruxsat etiladi. Mashg'ulotning nazariy va amaliy qismlari hamda o'tkazilgan tajriba natijalari laboratoriya daftariga qayd etiladi va olinigan hulosalar ketilurilib, o'qituvchi tomonidan reyting tizimi asosida baholanadi. |
| Amaliymashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi |
| 1.Oqsil molekulasining aminokislota tarkibini aniqlash usullari. 2. Biologik materiallardan oqsil va peptidlarni toza holda ajratib olish usullari. 3. Oqsil va peptidlarning aminokislota ketme ketligini aniqlash usullari. 4. Oqsillarga hos sifat reaksiyalar. 5. Oqsil va peptidlarni tozalik darajasini tahlil qilish yolları. 6. Zamonaviy spektrofotometrik usullar yordamida oqsil va peptidlarni tuzilishini organish usullari. 7.Fermentlar, gormonlar va boshqa biologik faol oqsillarni funksiyalarini shrganish usullari. |

2.4. O'quv rejada laboratoriya mashg'ulotlar uchun soat ajratilmagan

2.5. O'quv rejada kurs ishi soat ajratilmagan

2.6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Oqsillarning tuzilishi va funksiyasi
- Oqsillar muhaddisligining fizikaviy kimyoviy metodlari
- Antitelolarni oqsil muhandisligi
- Sun'iy oqsillar olish yolları
- Amaliy oqsillar muhandisligida maqsadli oqsillarni genlar eksperessiyasi yordamida miqdoriy yaratish
- Biologik av fizik-kimyoviy tizimlarda ketadigan jaroyonlar.
- Antigen va antifanalarning o'zaro ta'sirlarining spetsifikkligi
- Regulyator molekulalar (peptidlar)
- Biologik hujayralarning molekulyar jihozlanishi
- Eksperessiyaning hujayrasiz tizimi
- Turli moddalarini renaturatsiya jaroyoniga ta'siri
- Antitelolarni oqsil muhandisligi
- Sun'iy oqsillar olish yolları
- Effekti eksperessiya tizimini yaratish
- Amaliy oqsillar muhandisligida maqsadli oqsillarni genlar eksperessiyasi yordamida miqdoriy yaratish

3. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Oqsillar muhandisligi fani haqida umumiyl tushuncha, xozirgi zamон biotexnologiyasining rivojlanish istiqbollari va oqsil moddalar ishlab chiqarish jarayonlari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

•Ta'lim yo'nalishi bo'yicha qollaniladigan biotexnologik usullar va

ulardan foydalanan ko'nikmalariga ega bo'lishi;

Talabalar oqsillarni ajratib olish texnologiyalarini yaratish, sanoatda qo'llash usulini, ishlab chiqarishni loyihalashtirishni o'rganishlari zarur.

5

| | |
|----|---|
| | <p>-Talaba oqsillarlar; aminokislotalar, oqsillar, gormonlar, vitaminlar, o'simlik biofaol moddalar, fermentlar, dorivor moddalar, antibiotiklar kabi biofaol moddalaryb ishlab chigarish hamda amaliyotga joriy qilish borasida nazariv va amali bilimga ega bo'lishi kerak.</p> |
| 4. | <p>Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys -stadilar; Klaster sxemasi, Venn diagrammasi, «Muloqot» usuli • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol -javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; |
| 5. | <p>Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariv va uslubiy tushunchalarini to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganiyayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshirqlarni bajarish, yakuniy nazorat savollariga javob berish.</p> |
| 6. | <p>Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari</p> <p>6.1. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. C. Branden,J. Tooze. «Introduction to protein Structure», 2-nd edition, Garland Publishing, 1999. 2. Овчинников Ю.А. «Биоорганическая химия», М. Просвещение, 1984. 3. Zikryaev A., Mirxamidova R. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. Darslik. T.:Tafakkur bo'stoni. 2013.-223b 4. Рахматов Н.А., Махмудов Т.М., Мирзаев С. Биокимё. Дарслик -Т.: Таълим, 2009. -528 б. 5. Патрушев Л.И. Искусственные генетические системы. Т1. Генная и белковая инженерия. -М. Наука, 2004, 525 стр. 6. Igammazarov R.P., Abdullayeva M.M. «Biokimyodan laboratoriya mashg'ulotlari». -Toshkent. Universitet. 2015 <p>6.2. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Гидранович Б.И., Гидранович А.Б. «Бохимия» Учебное пособие. Минск. ТетраСистемс. 2014. -с.528. 2. Альбертс Б., Брей Д., Льюис Д., Рэфф М., Робертс К., Уотсон Д. Молекулярная биология клетки. Изд. Мир., 1986. - |

6

| | |
|----|--|
| | <p>c.224</p> <p>3. Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo'stoni. 2014. -224 b.</p> <p>4. T/ Creighton. «Proteins?», 2-nd edition: «Strukture and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.</p> <p>5. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Wiley @Sons Ins, 1999</p> <p>6.3. Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyonet.uz 2. www.bio.ru 3. www.biotex.ru 4. www.promega.com 5. www.molbio.ru 6. www.ziyonet.uz |
| 7. | <p>Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (bayonnomma №-____ 2022 yil _____)</p> |
| 8. | <p>Fan (modul) uchun ma'sullar:</p> <p>G.T.Abdullayeva - TDTU, "Biotexnologiya" kafedrasи v.b.professori, biologiya fanlari doktori; M.J. Toshtemirova - TDTU, "Biotexnologiya" kafedrasи katta o'qituvchisi.</p> |
| 9. | <p>Taqribchilar:</p> <p>Abdullayeva M.M. - O'ZMU, "Biokimyo" kafedrasи professori, biologiya fanlari doktori K.K. Nazarov - TDTU, "Biotexnologiya" kafedrasи dotsenti, biologiya fanlari nomzodi;</p> |

7

Fan ishchi dasturi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



OQSILLAR MUHANDISLIGI ISHCHI FAN DASTURI

| | |
|---------------------------------------|--|
| Bilim sohalari: | 300000-Ishlab chiqarish texnik soha |
| Ta'lif sohalari: | 320000-Ishlab chiqarish texnologiyalar |
| Ta'lif yo'nalishi (mutaxassisligi) | 5320500 - Bioteknologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo'jaligi) |

| Ta'lif yo'nalishi (mutaxassislik) kodi va nomi | Umumiy yuklamma hajmi | Talabaning o'quv yuklamasi, soat | | | | | | | Semestrlar/ soat | |
|--|--------------------------|----------------------------------|---------|----------------------|-----------|---------|-------------------------|--------------------|---------------------|--|
| | | Auditoriya mashg'ulotlari | | | | | | | | |
| | | Jumladan | | | | | | | | |
| | | Jami | Mafuzza | Ammaly mashg'ulot | Lab. ishi | Seminar | Kurs ishi (doyihasi) | Mustaqil ta'lif | | |
| 5320500 - Bioteknologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo'jaligi) | 60 | 30 | 16 | 14 | - | - | - | 30 | 2 | |

Toshkent-2022

| | | | | |
|---|---|---|---------------------------------------|--------------------------------|
| Fan/modul kodi BIOTA2507 | O‘quv yili 2022-2023 | Semestr(lar) 4-5 | ECTS - Kreditlar 7 | |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta’lim tili O‘zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 3-4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Oqsillar muhandisligi | 30 | 30 | 60 |
